Недостатком конструкции алюминиевых междупильных прокладок являются их недостаточная прочность и износостойкость, из-за циклическому нагружению сжатия от технологических и динамических нагрузок приводящий к пластической деформации и изгибу междупильных прокладок по толщине. Поэтому междупильные прокладки являются одними из наиболее часто заменяемых деталей хлопкоочистительных машин.

Поэтому для решения этих недостатков предложены несколько следующих конструктивных решений.

Д.Э.Якубов [2] предложил междупильную прокладку, в которой отверстие размером с вал и наружный размер, определяющий толщину прокладки, были закрыты металлической линтой, которая была намного выше по прочности, чем сама прокладка.

В работе А.Джураева [3] геометрические оси междупильных прокладок выполнены эксцентрично относительно оси вращения, а геометрические оси промежуточных деталей расположены по спирали вдоль оси вращения. Недостатком является то, что это приводит к дисбалансу по длине вала.

А.Артукметовым и С.М.Даллакяном [4] предложена междупильная прокладка для хлопкоочистительных машин, представляющая собой диск с отверстием под вал, выполненный из полиамидного материала. При этом междупильная прокладка выполнена одинаковой по всей толщине с отклонениями не более $\pm 0,05$ мм и с наружным диаметром 170–154 мм.

Для исключения использования дефицитного цветного металла, снижения веса и стоимости пильного цилиндра, расхода электроэнергии, затрачиваемой на вращение пильного цилиндра, и увеличения срока службы пильного цилиндра, М.М. Агзамовым [5] предложено использовать прокладки, изготовленные из полимерного материала. Прокладки снабжены встроенными в их основу металлическими штифтами, расположенными на одинаковом расстоянии от центра вала и друг от друга и буртиком, расположенным на внутренней торцевой поверхности основы. Однако данная конструкция прокладки неустойчива к перепадам температур.

Прокладки из разных материалов попарно установлены между смежными дисками концентрично одна другой, при этом в каждой паре наружная прокладка выполнена из пластмассы с модулем упругости, равным 20–40 н/см, модулем сдвига $3 \cdot 10^{-10}$ н/см и коэффициентом потерь на трение не менее 0,6. Внутренняя прокладка выполнена из металла с модулем упругости не менее 10 н/см [5].

П.Н.Тютиным и Р.Ю.Меламедовым предложен пильный барабан с установочными и фиксирующими прокладками, которые выполнены с кольцевыми пазами для фиксации секторов дисков. Установочные прокладки имеют впадины, расположенные против щелевых отверстий в секторах дисков, при этом последние имеют установленные в каждом отверстии пластинчатые фиксаторы, концевые участки которых размещены в кольцевых смежных фиксирующих прокладках [6]. Этот метод эффективен при однородной структуре материала междупильной прокладки.

Для повторного использования алюминиевой прокладки серии 4ДП 05.003 толщиной 16,5 мм Д.М.Мухаммадиевым и др. [7], как и в [6], был предложен рациональный и высокоэффективный метод холодной калибровки, при котором междупильная прокладка – заготовка запрессовывается между полированной штамповочной плитой на гидравлическом прессе. После калибровки размерная погрешность толщины междупильной прокладки не превышает 25–30 мкм, а погрешность формы находится в пределах допустимого размера, при этом шероховатость боковых опорных поверхностей соответствует 6–7 классу. Однако, как известно, боковая сторона прокладки будет иметь различные плотности из-за

многократного использования алюминиевого материала, что вызовет неравномерность по толщине междупилльной прокладки.

Поэтому наиболее перспективным и отвечающим технологическим требованиям пильного цилиндра является применение новой конструкции междупилльных прокладок хлопкоочистительных машин, в которой диск с отверстием под размер вала и концентрически расположенный пояс выполнены из прочного листового металла, причём наружный диаметр диска в виде прямобочной шлицы, а концентрически расположенный пояс выполнен в виде кольца с отверстиями по периметру для соединения диска и кольца. При этом во внутреннее отверстие диска установлен второй пояс с отверстиями [8].

На рекомендуемом стальным междупилльной прокладки точность изготовления, то есть ширину y определяют через толщину наружного и внутреннего поясов. Поэтому наши дальнейшие исследования были направлены к технологии получения этих поясов.

Лазерная резка является одним из способов изготовления пояса междупилльной прокладки литерной машины [9]. В дальнейшем рассмотрим особенности этой технологии.

Особенности технологии лазерной резки. Лазерная резка — это метод термического разделения материала с использованием лазерного луча, который фокусируется после прохождения через линзу объектива. Во время обработки фокус лазерного луча может располагаться над поверхностью заготовки (X_1), на поверхности или под ней, в зависимости от толщины Δ и свойств материала (рис. 3). Одновременно соосно лучу из сопла выходит, струя газа под давлением, которая удаляет расплавленный материал из образующейся при резке прорези.

В работе [10] установлено, что для достижение желаемых результатов при обработке материала лазерной резкой влияют параметры лазера, режимы обработки, параметры заготовки и машинные параметры.

Учитывая все вышеперечисленные параметры режимов резания (X_1 , X_2), свойства материала и геометрические размеры заготовки, можно достичь желаемых результатов обработки (рис. 2).




Рис. 2 - Положение фокуса.

Методы

Точность изготовления заготовки пояса междупилльной прокладки литерной машины с использованием лазерной технологии зависит от высоты X_1 и скорости резки X_2 .

Цель исследования — определение максимальной ширины заготовки пояса междупилльной прокладки литерной машины с использованием лазерной технологии путем изменения высоты и скорости резки.

Задача исследования — изучение влияния высоты X_1 и скорости резки X_2 на ширину y заготовки пояса междупилльной прокладки литерной машины с использованием лазерной технологии.

Планирование эксперимента позволяет целенаправленно провести его и выбрать количество опытов и условия их проведения для решения поставленной задачи с требуемой точностью [11].

Как показал предварительный анализ, основными факторами, влияющими на ширину y заготовки пояса междупилльной прокладки литерной машины при использовании лазерной технологии, являются высота (X_1) и скорость резки (X_2) [12].

Таким образом, управляющими факторами в данном исследовании являются: X_1 — высота резки, мм; X_2 — скорость резки, м/мин (таблица 1). Другие факторы, такие как диапазон плотности мощности и длительность импульсов лазерного излучения, оставались неизменными.

Для определения влияния основных факторов x_1 и x_2 используем матрицу ортогонального планирования второго порядка для двухфакторного процесса. Выбор этой матрицы обусловлен тем, что линейная математическая модель недостаточно описывает

исследуемый процесс. Матрица ортогонального планирования второго порядка для двухфакторного процесса с условиями проведения эксперимента представлена в таблице 2 [11]. Для получения достоверных результатов исследования эксперимент проводился при резке стального листа толщиной $\Delta=1.5$ мм (рис. 3).

Эксперимент был проведен на лазерном станке для резки металла с ЧПУ Bodor A3 2000W MAX [13] при высоте резки 0,6 мм, 0,7 мм и 0,8 мм, а также скорости резания 7000 мм/мин, 7500 мм/мин и 8000 мм/мин.

Таблица 1

Параметры	-1	0	+1
Высота резки X_1 , мм	0.6	0.7	0.8
Скорость резаний X_2 , мм/мин	7000	7500	8000



Рис. 3 - Чертеж заготовки пояса для междупильной прокладки лентерной машины.

Таблица 2

№	X_0	X_1	X_2	$X_1 \cdot X_2$	$(X_1')^2$	$(X_2')^2$
1	+	+	+	+	0.33	0.33
2	+	-	+	-	0.33	0.33
3	+	+	-	-	0.33	0.33
4	+	-	-	+	0.33	0.33
5	+	-	0	0	0.33	-0.67
6	+	+	0	0	0.33	-0.67
7	+	0	-	0	-0.67	0.33
8	+	0	+	0	-0.67	0.33
9	+	0	0	0	-0.67	-0.67

Эксперимент проводился в следующем порядке: подготовка чертежа заготовки для пояса междупильной прокладки лентерной машины (рис. 3), загрузка стального листа толщиной $\Delta=1.5$ мм и чертежа (файла) на компьютер лазерного станка для резки металла с ЧПУ Bodor A3 2000W, запуск процесса резки (таблица 3). Отбор образцов и измерение размеров поясов производились с использованием микрометра 0-25 мм.

Результаты

Исследования проводились на лазерном станке для резки металла с ЧПУ Bodor A3 2000W MAX на предприятии ООО «Қишлоқ хўжалик машиналари» (рис. 4). В соответствии с теоретическим планированием эксперимент проводили 5 раз. Результаты эксперимента внесли в соответствующие таблицы 3.

В соответствии с требованиями ортогонального планирования эксперимента [11], путем изменения диапазона высоты (X_1) и скорости резки (X_2) проводились повторные эксперименты для определения характера изменения размеров поясов междупильной прокладки лентерной машины. Результаты этих экспериментов приведены в таблице 3.

Математическая обработка результатов эксперимента, приведена в таблице 4.

Приняв уровень надежности $P=0.95$ [11], производим оценку точности измерений, для чего определим дисперсии ошибок эксперимента по формуле

$$\sigma^2 = S^2 = \frac{1}{n-1} \sum_{i=1}^n (y_i - \bar{y})^2 \quad (1)$$

где $\bar{y} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n y_i$ среднее арифметическое

значение результатов измерений.



Рис. 4 - Лазерный станок для резки металла с ЧПУ Bodor A3 2000W MAX.

Таблица 3

	Значения факторов		Повторности ширину поясов междупильной прокладки лентерной машины, мм					
	Высота резки X_1 , мм	Скорость резаний X_2 , мм/мин	y_1	y_2	y_3	y_4	y_5	$\bar{y}_n$
	+	+	8.80	8.87	9.09	9.14	8.85	8.80
	-	+	8.99	8.90	9.08	9.17	8.81	8.99
	+	-	8.80	8.95	9.01	9.10	8.74	8.80
	-	-	9.16	9.03	9.42	9.24	9.35	9.16
	-	0	8.75	8.89	8.90	9.00	8.91	8.75
	+	0	8.93	9.00	9.04	9.13	8.95	8.93
	0	-	9.07	9.01	9.13	9.15	8.99	9.07
	0	+	8.70	8.74	8.86	8.89	8.91	8.70
	0	0	9.23	9.32	9.36	9.39	9.25	9.23

Таблица 4

№ опыта	f_N	S_N^2	$\bar{y}$	$\hat{y}$	$\bar{y} - \hat{y}$	$(\bar{y} - \hat{y})^2$
1	5	0.02365	8.950	8.839	0.111	0.012
2	5	0.02025	8.990	8.779	0.211	0.045
3	5	0.02205	8.920	8.856	0.064	0.004
4	5	0.02375	9.240	9.076	0.164	0.027
5	5	0.00805	8.890	9.134	-0.244	0.060
6	5	0.00635	9.010	9.054	-0.044	0.002
7	5	0.00500	9.070	9.168	-0.098	0.010
8	5	0.00885	8.820	9.011	-0.191	0.036
9	5	0.00475	9.310	9.296	0.014	0.000
Сумма	45	0.12300	81.200	81.210	-0.012	0.196

В точечной оценке при неизвестной точности измерений доверительная оценка имеет вид

$$|a - \bar{y}| < t(P; k) \frac{S}{\sqrt{n}}, \quad (2)$$

где множитель $t(P; k)$ зависит уже не только от доверительной вероятности, но от числа измерений n . Здесь a – искомая истинная величина измеряемого параметра. k – число степеней свободы.

При симметричной доверительной оценке имеем

$$(\bar{y} - \varepsilon) < a < (\bar{y} + \varepsilon), \quad (3)$$

где ε – ошибка измерений.

К примеру: при высоты резки $X_1=0.8$ мм и скорости резаний $X_2=7000$ мм/мин в пяти повторностях была следующая ширины поясов междупилльной прокладки $y_1=8.8$ мм; $y_2=8.95$ мм; $y_3=9.01$ мм; $y_4=9.10$ мм; $y_5=8.74$ мм.

Для оценки точности измерений при доверительной надежности 0.95 определим среднее арифметическое значение $\bar{y}$:

$$\bar{y} = \frac{1}{5} \sum_{i=1}^5 y_i = (8.8 + 8.95 + 9.01 + 9.1 + 8.74) / 5 = 8.92 \text{ мм}$$

и определим эмпирическую дисперсию:

$$S = \sqrt{\frac{1}{n-1} \left[\sum_{i=1}^5 (y_i - \bar{y})^2 \right]} = 0.1485 \quad (4)$$

По распределению Стьюдента из [11] при $P=0.95$ и $k=4$, $t=t(P; k)=2.776$. Тогда средняя арифметическая ошибка составляет

$$\varepsilon = t(P; k) \frac{S}{\sqrt{n}} = 2.776 \frac{0.1485}{\sqrt{5}} = 0.1843 \quad (5)$$

При симметричной доверительной оценке

$$(8.92 + 0.1843) < a < (8.92 - 0.1843) \text{ или } 8.7356 < a < 9.1043 \quad (6)$$

Таким образом, истинное значение измеряемого параметра (толщина поясов) находится в пределах от 8.7356 до 9.1043. Анализ показывает, что все полученные результаты измерений находятся в пределах доверительного уровня 0.95.

Подобным образом производится доверительная оценка всех остальных опытов. Дисперсии ошибок представлены в таблице 4.

Однородность дисперсии проверяется с помощью критерия Фишера [11]

$$F_{pac} = \frac{S_{\max}^2}{S_{\min}^2} = \frac{S_3^2}{S_9^2} = \frac{0.02375}{0.00475} = 5.0 < F_{tab} = 5.05 \quad (7)$$

Табличное значение критерия Фишера при $f=5$ для максимальной и $f=5$ для минимальной дисперсии составляет $F_{tab}=5.05$ [11].

Таким образом, все дисперсии однородны, и проведенный эксперимент обладает воспроизводимостью.

Выберем математическую модель для изучаемых критериев в форме полинома второй степени

$$y = b_0 + b_1 x_i + b_{ij} x_i x_j + b_{ii} x_i^2. \quad (8)$$

Определим коэффициенты $b_0, b_1, b_2, b_{12}, b_{11}, b_{22}$ соответственно по формулам [11]:

$$b_0 = b_0' - b_{11} x_1^2 - b_{22} x_2^2 \quad (9)$$

$$b_i = \frac{\sum_{j=1}^6 x_i \cdot \bar{y}}{6} \quad (10)$$

$$b_{ij} = \frac{\sum_1^4 x_i \cdot x_j \cdot \bar{y}}{4} \quad (11)$$

$$b_{ii} = \frac{\sum_1^9 (x'_{iu})^2 \cdot \bar{y}}{9} \quad (12)$$

Подставляя соответствующие значения из таблицы 4 в формулы (9 – 12), находим коэффициенты:

Подставляя (9-12) в (8), получим уравнение регрессии, имеющее следующий вид:

$$y = 9.296 - 0.04 \cdot x_1 - 0.0783 \cdot x_2 + 0.07 \cdot x_1 \cdot x_2 - 0.202 \cdot x_1^2 - 0.207 \cdot x_2^2. \quad (13)$$

Произведем оценку значимости коэффициентов уравнения регрессии (13). Определим дисперсии воспроизводимости:

$$S_{восп}^2 = \frac{S_1^2 \cdot f_1 + S_2^2 \cdot f_2 + \dots + S_9^2 \cdot f_9}{f_1 + f_2 + \dots + f_9} = 5 \cdot 0.123 / 45 = 0.0136. \quad (14)$$

Найдем значения дисперсии ошибок коэффициентов, учитывая данные [11] для k=0:

$$S_{b_i}^2 = \frac{S_{восп}^2}{\sum_1^N x_{iu}^2}; \quad (15)$$

$$S_{b_0}^2 = 0.0136 / 9 = 0.00151;$$

$$S_{b_1}^2 = S_{b_2}^2 = 0.0136 / 6 = 0.00227;$$

$$S_{b_{12}}^2 = 0.0136 / 4 = 0.0034;$$

$$S_{b_{11}}^2 = S_{b_{22}}^2 = 0.0136 / 2 = 0.0068.$$

Рассчитываем, значения квадратичных ошибок:

$$S_{b_0} = 0.0389 \quad S_{b_1} = S_{b_2} = 0.0477$$

$$S_{b_{12}} = 0.0584 \quad S_{b_{11}} = S_{b_{22}} = 0.0825.$$

Погрешности в оценке коэффициентов определим по формуле $\Delta b_i = \pm \frac{t \cdot S_{b_i}}{\sqrt{N}}$.

Здесь t - табличное значение критерия Стьюдента; N - число опытов при $N=9$, $t=2.262$ [11].

$$\Delta b_0 = 2.262 \cdot 0.0389 / 3 = \pm 0.0293,$$

$$\Delta b_1 = \Delta b_2 = 2.262 \cdot 0.0477 / 3 = \pm 0.0359,$$

$$\Delta b_{11} = \Delta b_{22} = 2.262 \cdot 0.0825 / 3 = \pm 0.0622,$$

$$\Delta b_{12} = 2.262 \cdot 0.0584 / 3 = \pm 0.044.$$

Тогда доверительный интервал коэффициентов регрессии составит:

$$\beta_0 = 9.296 \pm 0.0293,$$

$$\beta_1 = -0.04 \pm 0.0359,$$

$$\beta_2 = -0.0783 \pm 0.0359,$$

$$\beta_{12} = 0.07 \pm 0.044,$$

$$\beta_{11} = -0.202 \pm 0.0622,$$

$$\beta_{22} = -0.207 \pm 0.0622.$$

Все коэффициенты регрессии значимы.

В таблицах 4 приведены расчетные значения $\hat{y}$ и $\bar{y}$ от экспериментальных данных.

Подставляя сумму среднеквадратичных отклонений из таблицы 4, определим

дисперсию адекватности соответственно для уравнения (13) [11]:

$$S_{ad}^2 = \frac{\sum_{i=1}^N n \cdot (\bar{y} - \hat{y})^2}{N - (k + 1)} = 0.196 / 8 = 0.02448. \quad (16)$$

где N - число серии опытов, n - общее число опытов.

Проверим адекватность уравнения (13) по критерию Фишера [11].

$$F_{рас} = \frac{S_{ad}^2}{S_{восп}^2} = \frac{0.02448}{0.0136} = 1.7956 \leq F_{таб} = 2.16, \quad (17)$$

Табличное значение критерия Фишера при $f=(N-1)=8$ для дисперсии адекватности и $f=(n-1)=44$ для дисперсии воспроизводимости равно $F_{таб}=2.16$ [11]. Условия адекватности математической модели (13) выполнены, поскольку $F_{рас}=1.7956 < F_{таб}=2.16$.

Таким образом, уравнение (13) статистически описывает характер изменения ширины y поясов междупильной прокладки литерной машины.

С помощью уравнения (13) был построен график изменения ширины y поясов междупильной прокладки литерной машины в зависимости от высоты резки x_1 для различных значений скорости резки x_2 (рис. 5). Также был построен график изменения ширины y поясов междупильной прокладки литерной машины в зависимости от высоты резки X_1 и скорости резаний X_2 (рис. 6).

Анализ графиков (рис. 5) показывает увеличение ширины поясов y междупильной прокладки литерной машины (с 8.779 до 9.307 мм) при изменении скорости резки от 7000 до 8000 мм/мин и высоты резки от 0,6 до 0,8 мм. Максимальное значение ширины поясов междупильной прокладки литерной машины $y=9.307$ мм достигается при скорости резки 7400 мм/мин и высоте резки 0.69 мм.




Рис. 5 - Изменение толщины поясов междупильной прокладки литерной машины в зависимости от высоты резки x_1 и скорости резаний x_2 .

Выводы

Установлено, что точность изготовления заготовки для поясов междупильной прокладки литерной машины с использованием лазерной технологии зависит от высоты и

скорости резки. Для исследования этого процесса эксперименты проводились на лазерном станке для резки металла Bodor A3 2000W.

Анализ графиков, построенных на основе уравнения регрессии, показывает увеличение ширины поясов междупильной прокладки лентерной машины (с 8.779 до 9.307 мм) при изменении скорости резки от 7000 до 8000 мм/мин и высоты резки от 0.6 до 0.8 мм. Максимальное значение толщины поясов междупильной прокладки лентерной машины 9.307 мм достигается при скорости резки 7400 мм/мин и высоте резки 0.69 мм.

Установлено, что для получения заготовки ширины точно (кавалитет h9) $y=9.3_{(-0.036)}$ мм с использованием лазерной резки необходимая рабочая зона находится для высоты резки $X_1=0.64-0.73$ мм, а скорости резаний $X_2=7200-7600$ мм/мин.

Список литературы

- [1]. Мухаммадиев Д.М., Ибрагимов Ф.Х., Абзоиров О.Х., Жамолова Л.Ю. Испытания междупильных прокладок лентерной машины на сжатие // Изв. вузов. Технология текстильной промышленности. – 2023, №4. С. 146...151.
- [2]. Патент на полезную модель РУз. FAP 00348. Междупильная прокладка для хлопкоочистительных машин.
- [3]. Патент на полезную модель РУз. №FAP 05747. Пильный цилиндр джина.
- [4]. Патент на полезную модель РУз. №FAP 00654. Междупильная прокладка для хлопкоочистительных машин.
- [5]. Патент на полезную модель РУз. №FAP 01029. Междупильная прокладка для хлопкоочистительных машин.
- [6]. Тютин П.Н., Меламедов Р.Ю. Применение калибровки при изготовлении междупильных джинно-лентерных прокладок // Хлопковая промышленность. – 1975, №3. С. 14...16.
- [7]. Mukhammadiev D., Ibragimov F., Axmedov Kh. Calibration of between saw gaskets of 156 saw gin // Digest of Scientific and Technical Achievements in the Realm of Cotton Industry of the Republic of Uzbekistan (UzPSIM-90): book of papers, October 23–27th, 2017. – Tashkent: Ilmiy texnika axboroti-press nashriyoti, 2017. – P.195...200.
- [8]. Патент на изобретения РУз. №IAP 06691. Междупильная прокладка для хлопкоочистительных машин.
- [9]. Mukhammadiev D.M., Ibragimov F.Kh., Abzoirov O.Kh. Calculation of gasket vibrations under a steady operating mode of the linter machine // Journal of Physics: Conference Series 2388(1), 012064.
- [10]. Альтудов Ю.К. Лазерные микротехнологии и их применения в электронике. – М.: Радио и связь, 2001. – 632 с.
- [11]. Аугамбаев М., Иванов А.З., Терехов Ю.Т. Основы планирования научно-исследовательского эксперимента. – Т.: Ўқитувчи, 1993. – 141 с.
- [12]. Mukhammadiev D.M., Ibragimov F.K., Abzoirov O.K. Study of a linter machine with steel gaskets in production // Journal of Physics: Conference Series 2388(1), 012082.
- [13]. Лазерный станок для резки металла с ЧПУ Bodor A3 2000W MAX. <https://ru.bodor.com/fiber-laser-cutting-machine/metal-sheet-and-tube-laser-cutting-machines/at.html>.

VALLARGA TOKARLIK ISHLOV BERISH: JARAYON VA PARAMETRLAR TAHLILI

Sh.N. Fayzimatov, A.A. Omonov

Farg'ona politexnika instituti
(Qabul qilindi 22.02.2025 y.)

Annotatsiya: Ushbu maqoladma tokarlik dastgohlarining turlari (oddiy qo'lda boshqariladigan va RDB dastgohlar), ishlov berish texnologiyasi, kesish parametrlari (kesish tezligi, surish miqdori, kesish chuqurligi va kesish kuchlari) va asbob yeyilishi, tayanch moslamalar (markazlar va lunetlar) hamda uzun detallarni ishlov berishdagi muammolar (egilish, titrash, aniqlik xatolari) va ularning oldini olish usullari yoritiladi.

Kalit so'zlar: uzun val, og'ish, tokarlik dastgohlari, titrash, kesish tezligi, surish miqdori, kesish chuqurligi, kesuvchi asbobning yeyilishi.

Аннотация: В статье рассмотрены типы токарных станков (обычные ручные и РДБ), технология обработки, параметры резания (скорость резания, величина подачи, глубина резания и силы резания) и износ инструмента, опорные устройства (центры и люнеты) и проблемы при

обработке длинномерных деталей (изгиб, вибрация, погрешности точности) и методы их предотвращения.

Ключевые слова: длинный вал, отклонение, токарные станки, вибрация, скорость резания, подача, глубина резания, износ режущего инструмента.

Abstract: The article discusses the types of lathes (conventional manual and RDB), processing technology, cutting parameters (cutting speed, feed rate, cutting depth and cutting forces) and tool wear, support devices (centers and steady rests) and problems in processing long parts (bending, vibration, accuracy errors) and methods for preventing them.

Key words: long shaft, deviation, lathes, vibration, cutting speed, feed, cutting depth, cutting tool wear.

Po'lat materiallariga tokarlik ishlov berish – bu metallga ishlov berishning asosiy usullaridan biri bo'lib, silindrsimon shakldagi detal yuzalarini kesuvchi asbob yordamida shakllantirishni nazarda tutadi.

Tokarlik dastgohlarining turlari

Oddiy tokarlik dastgohi – operator qo'lda boshqaradigan an'anaviy dastgoh turi hisoblanadi. Bunday dastgohlarda asbob va suportni harakatlantirish uchun vintlar va tishli g'ildiraklar mavjud bo'lib, ularni to'g'ridan-to'g'ri dastgoh ustasi boshqaradi. Oddiy tokarlik dastgohlarida ishning aniqligi asosan operatorning mahorati va dastgohning holatiga bog'liq bo'ladi. Zamonaviy an'anaviy dastgohlar bilan $\sim 0,01$ mm atrofida o'lchov aniqligiga erishish mumkin. Bunday dastgohlar asosan oddiy shaklli (silindr, konus, rezba kabi) detallarni kichik seriyali ishlab chiqarishda yoki ta'mirlash sexlarida qo'llanadi – masalan, individual val va futerlarni yasash yoki mavjud detallarni qayta ishlashda an'anaviy dastgohlar yetarli hisoblanadi [1].



1-rasm. Qo'l boshqaruvli oddiy tokarlik dastgohining umumiy ko'rinishi.

Oddiy dastgohlarning afzalligi – tuzilishi nisbatan sodda va arzon, ishlatish va ta'mirlash oson, moslashuvchanligi yuqori (tez sozlanadi va kichik partiyalar uchun samarali). Biroq, qo'lda boshqaruv tufayli murakkab konturli profillarni ishlash qiyinroq va ko'p mehnat talab etadi, bir xil detallarni ommaviy ishlab chiqarishda unumdorligi pastroq bo'ladi.

RDB tokarlik dastgohi (Haas SL-20 rusumli torna markazi) – kompyuterning raqamli boshqaruvi ostida ishlaydigan zamonaviy dastgoh. RDB dastgohlarida kesish harakatlari dastur (G-kod) orqali boshqariladi: asbobning koordinatalari servo-dvigatellar yordamida avtomatik aniqlikda harakatlantiriladi. Bu turdagi dastgohlar yuqori aniqlik va takrorlanuvchanlik bilan ishlashga mo'ljallangan: sanoat RDB dastgohlarida pozitsion aniqlik $\sim 0,002$ mm gacha yetishi mumkin, an'anaviy stanoklarda esa bu $\sim 0,01$ mm atrofida cheklanishi odatiy [1].

RDB dastgohlarining yana bir afzalligi – ish unumdorligi: murakkab shakldagi detallarni bitta o'rnatishda bir nechta asboblarni yordamida ketma-ket ishlov berish, avtomatik asbob almashtirish va optimal kesish rejimlarini saqlash imkoniyati mavjud. Tadqiqotlarga ko'ra, RDB stanoklari bir xil detallarni ishlab chiqarishda odatiy stanoklarga nisbatan ~30% tezroq ishlashi mumkin. RDB tokarlik markazlari avtomobilsozlik va aerokosmik sanoatda keng qo'llanadi – masalan, dvigatel qismlarini yuqori aniqlikda va sifatda ishlab chiqarishda aynan RDB tizimlari ustunlik qiladi [1].

Bunday dastgohlarning kamchiligi – dastlabki sarmoya va texnik xizmat xarajatlari yuqori, shuningdek, malakali dasturlovchi mutaxassislar talab etiladi. Ammo ishlab chiqarish hajmi katta va aniqlik talablari yuqori bo'lgan sharoitlarda RDB tokarlik dastgohlari o'zini to'liq oqlaydi.

Ishlov berish jarayoni

Po'latdan tayyorlangan zagotovkaga tokarlik ishlov berish odatda bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi. Avvalo, zagotovka dastgohga to'g'ri o'rnatiladi: qisqa detallar patron bilan mahkamlanadi, uzun detallar esa markazlar orasiga o'rnatilishi mumkin (oldingi va orqa markaz yordamida).

Zagotovka dastgoh shpindelida aylantirilib, dastlab yon yuzga ishlov berish amalga oshiriladi – bu operatsiyada kesuvchi asbob (rezes) detalning bir uchidan torest yuzasiga ishlov beradi va markazlash uchun tekis baza hosil qiladi. Shundan so'ng uzunligi bo'yicha tokarlik ishlov berish bosqichi boshlanadi: keskich detal o'qi bo'ylab harakatlantirilib, silindr shaklidagi tashqi yuzalar kerakli diametrgacha ishlanadi. Ko'pincha avval qora ishlov berish bajariladi – bunda katta kesish chuqurligi va nisbatan yuqori surish miqdori qo'llanib, ortiqcha metall qatlami tezda olib tashlanadi. Qora ishlov berish bosqichida po'latning qattiqligi tufayli hosil bo'lgan qirindilar ko'p va harorat yuqori bo'ladi, shu sababli kesish zonasiga suyuqlik purkalishi tavsiya etiladi. Haqiqatan ham, sovutish suyuqligining to'g'ri qo'llanilishi jarayonni barqarorroq qilib, kesuvchi asbobning ishlash muddatini uzaytiradi va sirt sifatini yaxshilaydi. Keyin toza ishlov berish bosqichi o'tkaziladi: kichik chuqurlik (masalan, 0,5–1 mm) va kam surish miqdori (0,05–0,15 mm/ayl) bilan yakuniy kesim olinadi. Bu bosqich detaldan juda nozik metall qatlami olib tashlab, sirt g'adir-budurliklarini kamaytiradi va o'lcham aniqligini ta'minlaydi. Agar kerak bo'lsa, tokarlash jarayonida rezba ochish (tish kesish) yoki parmalash (ichki teshiklarni ishlov berish) kabi qo'shimcha operatsiyalar ham ketma-ketlikda bajarilishi mumkin. Po'lat materiallarni tokarlik ishlov berishda, ayniqsa qattiq po'latlarda, kesish maromini to'g'ri tanlash muhim: haddan tashqari yuqori tezlik yoki surish miqdori qo'llansa, asbob tez yeyilib ketishi yoki detal sirtida kuyish, tebranishlar paydo bo'lishi mumkin; juda past maromlar esa unumdorlikni tushirib, ishqalanish ortishi hisobiga sifatga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Shunday qilib, texnologik jarayonda har bir operatsiyani optimal parametrlar bilan bajarish, zagotovkani to'g'ri o'rnatish va kerakli tayanchlardan foydalanish po'lat detallarni sifatli ta'minlashning garovidir.

Texnologik parametrlar: kesish kuchi, kesish tezligi, surish miqdori va kesuvchi asbob yeyilishi

Tokarlik ishlov berish rejimini belgilovchi asosiy texnologik parametrlar – bu kesish tezligi, surish miqdori va kesish chuqurligi. Ushbu parametrlarning qiymatlari po'latning turi va qattiqligi, ishlatilayotgan kesuvchi asbobi materiali (masalan, tezkesar po'lat – HSS, yoki qattiq qotishma – karbid plastinka), dastgoh va ish qismining mustahkamligi kabi omillarga qarab tanlanadi. Parametrlar nafaqat ishlov berish unumdorligini, balki kesish kuchi va asbobning yeyilish tezligini ham belgilaydi.

Kesish tezligi – bu ishlov berilayotgan qismi sirtining kesuvchi asbobga nisbiy chiziqli tezligi bo'lib, odatda m/min bilan o'lchanadi. Amalda bu qiymat dastgoh shpindeli aylanish chastotasi (aylanma/min) va detal diametriga bog'liq: diametr qanchalik katta bo'lsa, bir xil



2-rasm. RDB tokarlik dastgohi – Haas SL-20.

aylanishlar sonida kesish tezligi shuncha yuqori bo‘ladi. Po‘latni tokarlik ishlov berish uchun tavsiya etiladigan kesish tezligi asbob materialiga qarab sezilarli farqlanadi. Masalan, oddiy yumshoq po‘latni yuqori tezkesar po‘lat (HSS) keskich bilan ishlaganda taxminan 25–30 m/min kesish tezligi tavsiya etiladi. Karbid plastinkali asboblarda esa yuqori haroratga chidamli bo‘lib, 100–150 m/min va undan yuqori tezliklarda ham ishlay oladi (qattiq qotishmali asboblarda kesish tezligi HSS ga nisbatan 3–5 baravar yuqori bo‘lishi mumkin). Tezlik oshgan sari kesish zonasi harorati ortadi va bu asbob yeyilishini tezlashtiradi.

Metall kesishda diffusion yeyilish deb ataluvchi jarayon ayniqsa yuqori tezliklarda kuchayadi – masalan, kesish tezligini 50% oshirish asbob umrini taxminan 5 baravar qisqartirishi mumkin [2]. Shu sabab, po‘latni tokarlik ishlov berishda har bir asbob materiali uchun ishlab chiqaruvchi ko‘rsatmalaridagi optimal kesish tezligiga rioya qilish juda muhim.

Surish miqdori – bu asbobning ish qismi bo‘ylab bir aylanishga nisbatan qanchalik siljishini ko‘rsatuvchi miqdor; odatda mm/aylanada ifodalanadi (masalan, 0,1 mm/ayl). Surish kesish paytida qirindi qalinligini belgilaydi va natijada kesish kuchi hamda sirtning dag‘allik darajasiga ta‘sir qiladi. Qo‘pol ishlov uchun kattaroq oziqlantirish (0,2–0,4 mm/ayl va undan yuqori) qo‘llanadi – bu holda material tezroq o‘yiladi, lekin sirt nisbatan dag‘alroq bo‘ladi. Nozik pardo uchun esa juda kichik berilmalar (0,05–0,15 mm/ayl) tanlanadi, bu sirtning silliq va o‘lchamlari aniq chiqishiga yordam beradi. Berilmaning asbob aşinishiga ta‘siri kesish tezligidan kamroq bo‘lsa-da, u ham muhim: haddan tashqari past berilma ham nojo‘ya ishqalanish sabab asbobning yon sirtida aşinishni keltirib chiqarishi mumkin, juda yuqori berilma esa kesish kuchlarini oshirib, asbob qirrasini sinishiga moyillikni oshiradi. Umuman olganda, surish qiymatini oshirish ishlov berish unumdorligini oshiradi va ko‘pincha asbobning xizmat muddatiga kesish tezligiga nisbatan kamroq ta‘sir qiladi. Shunday ekan, texnologlar odatda asbobga zarar bermaydigan maksimal surish bilan ishlashga intiladilar, sirt talablariga qarab uni sozlaydilar [2].

Kesish chuqurligi – bir o‘tishda detaldan kesib olinayotgan qatlam qalinligini bildiradi (mm da). Tokarlik ishlov berishda chuqurlik zagotovka diametrini necha mm ga kamaytirayotganimizning yarmiga teng (chunki diametr ikki tomonlama kamayadi). Qora ishlovda chuqurlik katta (masalan, 2–5 mm) tanlanadi, shunda kesish kuchi ham katta bo‘ladi, lekin kamaytiriladigan diametr miqdori bir necha o‘tishda tez qisqaradi. Toza ishlovda chuqurlik juda kichik (0,5–1 mm yoki undan kam) qilib olinadi. Chuqurlikning asbob eskirishiga ta‘siri nisbatan kichik: tadqiqotlar ko‘rsatishicha, kesish chuqurligining o‘zgarishi asbob umriga tezlik va surish kabi kuchli ta‘sir qilmaydi [2]. Biroq juda kichik chuqurliklarda qattiq materialning ustki qatlami (masalan, po‘latning sovuq qattiqlashgan yuza qatlami yoki shlak)ni kesishda qiyinchilik yuzaga kelishi, asbob uchida ishqalanish ortishi mumkin – bu hol asbobga zarar keltirishi mumkin. Shu bois, agar zagotovkaning usti qattiq qoplamali yoki koroziyal bo‘lsa, birinchi o‘tishda chuqurlikni biroz ko‘proq qilib, toza metall qatlamiga o‘tish tavsiya etiladi.

Kesish kuchi tokarlik ishlov berish jarayonida asbobning detalga ta‘sir etishidan hosil bo‘ladigan kuch bo‘lib, uning asosiy komponentlari – asosiy kesish kuchi (F_c) va passiv radial kuchlar. Asosiy kesish kuchi asosan qirindi qalinligi va kesilayotgan qatlamning kengligiga bog‘liq bo‘ladi. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, po‘lat material uchun o‘ziga xos kesish qarshiligi (bir mm^2 kesimga to‘g‘ri keluvchi kuch) $\sim 2000 \text{ N/mm}^2$ atrofida bo‘lishi mumkin. Masalan, surish 0,1 mm/ayl va kesish chuqurligi 2 mm bo‘lganda, qirindi kesim maydoni $0,1 \times 2 = 0,2 \text{ mm}^2$ ni tashkil qiladi va bunday sharoitda asosiy kesish kuchi taxminan 400 N ga teng bo‘lishi kutiladi [3]. Kesish kuchlari detalni dastgohda burashga, asbobni esa egilishga majbur qiladi – shu bois, yuqoridagi parametrlarni tanlashda dastgoh va ish tizimining bikirligi (qattiqligi) ham inobatga olinishi lozim. Kesish kuchlari ortishi nafaqat asbob yeyilishi va vibratsiyasini oshiradi, balki natijaviy aniqlikka ham ta‘sir etadi (masalan, detal kuch ta‘sirida bir oz egilib turishi mumkin). Shuning uchun, keraksiz ortiqcha chuqurlik va surish qo‘llamaslik, detalni orqa markaz yoki lunet yordamida suyak turish kabi choralar bilan kesish kuchlarining salbiy ta‘sirini kamaytirish zarur.

Asboblarning yeyilishi – tokarlik jarayonida muqarrar sodir bo‘ladigan hodisa bo‘lib, har bir kesish asbobi ma‘lum bir xizmat muddatiga ega. Po‘latni kesishda asbob uchi yuqori harorat va mexanik bosim ostida ishlaydi, vaqt o‘tishi bilan asbob tig‘ining yon tomoni yeyilishi (flank wear)

va krater yeyilishi (chip oqimi bo'ylab chuqurcha) kuzatiladi. Kesish rejimlari asbobning aşinish tezligiga bevosita ta'sir qiladi: kesish tezligi oshishi bilan asbob tig'ida diffuziya va oksidlanish jarayonlari jadallashib, ayniqsa yuqori tezliklarda yon sirt yeyilishi keskin ortadi.

Tokarlik ishlov berishdagi muammolar va ularning oldini olish

Po'lat detallarni tokarlik ishlov berish jarayonida bir qator amaliy muammolar yuzaga kelishi mumkin. Eng ko'p uchraydiganlari – shakldan og'ish (detalning kerakli geometrik shaklini buzilishi, masalan, silindrning to'g'ri bo'lmay qiyshayib chiqishi), titrash (vibratsiya, chatter) va o'lcham xatoliklari (lozim bo'lgan o'lchamdan chetlanish). Bu muammolar ayniqsa uzun va ingichka (rigidligi past) zagotovkalarni ishlaganda dolzarb bo'ladi. Masalan, uzun valning uzunligi diametriga nisbatan juda katta bo'lsa, ishlov berish paytida egilma va tebranishlar natijasida belgilangan o'lchamlardan og'ishlar, sirt notekisligi va aniqlikning yomonlashuvi yuzaga kelishi mumkin. Zamonaviy texnologiyalar va dastgohlar joriy etilishi ham bunday geometrik muammolarni butkul yo'q qila olmaydi – bu fizik hodisalarni mutloq to'xtatish qiyin, ammo ularni minimallashtirish choralari ko'rish mumkin.

Shakldan og'ish deganda, masalan, silindr detallarning silindrligi buzilishi, aylanish markazi bo'ylab qo'zg'alishi yoki konussimon chiqib ketishi tushuniladi. Sabablari: detalning o'zi egilishi (o'z og'irligi yoki kesish kuchi ta'sirida), dastgoh komponentlarining oz bo'lsa ham egiluvchanligi, asbobning yuqori yuk ostida qochishi, yoki notekis yeyilish tufayli kesish geometriyasi o'zgarishi. Yana bir misol – aylanish jarayonida oval shaklga og'ish (detal kesimi doirasimon emas, balki biroz ellips bo'lib chiqishi). Bu odatda titrash natijasida sodir bo'ladi: agar dastgoh yoki detal rezonans tebranishga kelsa, asbob ishqalanib oldinga silkinib kesadi va sirt to'lqinsimon bo'lib qoladi. Vibratsiya vaqtida dastgoh shovqin chiqara boshlaydi – bu hodisa “chatting” deyiladi va natijada yuzada takrorlanuvchi izlar paydo bo'lib, doiraviy bo'lmagan shakl hosil bo'ladi. O'lcham xatoliklari esa yuqoridagi hodisalarning barchasidan kelib chiqishi mumkin: egilish tufayli detal markazdan chetga qochib, asbob kerakli diametrdan kamroq metall oladi – natijada detal keragidan katta diametr bilan qolishi mumkin. Yoki aksincha, vibratsiya va asbob “o'ynashi” tufayli ortiqcha material olib qo'yilib, diametr kichrayib ketishi ham ehtimol.

Bu muammolarni oldini olish uchun birinchi navbatda tokarlik tizimining butun komponentlari yetarlicha qattiq va barqaror bo'lishi lozim. Tokarlik tizimi dastgoh – moslama – kesuvchi asbob – detal kabi elementlardan iborat bo'lib, agar ulardan biri yetarli jipslikka ega bo'lmasa, ishlov berish natijalari qoniqarsiz bo'lishi va vibratsiyalar paydo bo'lishi tabiiy. Shu bois, yuqorida bayon etilgan tayanch moslamalardan foydalanish – uzun detallarni orqa markaz va lyunet bilan suyash – shakldan og'ishlarning oldini olishdagi eng muhim choradir. Masalan, 1-metrli valni markazlarsiz patronada bir uchi bilan ushlab ishlaganda val o'z og'irligidan ham egilib, o'rtasida bir necha millimetrga osilib qolishi mumkin; agar orqa markaz qo'yilsa, bu egilish deyarli yo'qoladi. Xuddi shunday, detal o'rtasi lunet bilan suyalsa, kesish kuchidan bo'ladigan vaqtinchalik egilish ham kamayadi – natijada detal bo'ylab diametr bir xil chiqadi.

Titrashni kamaytirish alohida e'tibor talab qiladi, chunki vibratsiya – bu dinamik muammo. Vibratsiyani kamaytirish uchun bir necha yondashuv bor: tizim mustaxkamligini oshirish, dempferlash (so'ndirish) va kesish parametrlarini o'zgartirish. Tizim mustaxkamligini oshirish uchun asbobni iloji boricha qisqa chiqarib o'rnatish (osilgan qismi minimal bo'lsin) kerak – qisqa asbob kam egiladi va uning tabiiy chastotasi yuqori bo'lib, rezonansga kamroq kiradi. Asbob ushlagichi va dastgoh supporti mahkam qisilib, bo'shliq va likkillashlar yo'qligiga ishonch hosil qilish lozim. Agar imkoniyat bo'lsa, kattaroq kesish uchi radiusi emas, balki kichikroq burun radiusli keskich tanlanadi – masalan, 0,4 mm o'rniga 0,2 mm radius – chunki kichikroq radiusda kesish kuchi (ayniqsa, passiv radial kuch) kamayadi va vibratsiya xavfi pasayadi.

Xulosa qilib aytganda, po'lat materiallarga tokarlik ishlov berishda eng muhim jihatlar – to'g'ri dastgoh tanlash (oddiy yoki RDB, vazifaga ko'ra), maqbul texnologik jarayonni belgilash, kesish parametrlari va asboblarni optimallashtirish, hamda tayanch moslamalar yordamida tizim qattiqligini oshirishdir. Bu omillarga e'tibor berish orqali egilish va vibratsiyalar keltirib chiqaradigan muammolar minimallashtirilib, talab etilgan o'lcham va shakl aniqligi ta'minlanadi.

Natijada, po'latdan yasalgan detallar tokarlik dastgohida belgilangan chizmalarga muvofiq, sifatli va ishonchli tarzda ishlab chiqariladi.

Adabiyotlar

- [1]. RapidDirect Engineering – “CNC vs Conventional Lathe” – CNC tokarlik stanoklarining aniqlik va tezlik bo'yicha afzalliklari (0.002 mm ga qadar aniqlik, 30% ga yuqori unumdorlik)
- [2]. Mitsubishi Materials Corp. “Effects of Cutting Conditions for Turning”
- [3]. Testbook.com – Turning Operation Question Solution – po'lat uchun xos kesish bosimi haqida misol (0.1 mm/rev; 2 mm doc; $F_c \approx 400$ N).

АРРАЛИ ЖИНЛАШ ЖАРАЁНИДА ХОМ-АШЁ ВАЛИГИГА ТАЪСИР ЭТАДИГАН КУЧЛАРНИ АНИҚЛАШ

Ш.А. Хусанова¹, О.Ш. Саримсаков²

¹Фаргона политехника институти

²Наманган тўқимачилик саноати институти
(Қабул қилинди 22.02.2025 й.)

Аннотация: Жинлашда арра тишлари таъсирида толанинг чигитдан ажратиши жараёни бўлиб, бу жараён ишчи камерада содир бўлиб, арра тишларининг хом-ашё валиги ва колосниклар билан ўзаро таъсирланишуви натижасида бўлиши келтирилган.

Таянч иборалар: пахта, чигит, машина, тола, арра, орган, механизм, патент, унумдорлик,

Аннотация: Джиннинг – это процесс отделения волокна от семени под действием зубьев пилы, этот процесс происходит в рабочей камере и является результатом взаимодействия зубьев пилы с сырьем и колосниками.

Ключевые слова: хлопок, семя, машина, волокно, пила, орган, механизм, патент, плодородие,

Annotation: When grinding, the action of saw teeth is the process of separating the fiber from the saw, this process occurs in the working chamber, which is the result of interaction of the saw teeth with the raw material of the crown and the colossi.

Keyword: cotton, hemp, machine, fiber, appa, organ, mexanizm, patent, productivity.

Кириш. Толани чигитдан ажратиш етарли даражада мураккаб жараён бўлиб, у хозиргача етарли даражада ўрганилмаган ва бу ерда ҳосил бўладиган кўп муаммолари ҳали ўз ечимини тўла топмаган. Изланишларда арра тишлари билан тола массаси орасидаги ишқаланиш кучлари ҳақида айрим маълумотлар берилган бўлиб, бу кучларнинг ўз навбатида ўзаро таъсирланишув ёйида ўзгарувчанлиги ва улар тола ажратиш динамикасида катта роль ўйнаши таъкидланган. Бу ишларда хом-ашё валиги билан аррали цилиндрнинг туташ сиртида толани чигитда ажратишга катта таъсир қиладиган туташ (контакт) кучнинг қандай қонун билан тақсимлангани аниқланмаган. Изланишларда туташ сиртида ҳосил бўладиган босимни изоҳлаш ва уни таҳлил қилиш учун «пружина» модели тақлиф этилган. Унга кўра туташ зонасида арра тишларининг хом-ашё валигига чуқурлашиши билан нормал куч орасидаги боғланиш чизиқли қонун билан тасвирланган. Бу ишда туташ (контакт) зонасида сирпаниш зонасининг ҳосил бўлиши ва унинг толани чигитда жинлаш жараёнига таъсири масалалари кўрилмаган. Унда абсолют қаттиқ ғалтакнинг релаксацияга мойил муҳитда чайқалиб ҳаракат қилиши таҳлил қилинган бўлиб, контакт юзада ҳосил бўладиган қаршилик кучи силжиш c нолга тенг бўлмаса қовушқоқ куч таъсирида босимнинг носимметрик тақсимланиши натижасида ҳосил бўлиши таъкидланган. Фараз қилайлик радиуси аррали цилиндр R_a бўлган абсолют қаттиқ ғалтак (каток) бўлиб, радиуси R_c га тенг деформацияланадиган хом-ашё валиги бўйлаб сирпанмай ўзгармас v чизиқли тезлик билан ҳаракат қилсин. Контакт юзада сирпаниш бўлмаганлиги сабабли валикнинг аррали цилиндр билан туташган ҳар бир нуктаси шу тезлик билан ҳаракат қилади. Натижада валикнинг контакт зонасида деформацияланиши вақт t нинг ўзига айнан боғлиқ бўлмай туташдаги

координата билан аррали цилиндрининг кўчиши vt орасидаги айирмага боғлиқ бўлади ва бундай ҳолат одатда стационар ҳолат деб аталади. Бу ҳолатда аррали цилиндрининг айланишидан ҳосил бўлиб, хом-ашё валигига таъсир этаётган барча кучлар ўзаро мувозанатда бўлади. Бу кучлар қуйидагилардир:

Амалий тадқиқотлар.

1. Аррали цилиндрга ташқи таъсир этаётган горизонтал F ва вертикал Q кучларни цилиндрининг геометрик марказига кўчирилиши натижасида ҳосил бўлган жуфт момент L аррали цилиндри айлантираётган ташқи моментга тенг бўлади

2. Аррали цилиндр тишларининг хом-ашё валигига чуқурлашиши ва толани чигитдан узишни ҳосил қиладиган ва шунинг билан бирга валикни аррали цилиндр сиртида сақлаб турувчи куч.

3. Контакт юзада ҳосил бўлган тарқалган нормал куч. Бу куч хом-ашё валигининг узунлиги бўйлаб ўзгармас бўлиб уни ва одатда солиштира босим p деб айтилади.

Координата бошини 1.1-расмга кўра O нуктада ўрнаштирамиз ва ξ ўқини контакт чизиғи бўйлаб йўналтирамиз, $\xi = \xi_2 > 0$ ва $\xi = \xi_1 < 0$ нукталарни мос равишда аррали цилиндрининг валикка бошланғич (дастлабки) ботиш ва ундан чиқиш нукталари деб қараймиз. Аррали цилиндрга таъсир этаётган кучларнинг мувозанат тенгламалари қуйидагича ёзилади


$$F + P \sin \theta = 0 \quad (2.10)$$

$$Q - Q_0 + P \cos \theta = 0 \quad (2.11)$$

$$L - M_0 - F(R_b - u_0) = 0 \quad (2.12)$$

$$Q_0 = b \int_{\xi_1}^{\xi_2} p(\xi) d\xi, \quad M_0 = b \int_{\xi_1}^{\xi_2} \xi p(\xi) d\xi = 0 \quad (2.13)$$

Бу ерда: $P = mg$ - хом-ашё валигининг оғирлик кучи, b - валикнинг узунлиги, $u_0 = BB_0$ - хом-ашё валиги ва аррали цилиндр марказларининг бир бирига яқинлашиши, Q - оғирлик кучидан ташқари ташқи таъсир қиладиган вертикал куч, θ - хом-ашё валиги ва аррали цилиндр марказларидан ўтувчи тўғри чизиқ O_1O_2 нинг O_1A вертикал ўқ билан ташкил қилган бурчаги ($0 \leq \theta < \pi/2$) (2.1-расм).



1.1- расм. Аррали цилиндр

(1) билан хом-ашё валиги (2) контакт зонаси $-\xi_1 < \xi < \xi_2$ да таъсир қиладиган кучлар схемаси.

Хом-ашё валигининг аррали цилиндр билан сирпанмасдан ҳаракатда бўлишини таъминланиши учун (2.1) тенгсизликларни бажарилишини талаб қилиш лозим бўлади. Агар сирпаниш жараёни рўй берса, у ҳолда жинлаш жараёнининг самарадорлиги камаяди. Аррали цилиндри хом-ашё валигига ботишида унинг энг юқори нуктаси B валикнинг деформацияланиши натижасида унга

$BB_0 = u_0$ масофага чуқурлашади. Энди валикнинг ихтиёрий нуқтасидаги кўчишни аниқлаймиз. xO_1y координат системасида марказлари $O_1(0, u_0)$ ва $O_2(0, R_b + R_c)$ нуқталарда бўлган айланалар тенгламаларини ёзамиз.

$$(y_2 - u_0)^2 + x^2 = R_c^2, (y_1 - R_c - R_b)^2 + x^2 = R_b^2$$

Аррали цилиндрнинг валикнинг ихтиёрий нуқтасидаги ботиш қуйидагича аниқланади:

$$u = y_2 - y_1 = u_0 + \sqrt{R_c^2 - x^2} + \sqrt{R_b^2 - x^2} - R_c - R_b \quad (2.14)$$

Тўртинчи тартибдаги чексиз кичкина ($\frac{x^4}{R_c^4} \approx 0, \frac{x^4}{R_b^4} \approx 0$) аниқлик учун қуйидаги деб

$x = \xi$ ифодани ёзишимиз мумкин.

$$u \approx u_0 - \frac{\xi^2}{2R_c} - \frac{\xi^2}{2R_b} \quad (2.15)$$

Аррали цилиндрнинг бошланғич нуқтасида ($\xi = \xi_2 > 0$) да цилиндрнинг валикка ботиш қиймати нолга тенг. Шунинг учун (2.14), (2.15) дан фойдаланиб ёзиш мумкин

$$u_0 = \xi_2^2 \frac{R_c + R_b}{2R_c R_b} \quad (2.16)$$

Бу ердан ξ_2 нуқтани u_0 орқали ифодасини аниқлаймиз

$$(\beta = R_c / \alpha = R_c R_b / (R_c + R_b)), \xi_2 = \sqrt{2\beta u_0}$$

Контактдаги хом-ашё валиги билан аррали юзасида босимни аниқлаш учун «пружина» моделини қўллаймиз, унга кўра арра тиши ботиши натижасида хом-ашё нуқтасида ҳосил бўлган босим юзанинг шу нуқтасидаги кўчишига пропорционал бўлади, яъни (K - бикирлик коэффициент).

$$p = Ku = K[u_0 - \xi^2(R_b + R_c) / 2R_c R_b] \quad (2.17)$$

Контакт юзасидан чиқан нуқта $\xi = \xi_1$ да умуман олганда арранинг ботиши нолга тенг бўла олмайди. Лекин бу нуқтада хом-ашё валиги аррали цилиндр сиртидан ажралади, шунинг учун бу нуқтада босимни нолга тенг деб олиш зарур. У ҳолда (2.17) га кўра $\xi_1 = -\xi_2 = \xi_0$ тенглик ўринли бўлади.

Босим кучининг тенг таъсир этувчиси ва қаршилик моментлари учун (2.12), (2.13) ва (2.17) тенгликларга кўра қуйидаги формулаларни оламиз:

$$Q_0 = \int_{-\xi_2}^{\xi_2} bp(\xi)d\xi = \frac{4}{3}bKu_0\sqrt{2\beta u_0}, M_0 = 0 \quad (2.18)$$

Q_0 ва M_0 ифодаларини (2.12) ва (2.13) тенгликларга қўйсак:

$$Q + P \cos \theta = \frac{4}{3}bKu_0\sqrt{2\beta u_0} \quad (2.19)$$

$$L - P(R_b - u_0) \sin \theta = 0 \quad (2.20)$$

Q_0, M_0 ва бурчак θ берилса, (2.18) ва (2.19) тенгламалардан кўчиш u_0 ва момент L ни аниқлаш мумкин:


$$u_0 = \left(\frac{9}{32} \frac{(Q + P \cos \theta)^2}{\beta b^2 K^2} \right)^{\frac{1}{3}}, L = P(R_a - u_0) \sin \theta$$

2.1 – расмдан фойдаланиб θ бурчакни аниқлаймиз.

$$\theta = \arcsin \frac{h_0}{R_c + R_a - u_0} \quad (2.21)$$

h_0 - аррали цилиндр ва вертикал O_1C орасидаги масофа,

1.1 - расмда аррали цилиндрнинг хом-ашё валигига бошланғич ботиш нуқтаси $\xi_2(m)$, ҳамда ўлчамсиз момент L/bR_b^3K ларнинг бурчак θ га боғлиқлик графиклари ўлчамсиз параметр $\lambda = mg/bR_b^2K$ нинг хар хил қийматлари келтирилган. Хисобда қуйидаги қийматлар қабул қилинган: $Q=0$, $R_b=0.16m$, $R_c=0.19m$. Графиклар таҳлилидан ўлчамсиз катталиқ $\lambda = mg/bR_b^2K$ қиймати ошганда (яъни бу хол хом-ашё валиги оғирлигини ошишига ёки бикирлик коэффиценти K нинг қиймати камайишига мос келади) координата ξ_2 ва момент L қийматларини ошиб бориши кузатилган. Агар момент L қиймати маълум бўлса, у ҳолда аррали цилиндрнинг айланиш бурчак тезлиги ω_b ни аниқлаш мумкин бўлади.



1.3-расм. Координата $\xi_2(m)$ (а) ва ўлчамсиз момент L/bR_b^3K (б) параметр $\lambda = mg/bR_b^2K$ нинг хар хил қийматларида бурчак θ га боғланиш графиклари

Хулоса. Юқорида таъкидлаганимиздек, аррали цилиндр тишларининг судраши натижасида хом ашё валиги ишчи камерада мураккаб ҳаракатда бўлади. Одатда кўп холларда ҳаракат давомида унинг маркази қўзғалмас деб қабул қилинади.

Адабиётлар

1. O.Sarimsakov, Yu.Ergashov, A.Sarimsakov, Sh.Xusanova "Paxta uchun tola ajratgich" O'R Intellectual mulk agentligi FAP 2021 0058.
2. Sh.Xusanova, Sh.Imomqulov, Yu.Ergashev, O.Sarimsakov. Interaction of cotton field with saw teeth in the ginning process // International Scientific Journal ISSN:2409-0085 (online) Year:2021, Issue:11, Volume:103, pp. 337-343.
3. Shohida, Khusanova, and Imomnazarov Khurshidbek. "INVESTIGATION OF WAYS TO INCREASE THE SPEED OF THE RAW MATERIAL ROLLER ON THE GINNING EQUIPMENT." *Universum: технические науки* 2-7 (95) (2022): 40-42.
4. Salimov, Alisher, et al. "Research of The Process of Preparation and Storage of Raw Cotton." *Journal of Optoelectronics Laser* 41.7 (2022): 612-618.
5. Salimov, A., Khusanova, S., Salimov, O., Toshtemirov, Q., Yakubov, N., & Rakhimjanov, A. (2022). Research of The Process of Preparation and Storage of Raw Cotton. *Journal of Optoelectronics Laser*, 41(7), 612-618.

**АНАЛИЗ И РАСЧЕТ РАЗМЕЩЕНИЯ НАГРУЗОК НА МОНОЛИТНЫЕ
ЖЕЛЕЗОБЕТОННЫЕ ПЕРЕКРЫТИЯ В МНОГОЭТАЖНЫХ ЗДАНИЯХ**

Р.Х. Хамитов

Ферганский политехнический институт,
e-mail: rasuljon3245@gmail.com (ORCID 0009-0002-8891-4722)
(Получена 22.02.2025 г.)

Аннотация. В статье представлен анализ расчета несущей способности конструкций консольного типа для восприятия распределенных нагрузок. Такие платформы применяются для восприятия нагрузок при строительстве многоэтажных зданий с монолитным железобетонным каркасом. Для безопасной эксплуатации разгрузочных барж необходимо точное определение напряженно-деформированного состояния их конструкций, а также их правильное использование. В статье выполнен расчет статической несущей способности железобетонных конструкций и выявлены особенности их деформирования. При анализе результатов расчета выявлено, что запас прочности отдельных несущих конструктивных элементов силовой зоны не одинаков, а также выявлена существенная разница в перемещениях нижних и верхних частей несущих конструкций.

Ключевые слова: площадь несущей способности, распределенная консольная нагрузка, сопротивление силы, испытательная сила, неравномерность силы, статический расчет.

Abstract. The article presents an analysis of the calculation of the bearing capacity of cantilever-type structures for the perception of distributed loads. Such platforms are used to perceive loads during the construction of multi-story buildings with a monolithic reinforced concrete frame. For the safe operation of unloading barges, it is necessary to accurately determine the stress-strain state of their structures, as well as their correct use. The article calculates the static bearing capacity of reinforced concrete structures and identifies the features of their deformation. When analyzing the calculation results, it was revealed that the safety margin of individual load-bearing structural elements of the power zone is not the same, and a significant difference in the movements of the lower and upper parts of the load-bearing structures was also revealed [1].

Key words: bearing area, distributed cantilever load, force resistance, test force, force non-uniformity, static calculation.

Annotatsiya. Maqolada konsol tipidagi yoyma yuklarni qabul qilish konstruksiyalarining quvvat qarshiligini hisoblash tahlili keltirilgan.

Ushbu turdagi maydonlar monolit temirbeton karkasli ko'p qavatli binolarni qurishda yuklarni qabul qilish uchun ishlatiladi.

Masofaviy yuklarni qabul qilish maydonlari xavfsiz foydalanish uchun uning konstruksiyalarining kuchlanish-deformatsiya holatini aniq aniqlash, shuningdek, undan to'g'ri foydalanish zarur.

Metall konstruksiyalarining statik yuk ko'tarish qobiliyati hisobi amalga oshirildi, uning deformatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi. Hisoblash natijalarini tahlil qilganda, yuk ko'taruvchi maydonning alohida yuk ko'taruvchi konstruksiya elementlarining xavfsizlik chegarasining tengsizligi aniqlandi va

orayopma konstruksiyalarining ostki va ustki qismi harakatlarida sezilarli farq aniqlandi.

Kalit so'zlar: yukni qabul qilish platformasi, konsol tipidagi platforma, kuchga chidamlilik, sinov kuch, kuchlarning notekisligi, statik hisoblash

Объектом исследования является грузовая площадка с бортовой платформой, предназначенная для приема кратковременных временных грузов максимальной массой до двух тонн. Расчетное решение, геометрические размеры конструкций, получены на основе результатов расчетов размеров, используемых при строительстве многоэтажных зданий с монолитными железобетонными каркасами (см. рисунок 1). [1]

Фундамент имеет два несущих основания консольного типа, передающих расчетную нагрузку на монолитную железобетонную плиту (см. рисунок 1). Основание состоит из балок «Б1» и «12П» с шагом 1,5 метра.




Рис. 1 - Конструктивный чертеж зоны приема груза.

Несущее основание, расположенное посередине монолитных плит, армировано четырьмя колоннами (по две с каждой стороны), которые обеспечивают передачу нагрузки на нижний каркас с минимальной деформацией основания.

Обеспечение безопасности имеет важное значение при проведении строительных работ. К сожалению, при приемке грузов на строительных площадках случаются чрезвычайные ситуации.




Рис. 2 - Схематический чертеж зоны приема груза. Грузовая платформа "Б1".

На начальном этапе исследования проведем суммирование нагрузок. Разработан схематический чертеж симметрично расположенного несущего консольного основания «Б1» (см. рисунок 2). Постоянную нагрузку принимаем от собственного веса грузонесущей платформы «Б1», а кратковременную (полезную) нагрузку от веса принимаемого груза и двух рабочих. На консольную (левую) часть основания прикладывались постоянные и кратковременные нагрузки: $q_d = 0,23 \text{ кН/м}$ (от собственного веса основания «Б1»); $P_d = 0,72 \text{ кН}$ («от собственного веса основания «Б2», «Б3»); $P_t = 8,97 \text{ кН}$ (от груза и двух рабочих).

Платформа рассчитана на максимальную нагрузку в две тонны включительно. Расчетное значение кратковременной нагрузки от предполагаемой нагрузки определяется с учетом коэффициента надежности: для нагрузки $\gamma_f = 1,2$; динамическое воздействие $n_d = 1,2$ (при скорости опускания груза не более 0,33 м/с); Коэффициент $n_p = 1,1$, учитывающий отклонение груза от вертикали с учетом условий эксплуатации. Расчетное значение напряжения определяется из предполагаемой нагрузки: $\sigma_t = \sigma_n \cdot \gamma_f \cdot n_d \cdot n_p = 19,62 \text{ кН} \times 1,2 \times 1,2 \times 1,1 = 31,08 \text{ кН}$. Учитывая, что в момент размещения груза на платформе будут присутствовать рабочие, кратковременная нагрузка определяется следующим образом: $G_L = 2 \cdot G_{Ln} \cdot \gamma_f = 2 \times 2 \text{ кН} \times 1,2 = 4,8 \text{ кН}$. Затем кратковременная нагрузка накапливается и передается на основание «Б1» в виде опорных реакций от двух оснований «Б2».


В правой части схематического чертежа несущей площади «Б1» учтено воздействие нагрузок от собственного веса основания и от колонн, установленных между балками и монолитной плитой. Рассчитано в виде (конечно-элементной) системы с использованием программного обеспечения SCAD Office[2], [3]

Соединение между пластиной и консолью моделировалось с использованием односторонних двухузловых соединений, которые ограничивают вертикальные перемещения вниз (действуют на сжатие), но не ограничивают вертикальные перемещения вверх (действуют на растяжение). С одной стороны дополнительно заземлен узел с горизонтальным упором, который сжимает систему конечных элементов при ее перемещении вправо в горизонтальном направлении. Колонны шарнирно закреплены на оси и монолитной плите. Расчетная работа определяется по расчетной схеме на рисунке 2. Геометрический нелинейный расчет проводился с использованием метода простых шагов: количество шагов составляло пять, коэффициент шага — 0,2. Элементы «Б2» и «Б3» рассматриваются как шарнирные элементы. Схемы расчетов этих балок ввиду их простоты не показаны. По результатам статического расчета проведена проверка прочности и общий анализ напряженно-деформированного состояния несущих элементов силовой зоны. Расчет прочности стальных несущих конструкций производился по выражениям «КМК 2.01.07-96. Нагрузки и воздействия, ШНК 2.03.05-23 Пўлат конструкциялар. Лойихалаш меўрлари».(рис 3)[4]

Из исследовательской работы, проведенной в данной статье, а также из вычислительного анализа, проведенного при изучении других материалов, можно сделать следующие общие выводы:

1. Конструкции исследуемой подъемной платформы соответствуют требованиям по несущей способности - первая группа предельных состояний и вторая группа предельных состояний в нормальных условиях эксплуатации не нарушаются.

2. Выявлено существенное несоответствие коэффициентов запаса прочности отдельных несущих элементов конструкции. Уменьшает толщину проката (с 5 до 4 мм), образующего основание под грузом, размещаемым на платформе. Уменьшается собственный вес основания и увеличивается общая несущая способность.






Рис. 3. Внутренние силы, возникающие из-за расчетного сочетания нагрузок.

Список литературы

- [1]. Аскарлов Б.А., Низомов Ш.Р. Железобетонные и каменно-кирпичные конструкции Узбекистан 2003г.
- [2]. Байков. В.Н., Сигалов Е.Е. Железобетонные конструкции. Стройздат 1991г.
- [3]. Р.Х. Хамитов. (2024). Review and Analysis of the Operation of Monolithic Biaxial Ceilings With Void Generators in Dry and Hot Climates. Miasto Przyszłości, 49, 896-901.
- [4]. Р.Х. Хамитов, Арабджон оглу, А. У. Б., Турсунали оглу, А. А., и Маматханович, Б. М. (2024). ТЕХНОЛОГИЯ ПРИМЕНЕНИЯ ОХЛАЖДАЮЩЕЙ ОПАЛУБКИ ПРИ МОНТАЖЕ МОНОЛИТНЫХ КОНСТРУКЦИЙ В УСЛОВИЯХ ЖАРКОГО КЛИМАТА. Современное образование и развитие, 13(2), 293-309.
- [5]. Р.Х. Хамитов. (2024). Технология применения охлаждающей опалубки при монтаже монолитных конструкций в условиях жаркого климата Республики Узбекистан. Экономика и инновации, 52, 315-323.

NASOSLARDAGI KAVITATSIYA ZAHIRASINI HISOBLASH

Е.О‘. Madaliyev, N.A. Usmonova, A.N. Sharofiddinova

*Farg‘ona politexnika instituti,
(Qabul qilindi 22.02.2025 y.)*

Annotatsiya: Ushbu maqolada, suv ta‘minotida qo‘llaniladigan nasoslarda kavitatsiya hodisasining oqibatlari va kavitatsiyaning oldini olishning asosiy usullari, markazdan qochma nasoslarda kavitatsiya bilan samarali kurashish usullari, nasoslarda NPSH harakteristikasi haqida ko‘rib chiqilgan.

Tayanch so‘zlar: Nasoslardagi yemirilishlar, mikropufakchalarning yorilishi, xaddan tashqari yuqori gidravlik qarshilik, kavitatsiya hodisasi, nasos ishlayotgan paytda kuchli shovqin paydo bo‘lishi, nasoslar qisqa mudat ishlashi.

Аннотация: In this article, the consequences of cavitation in pumps used for water supply, the main methods of preventing cavitation, effective ways to combat cavitation in centrifugal pumps, and the NPSH characteristics in pumps are discussed.

Key words: Pump collapses, microbubble bursts, excessively high hydraulic resistance, cavitation phenomenon, strong noise during pump operation, short-term pumps operation.

Аннотация: В данной статье рассмотрены последствия явления кавитации в насосах, применяемых в водоснабжении, и основные методы предотвращения кавитации, методы эффективной борьбы с кавитацией в центробежных насосах, а также характеристики NPSH в насосах.


Ключевые слова: In pumps, cavitation leads to damage, the rupture of microbubbles, excessively high hydraulic resistance, strong noise during operation, and short operational lifespan of the pumps.

Yuqori sifatli nasoslarning o‘rtacha ishlash muddati 25-30 yilga yetadi. Albatta, bu orqali texnik xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash o‘z vaqtida amalga oshirilgan taqdirdagina shuncha vaqt nasos ishlashi mumkin. Nasosning tez ishdan chiqishiga kavitatsiya sabab bo‘ladi.

Kavitatsiya –bu tashilayotgan suyuqlikda bug‘ yoki gaz pufakchalarining paydo bo‘lishi, shuningdek, nasos uskunasi alohida elementlari bilan ta’sirlashganda ularni darhol yo‘q bo‘lish jarayoni. Ushbu hodisa nasos uskunasi ichidagi bosim to‘yingan bug‘ bosimidan pastga tushganda sodir bo‘ladi. Shu sababli termodinamik muvozanat buziladi, bu ishchi jisimni tez qaynashiga olib kelib, bo‘shliqlarning paydo bo‘lishiga olib keladi (ular gaz yoki bug‘ bilan to‘ladi). Markazdan qochma kuchlar ta’sirida pufakchalar ishchi suyuqlik bosimi yuqori bo‘lgan siqish zo‘nasiga siljiydi. Bularning barchasi pufakchalarning yo‘q bo‘lishiga (yorishiga) olib keladi. Atrof muhitga katta miqdorda issiqlik chiqariladi va ko‘plab gidravlik zarblarni keltirib chiqaradi.

Nasoslar va boshqa agregatlarning kavitatsiyasi natijasida:

- Unumdorlik darajasi va nasos uskunalarning quvvati pasayadi ;
- Nasos korpusining, ishchi g‘ildirakning va valning ichki sirti materiali erozion yemirilishga uchraydi ;
- Kuchli shovqin va vibratsiya paydo bo‘ladi.



1- rasm Kavitatsiya zonasini
Kavitatsiyaning asosiy belgilari.

Nasosning ishlash paytida kavitatsiya mavjudligini aniqlash va asosiy belgilarini kuzatish orqali uning salbiy ta’sirini kamaytirish mumkin:

- Nasos ishlayotgan paytda kuchli shovqin paydo bo‘ladi. U bir vaqtning o‘zida juda ko‘p miqdordagi mikropufakchalarning yorilishi tufayli sodir bo‘ladi. Shovqin bo‘ladigan pufakchalar soniga va ularning o‘lchamlariga bog‘liq. Katta pufakchalar hosil bo‘lsa ularning yorilishi kuchli zarbaga olib kelishi mumkin.
- Ishchi suyuqlikning uzatilishini keskin to‘xtashi.

Bu belgini uzatilayotgan suyuqlikning oqimini ko‘payganidan (ventil yordamida) bilish mumkin. Dastlab uzatish ortadi, muayyan qiymatga erishgandan

so‘ng, chiqishda keskin pasayish sodir bo‘ladi. Agar bu alomat mavjud bo‘lsa, demak nasosda kavitatsiya paydo bo‘lgan bo‘ladi.

Vizual belgilar. Tashqi tomondan pufakchalar mavjudligini faqat ba’zi zamonaviy modellarda kuzatish mumkin.

Nasosning ishlash paytida kavitatsiya paydo bo‘lishiga nima sabab bo‘ladi?

Ushbu muammoni turli sabablar keltirib chiqarishi mumkin:

- Nasosni o‘rnatish uchun noto‘g‘ri joy tanlangan. Agar nasos uzatilayotgan suyuqlik sirtidan yuqorida joylashgan bo‘lsa nasoslarda kavitatsiya hodisasi paydo bo‘lishi mumkin.
- Xaddan tashqari yuqori gidravlik qarshilik. Nasosning so‘rish quvurida me’yoridan ortiq gidravlik qarshilik yuzaga kelsa, bu nasos ichidagi bosimning pasayishiga olib keladi. Natijada pufakchalar hosil bo‘lishi boshlanadi.
- Ishchi suyuqlikning xaddan tashqari yuqori harorati. Har bir nasos uchun belgilangan maksimal harorat mavjud. Agar bu cheklov hisobga olinmasa, ishchi suyuqlikda mikropufakchalar shakllana boshlaydi. Bu nasos kavitatsiyaning asosiy sabablaridan biridir.

Nasoslarda kavitatsiyaning oqibatlari.

- Kavitatsiya nasosning ishlashiga, uning unumdorlik darajasiga va quvvatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.
- Agar kavitatsiya aniqlansa, uni darhol bartaraf qilishni boshlash kerak. Gaz yoki bug‘li pufakchalarni oz miqdori ham nasos uskunasi asosiy elementlarini asta-sekin yemirilishiga olib keladi.
- Mikropufakchalarning yorilishi dastlab kuchlik shovqin va tebranishni hosil qiladi. Tebranishning kuchi (vibratsiya) nasosning qanchalik kattaligiga bog‘liq
- Vaqt o‘tishi bilan kavitatsiya rivojlana boradi, natijada nasosning asosiy harakteristikalarini pasaya boshlaydi. Kavitatsiyaning rivojlanish tezligi nasosning o‘lchamlariga va uning unumdorligiga bog‘liq. Nasoslardagi kavitatsiyaning yana bir oqibati shundaki, bunday sharoitda

nasos agregatining uzoq muddat ishlashi, uning alohida elementlarini va detallarini ishdan chiqarishga olib keladi.

Kavitatsiyaning oldini olishning asosiy usullari.

Nasoslarda kavitatsiyaga qarshi kurashishning bir nechta samarali usullari mavjud. Bunday usullar ko'pincha nasos uskunalari ishlab chiqaruvchilar, shuningdek bunday agregatlarning ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanadigan mutaxassislar tomonidan qo'llaniladi.

Asosiy usullar:

- Korpuslar va detallar tayyorlash uchun mustaxkam metallar va qorishmalar ishlatiladi. Ammo bu ma'lum darajada nasos agregatining umumiy narxiga ta'sir qiladi.
- Ba'zi hollarda boshqa shakldagi klapanlar ishlatiladi. Bu ishchi suyuqlikning bosim darajasi past bo'lgan joyidan yuqori bosim sohasiga o'tishiga imkon beradi. Kavitatsiya ehtimolini kamaytirish uchun perforatsiyalangan detallarni o'rnatish mumkin. Bunday detallardan foydalangan holda ishchi suyuqlikni bir nechta oqimlarga ajratish mumkin. Bu kavitatsiya ehtimolini kamaytiradi.
- Kavitatsiya ehtimolini kamaytirish bilan bog'liq jarayonlarning aksariyati ishlab chiqaruvchilar tomonidan amalga oshiriladi. Nasoslarda kavitatsiyaga qarshi kurash majburiy ravishda amalga oshirilishi kerak.

Markazdan qochma nasoslarda kavitatsiya bilan samarali kurashish usullari.

- Agar kavitatsiya doimiy ravishda sodir bo'lsa, nasos agregatlarida salbiy oqibatlarni to'xtatishni ilojishi yo'q. Ammo isitish nasoslari va boshqa agregatlarda kavitatsiya paydo bo'lishini oldini olish mumkin.
- Markazdan qochma nasoslarni himoyasini ta'minlash uchun uzatishning chegaraviy qiymatlarini oldindan belgilash zarur. Uzatish belgilangan qiymatdan ortganda, kavitatsiyaning boshlang'ich bosqichini osongina sezish mumkin. Xar bir nasos modeli uchun chegara qiymati alohida belgilanadi. Markazdan qochma nasoslarda kavitatsiyaning hosil bo'lish ehtimoli ko'p jixatdan suyuqlik olinadigan idishning satxidan past yoki yuqori bo'lishiga bog'liq. Ideal joyini aniqlash uchun xisob –kitoblarni amalga oshirish mumkin. Ba'zi hollarda tajriba o'tkazishga to'g'ri keladi.
- Nasos agregati konstruksiyasidagi filtrlar, quvurlarning alohida uchastkalariga texnik xizmat ko'rsatish muhimdir. Ko'pincha quvurlarning diametri torayadi. Bu turli chiqindilarni asta sekin to'planishi tufayli yuzaga keladi. Nasoslar agregatlari filtrlarini vaqti - vaqti bilan tozalash yoki almashtirish kerak
- Xar bir nasosga texnik pasport ilova qilinadi. Unda nasosning asosiy xarakteristikalarini keltiriladi. Ishlash xarakteristikalarida chetga chiqish nasos ishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.
- Nasos agregatini muntazam ishlashini ta'minlash uchun o'z vaqtida ko'rikdan o'tkazish lozim. Bu muammolarni dastlabki bosqichda aniqlash uni tezda bartaraf etish imkonini beradi.

Yevropada kavitatsiya zahirasining umumiy qabul qilingan belgisi NPSH (Net Positive Suction Head). NPSH harakteristikasi nasosning kirish qismida absolyut vakuum hosil qila olmasligi va suyuqlikni 10, 33m yoki undan yuqori balandlikdan so'rishni ta'minlaydi. Fizikaviy nuqtai nazardan NPSH kavitatsiya jarayonini oldini olish uchun yetarli bo'lgan nasosning kirish qismidagi absolyut bosimni ko'rsatadi. Nasosning maksimal so'rish balandligi va kavitatsiya harakteristikasi o'zaro bog'liq:

$$H_{\max} = A - NPSH - H_{\text{asp}} - H_r, \quad m, \quad (1)$$

bu yerda A- so'rish quvuridagi suyuqlikning erkin sirtidagi bosim. Suyuqlik ochiq manbadan so'rilganda A – atmosfera bosimiga teng;

H_{asp} - so'rish quvurida oqim harakatiga qarshilikni yengishdagi naporning yo'qolishi;

H_r –suyuqlikning bug' hosil bo'lish bosimi (metr suv ustuni).

Odatda NPSH ni loyihalash tashkilotlari yoki injineriing kompaniyalari hisoblaydi, biroq ko'pincha buni nasosni ishlatayotgan tashkilotlar bajarishiga to'g'ri keladi.

NPSH ning quyudagi formuladan aniqlash mumkin:

$$NPSH = \frac{P_{abs}}{\rho g} + \frac{v_z^2}{2g} - \frac{P_r}{\rho g}, \quad (2)$$

bu yerda P_{abs} - nasosga kirishdagi suyuqlikning absolyut bosimi,

Pa;

ρ -suyuqlikning zichligi, $\frac{kg}{m^3}$;

g- erkin tushish tezlanishi, $\frac{m}{c^2}$;

V_1 –nasosga kirishdagi suyuqlik tezligi, $\frac{m}{s}$

P_v -suyuqlik to'yingan bug'ining bosimi, Pa

$\frac{V_1^2}{2g}$ – nasosga kirishdagi tezlik nabori,

Odatda, $V=2-5\frac{m}{c}$, natijada

$\frac{V_1^2}{2g}=0,2m \quad \frac{2m}{c}$ da

$\frac{V_1^2}{2g}=1.25m \quad \frac{5m}{c}$ da

Odatda tezlik naporini e'tiborga olmasa ham bo'ladi, bu uzatish quvurining diametriga bog'liq. Shu bilan birgalikda NPSH ni hisoblashda quyudagi formuladan ham foydalaniladi:

$$NPSH=Z_0+(P_0+P_{atm}+P_v)/\rho g - \Delta H_{1-0} \quad (3)$$

Nasosning normal ishlashi uchun nasosning ruxsat etilayotgan kavitatsiya zahirasi ($NPSH_d$) nasosning kerakli kavitatsion zahirasidan ($NPSH_r$) katta bo'lishi kerak. Xavfsizlik choralari sifatida qo'shimcha ishonchlik zahirasi 0.5 m bo'lishi kerak:

$$NPSH_D > NPSH_R + 0,5m \quad (4)$$

Biz tanlagan markazdan qochma nasos HM.150.04 uchun:

$$P_{abs} = 0.5 \text{ bar}; \rho = 1000 \frac{kg}{m^3}$$

$$P_{abs}=0.5 \text{ bar}; \rho=1000 \frac{kg}{m^3};$$

$$g=9.81 \frac{m}{c^2}; \quad V_1 = 1m/c;$$

$$P_v=0.022 \text{ bar.}$$

$$NPSH=0,5 \times 10^5 / 1000 \times 9,81 + 1^2 / 2 \times 9,81 - 0,022 \times 10^5 / 1000 \times 9,81 = 5 + 0,05 - 0,22 = 4,83$$

0,5m zahirani hisobga olsak, ushbu nasos uchun kavitatsiya zahirasi quyidagiga teng: $4,83+0,5=5,33m$.

Qo'chqorchi nasos stansiyasida sug'orish uchun mo'ljallangan nasoslarning kavitatsiya zaxirasi

D1600-90 nasos uchun, nasosning so'rish balandligi 5m (4-7m) ekanligi hisoblab chiqildi.

D630-90 nasos uchun, nasosning so'rish balandligi 4.5m (5-5.5m) ekanligi hisoblab chiqildi.

D1250-65 nasos uchun, nasosning so'rish balandligi 7m (6-8m) ekanligi hisoblab chiqildi.

D1600-90 nasos uchun, nasosning so'rish balandligi 6m (7-8m) ekanligi hisoblab chiqildi.

D1600-90 rusumli nasoslar 70%

D630-90 rusumli nasoslar 80%

D1250-65 rusumli nasoslar 80%

D500-65 rusumli nasoslar 70%

Umumiy olinganda nasoslar pasportida ko'rsatilgan so'rish balandliklarini 70-80% da ishlaganda kavitatsiya hodisasi yuzaga kelmaydi.

Xulosa:

Kavitatsiya nasoslarning ishlashiga juda salbiy ta'sir ko'rsatadigan hodisa bo'lib, uning davomiyligi va kuchi nasosning unumdorligi va uzoq muddat ishlashiga katta zarar yetkazishi mumkin. Kavitatsiya suyuqlikdagi bug' yoki gaz pufakchalarining paydo bo'lishi va ularning darhol yo'q bo'lishi jarayonidir. Bu hodisa nasosning ishchi qismlarida bosimning to'yingan bug' bosimidan pastga tushishi natijasida yuzaga keladi. Natijada, nasos ichidagi suyuqlik tezda

qaynashni boshlaydi, mikropufakchalar hosil bo'ladi va markazdan qochma kuchlar ta'sirida ular yuqori bosimdagi zonaga siljiydi. Bu pufakchalar yorilishi natijasida esa kuchli zarbalar va issiqlik chiqishi sodir bo'ladi. Bu holat nafaqat nasosning ishlash samaradorligini pasaytiradi, balki uning komponentlarining yemirilishiga va uzoq muddat ishlashining buzilishiga olib keladi.

Kavitatsiyaning asosiy alomatlari orasida kuchli shovqin va tebranishlar, suyuqlik oqimining keskin to'xtashi mavjud. Kavitatsiya jarayonida nasosning ichki elementlari, masalan, korpus, ishchi g'ildirak va val yuzasi materiallari erozion yemirilishga uchraydi. Bu esa nasosning ishlash muddati va samaradorligiga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Buning natijasida nasosning unumdorligi pasayadi, quvvati kamayadi va uning ishlash xususiyatlari yomonlashadi. Shuningdek, kavitatsiya kuchli shovqin va vibratsiyalarni keltirib chiqaradi, bu esa nafaqat nasosning o'zini, balki atrof-muhitni ham salbiy ta'sir qiladi.

Kavitatsiyaning paydo bo'lishining asosiy sabablari orasida nasosning noto'g'ri o'rnatilishi, gidravlik qarshilikning oshishi, ishchi suyuqlikning yuqori harorati va nasosning texnik holatining yomonlashuvi bor. Nasosni o'rnatishda noto'g'ri joylashuv kavitatsiyaning boshlanishiga olib kelishi mumkin. Agar nasos suyuqlik manbaidan yuqorida joylashsa, bosim kamayib, kavitatsiya yuzaga kelishi mumkin. Shuningdek, agar nasosda gidravlik qarshilik haddan tashqari yuqori bo'lsa, bu nasosning ichki bosimini pasaytiradi va mikropufakchalar hosil bo'lishiga olib keladi. Ishchi suyuqlikning yuqori harorati ham kavitatsiyaga sabab bo'ladi, chunki bu suyuqlikdagi bug' yoki gaz pufakchalarining paydo bo'lishiga yordam beradi.

Adabiyotlar.

- [1]. Chudina, V. (2003). "Acoustic Emission as an Indication of Cavitation in Centrifugal Pumps". *Journal of Sound and Vibration*.
- [2]. Albraik, A. M., et al. (2012). "Vibration Analysis for Pump Fault Detection". *Mechanical Systems and Signal Processing*.
- [3]. Suhane, G. (2012). "Pressure Pulsation and its Effect on Cavitation". *Journal of Mechanical Engineering*.
- [4]. Farokhzad, A., et al. (2013). "Vibration Analysis of Centrifugal Pumps for Fault Detection". *Applied Acoustics*.
- [5]. Kamiel, H. (2015). "Condition Monitoring of Centrifugal Pumps". *Energy*.
- [6]. Al-Obaidi, S. (2019). "Cavitation in Centrifugal Pumps: A Review". *International Journal of Mechanical and Aerospace Engineering*.
- [7]. Alfayez, Y., et al. (2005). "Detection of Initial Cavitation in Centrifugal Pumps Using Acoustic Emission". *Mechanical Systems and Signal Processing*.
- [8]. Gohil, N. J., & Saini, K. K. (2014). "Influence of Cavitation on Hydraulic Turbine Performance". *Journal of Hydraulic Engineering*.
- [9]. Hernandez-Solis, A. (2006). "Diagnostic Methods for Centrifugal Pumps". *Fluid Machinery*.
- [10]. Dash, S. R., et al. (2021). "Innovative Designs to Mitigate Cavitation in Micro-Hydropower Systems". *Renewable Energy*.
- [11]. Peters, H. G. (2015). "The Role of Vibration Analysis in Pump Maintenance". *Journal of Quality in Maintenance Engineering*.
- [12]. Tuzson, K. (2000). "Pump Design Considerations and Cavitation Prevention". *Journal of Hydraulic Engineering*.

LIRA DASTURIY TA'MINOT TO'PLAMIDAN FOYDALANGAN HOLDA TO'RTBURCHAKLI TEMIR-BETON REZERVUARNI HISOBLASH

K.I. Maximov, Sh.M. Davlyatov, A.A. Abdurahmonov

sh.davlyatov@ferpi.uz, (ORCID 0009-0006-7204-7192)

maximov55@bk.ru

farpitsnqb@gmail.com, (ORCID 0009-0005-2929-0499)

Farg'ona politexnika instituti,

[\(Qabul qilindi 22.02.2025 y.\)](#)

Annotatsiya: Suvga to'yingan loyli gruntlarda to'rtburchakli temir-beton rezervuarlarni LIRA dasturiy majmuasi yordamida hisoblash usuli ko'rsatilgan. Loyixalanayotgan inshootga

ta'sir qiluvchi barcha turdagi yuklar, zamin gruntlari va materiallarning xossalari xamda poydevor xususiyatlari inobatga olingan. Turli geometrik ko'rinishdagi tuzilmalarni modellashtirish, statik va dinamik yuklarni hisoblash, inshootlarni poydevor bilan o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda taxlil qilish va material sarfini optimallashtirish imkoniyati o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Suvga to'yingan loyli grunt, to'rtburchakli temir-beton rezervuar, LIRA dasturiy majmuasi, materiallarning xossalari, poydevor, tuzilmalarni modellashtirish, statik va dinamik yuklarni hisoblash, optimallashtirish.


Abstract: The paper presents a calculation method for rectangular reinforced concrete tanks in water-saturated clay soils using the LIRA software package. All types of loads acting on the designed structure, soil and material properties, and foundation characteristics are taken into account. The possibilities of modeling structures of various geometric shapes, calculating static and dynamic loads, analyzing structures taking into account their interaction with the foundation, and optimizing material consumption are studied.

Key words: water-saturated clay soil, rectangular reinforced concrete tank, LIRA software package, material properties, foundation, modeling of structures, calculation of static and dynamic loads, optimization.

Аннотация. Представлена методика расчета прямоугольных железобетонных резервуаров в водонасыщенных глинистых грунтах с использованием программного комплекса ЛИРА. Учитываются все виды нагрузок, действующих на проектируемую конструкцию, свойства грунта и материалов, а также характеристики фундамента. Изучены возможности моделирования конструкций различной геометрической формы, расчета статических и динамических нагрузок, анализа конструкций с учетом их взаимодействия с основанием, оптимизации расхода материалов.

Ключевые слова. водонасыщенный глинистый грунт, прямоугольный железобетонный резервуар, программный комплекс ЛИРА, свойства материалов, фундамент, моделирование конструкций, расчет статических и динамических нагрузок, оптимизация.

Zamonaviy qurilish loyihalari, ayniqsa, to'rtburchakli temir-beton rezervuarlar kabi murakkab o'zgaruvchan yuklanishga ega bo'lgan tuzilmalarni loyihalashda aniq va ishonchli hisoblash usullarini qo'llash zarur bo'ladi. Rezervuarlar turli sohalarda, jumladan, sanoat, qishloq xo'jaligi va kommunal xo'jaliklarda suyuqliklar, gazlar va quyma materiallarni saqlashda foydalaniladi[1,2,3]. Bu borada LIRA dasturiy majmuasi chegaraviy holatlarda qurilish konstruksiyalarini loyihalash va "kuchlanganlik-deformatsiya" holatlarini tahlil qilish uchun eng samarali vositalardan biridir. Hisoblash jarayoni loyixalanayotgan inshootga ta'sir qiluvchi ko'plab




1-rasm. Rezervuar rejasi.

omillarni, jumladan, barcha turdagi yuklar, materiallarning xossalari va poydevor xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi. Uning asosiy xususiyati turli geometrik ko'rinishdagi tuzilmalarni modellashtirish, statik va dinamik yuklarni hisoblash, inshootlarni poydevor bilan o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda tahlil qilish va material sarfini optimallashtirish imkoniyati mavjudligidir[3,4,5].

Shunga ko'ra, Andijon viloyati, Oltinko'l tumanining suvga

to'yingan loyli gruntlarida loyixalanilayotgan 700m³ xajmga ega to'rtburchakli temir-beton rezervuarni ko'rib chiqamiz. Rezervuarining konstruktiv sxemasi yaxlit monolit, beton klassi B25 bo'lgan temir-beton bo'lib, to'rtburchak shaklda, reja va o'qlari bo'yicha o'lchamlari 12.0x18.0m., pol satxidan -4.0m.ni tashkil etadi. Bunda poydevor va devor qalinligi 40sm, ustin va to'sin

o'lchamlari 40x40sm, yopma qalinligi 18sm qabul qilingan. Rezervuar materiali sifatida sinfi B25 bo'lgan og'ir beton va A400 toifali po'lat armatura tanlangan.



2-rasm. Fazoviy modelning kuchlanganlik holati.

Qurilish maydoni 10 m ga qadar chuqurlikda o'rganilganda uning 0,7m qismi 40%gacha maishiy chiqindilardan iborat to'kma qatlamidan, 5,8m gacha tarkibida 10%gacha qumli zarrachalardan iborat qumoq va qumloqlardan va 4,2m qalinlikda 30%gacha qumli, xisobiy qarshiligi $R = 5000 \text{ t/m}^2$ bo'lgan shag'al dan tashkil topgan (1-jadval). Yer osti sizot suvi sathi o'rganish davrida $1,8 \div 2,0 \text{ m}$ ni tashkil etadi. Gruntlar va er osti sizot suvlarining sulfatga chidamli o'rtacha zichlikdagi betonga nisbatan agressivligi o'rtacha baholanib, tuzlarning quruq qoldiq miqdori 2500 mg/l , ionlar tarkibi: $\text{HCO}_3^- - 732 \text{ mg/l}$, $\text{Cl}^- - 13 \text{ mg/l}$, $\text{SO}_4^{2-} - 1130 \text{ mg/l}$.

Grunt xossalari

1-jadval


№	Gruntning nomi	Fizik ko'rsatkichlar						Mexanik xossalar		
		Gruntning qattiq holdagi zichligi, t/m^3	Gruntning quruq holdagi zichligi, t/m^3	Tabiiy zichligi, t/m^3	G'ovaklik koeffitsienti	Namligi, %	Plastiklik soni	Ichki ishqalanish burchagi, grad.	Solishtirma yopishqoqlik, kPa	Cho'kish moduli, t/m^2
1	Qumloq	2,7	1,42	1,89	0,91	33,7	8,9	25	12	900
2	Shag'al aralashgan qum	2,72	1,49	1,92	0,70	25,0	-	38	0,07	5000

Hisoblash modelini yaratishda rezervuar modeli loyixa diagrammasini tashkil etuvchi tugunlar va elementlar yordamida qurildi. Bunday holda, strukturaning devorlarini, pastki va burchak bo'g'inlarini hisobga olish mumkin bo'lgan fazoviy model ishlatildi(2-rasm).


Rezervuarni hisoblash LIRA dasturiy majmuasida chekli elementlar usuli (MKE) yordamida amalga oshirildi[2]. Devorlari, tomi va pastki qismi $0,5 \times 0,5 \text{ m}$ o'lchamdagi to'rt tugunli qobiqli sonli elementlardan foydalangan holda modellashtirilgan. Zamin gruntining modeli sifatida P.L.Pasternakning grunt modeli- elastik siqilish koeffitsienti qabul qilindi[2]. Shuningdek, yuklar va chegara shartlarini belgilash orqali asosiy (rezervuarining devorlari va pastki qismidagi suv bosimi) va qo'shimcha yuklar (strukturaning o'z og'irligi, tashqi devorlardagi grunt bosimi) ta'sirida

“zamin-inshoot” modelida chegaraviy shartlarni bajarilishi tadqiq qilindi. Modellashtirishga asoslangan hisoblash natijalari rezervuarining ko'ndalang X va bo'ylama U o'qlari bo'ylab eguvchi moment, kuchlanish, kesuvchi kuch va deformatsiyalarning taqsimlanishini ko'rsatdi(2-


rasm). Rezervuar asosi-yahlit poydevor yuzasi markazi bo'ylab N_x , N_x kuchlanish, eguvchi moment M_x va kesuvchi Q_x kuchlarning tarqalish holati 3÷6 rasmlarda ko'rsatilgan.




3-rasm. Rezervuar asosida N_x kuchlanishni tarqalish holati (a) va markaziy o'q bo'ylab N_x kuchlanish epyurasi



4-rasm. Rezervuar asosida N_u kuchlanishni tarqalish holati (a) va markaziy o'q bo'ylab N_u kuchlanish epyurasi



5-rasm. Rezervuar asosida M_x eguvchi moment tarqalish holati (a) va markaziy o'q bo'ylab M_x eguvchi moment epyurasi



6-rasm. Rezervuar asosida Q_x kesuvchi kuch tarqalish holati (a) va markaziy o'q bo'ylab Q_x kesuvchi kuch epyurasi.

Rezervuar to'liq yuklangan holatda poydevor uzunligi bo'ylab reaktiv bosim $R_z = 4,18 \div 9,98 \text{ t/m}^2$, rezervuar asosidagi elastik siqilish koeffisienti $S = 112,68 \div 322,67 \text{ t/m}^3$, cho'kish miqdori $S = 30,98 \div 36,9 \text{ mm}$ ni tashkil etdi (2-jadval).

To'rtburchakli quyma temir-beton rezervuarining to'liq yuklangan holda yahlit poydevor markazi bo'ylama yo'nalishidagi ($L=18\text{m}$) deformatsiya holati.

2-jadval

№	Poydevor uzunligi bo'ylab hisoblangan bo'laklar	Reaktiv bosim, P_z , t/m^2	Gruntni elastik siqilish koeffisienti, S_i , t/m^3	Zamin faol siqilish chegarasi, H_s , m	Cho'kish, S , mm	O'rtacha cho'kish moduli, Y_e , t/m^2	Puasson koeffisienti,
1	Poydevor chegarasida, $L_1=0,0 \text{ m}$	4.1828	114.26	11.098	36.607	904.6	0.3
2	$L_2=3,0 \text{ m}$	4.0706	112.68	11.098	36.127	904.48	0.3
3	$L_3=6,0 \text{ m}$	4.2091	114.64	11.098	36.714	904.63	0.3
4	Poydevor markazi, $L_4=9,0 \text{ m}$	4.0515	113.74	11.098	35.62	904.37	0.3
5	$L_5=12,0 \text{ m}$	9.9958	322.67	10.902	30.978	900	0.3
6	$L_6=15,0 \text{ m}$	4.0494	112.81	11.098	35.895	904.43	0.3
7	Poydevor chegarasida, $L_7=18,0 \text{ m}$	4.2094	114.65	11.098	36.715	904.63	0.3

Kuchlanishlar tarqalishini kuzatganimizda N_x , N_u kuchlanishlar rezervuar markazi bo'ylab, kesuvchi Q_x kuchlar esa chetki tayanchlarda eng katta qiymatlarga ega (3,4-rasmlar). Rezervuar asosida M_x va M_u eguvchi momentlarning miqdorlari tayanchlarga yaqinlashgan sari ortib borishi kuzatildi (5-rasm).

Inshootni hisoblashda aniqlangan deformatsiyalar $S = 30,9 \div 36,7 \text{ mm}$ oralig'ida bo'lib QMQ [1]da belgilangan qiymatlar doirasida qoldi, bu esa materiallar va mustahkamlash parametrlarini to'g'ri tanlanganligini tasdiqlaydi.

LIRAda amalga oshirilgan hisob-kitoblarga asoslanib, rezervuar loyixasida optimallashtirish amalga oshirildi. Jumladan, hisoblar asosida aniqlangan kuchlanish va eguvchi moment qiymatlariga asoslanib rezervuar poydevori ishchi zo'nalariga armatura joylashtirish optimallashtirildi. Inshoot zamini gruntlarini sun'iy mustahkamlashdan tashqari kam yuklangan joylarni armaturalashda 10% qadar tejamkorlikga erishildi, yorilishni oldini olish uchun burchak elementlari va eng ko'p kuchlanganlik kuzatilayotgan maydonlar qo'shimcha mustahkamlandi. Shuningdek, gidroizolyasiya xususiyatlari yuqori bo'lgan betondan foydalanish bo'yicha tavsiyalar berildi.

To'rtburchak shaklidagi temir-beton rezervuarni hisoblashda LIRA dasturiy ta'minotidan foydalanish rezervuarining kuchlanish-deformatsiya holatini izchil baholash, barcha ta'sir etuvchi yuklarni hisobga olish va loyixalashni optimallashtirish imkonini berdi. Bu yuqori ishonchlilik va xavfsizlik talablariga javob berishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ob'ektlarni loyihalashda ayniqsa muhimdir.

Shunga ko'ra, maskur dasturiy ta'minot yordamida yanada murakkab modellar, jumladan, dinamik effektlar uchun rezervuarlarni dinamik ta'sirlarga chidamliligini tahlil qilish va materiallarning chiziqli bo'lmagan xususiyatlarini hisobga olgan holda foydalanish mumkin.

Adabiyotlar:

- [1]. ShNQ 2.04.02-2019. Suv ta'minoti. Tashqi tarmoq va inshootlar. T.: 2019y.
- [2]. Бате, К. Численные методы анализа и метод конечных элементов / К. Бате, Е. Вилсон ; пер. с англ. – Москва : Стройиздат, 1982. – 448 с. – Текст : непосредственный.
- [3]. Горелов, А. С. Неоднородные грунтовые основания и их влияние на работу вертикальных стальных резервуаров : монография / А. С. Горелов. – Санкт-Петербург : Недра, 2009. – 220 с. - Текст : непосредственный.
- [4]. Грученкова, А. А. Напряженно-деформированное состояние резервуара на грунтовом основании с локальной неоднородностью / А. А. Грученкова, А. А. Тарасенко. – Текст : непосредственный // Известия высших учебных заведений. Нефть и газ. – 2019. - № 3. – С. 96-101
- [5]. Сотников, С. Н. Проектирование и строительство резервуаров на слабых грунтах / С. Н. Сотников, Р. А. Мангушев. – Москва : ВНИИОЕНГ, . – 51 с

ELEKTR TARMOQLARIDA QUVVAT OQIMLARINI NAZORAT QILISHNING
USULLARI

J.N. Tolipov¹, Sh.Yu. Usmonov²

¹O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Energetika muammolari instituti,

²Farg'ona politexnika instituti

tolipovjamshidn@gmail.com

(Qabul qilindi 10.02.2025 y.)

Annotatsiya. Ushbu maqolada elektr tarmoqlarida quvvat oqimlarini nazorat qilish usullari ko'rib chiqiladi. Turli xil nazorat usullari, ularning afzalliklari va kamchiliklari, shuningdek, elektr tarmoqlarida quvvat oqimlarini boshqarishdagi muhim jihatlari o'rganiladi. Maqolada elektr tarmoqlarining ishonchligini, samaradorligini va barqarorligini oshirish uchun quvvat oqimlarini nazorat qilish muhimligi keltirilgan. Qulay va ishonchli quvvat oqimi nazorati elektr tarmoqlarining ishlashini yaxshilash, energiya resurslaridan samarali foydalanish va har xil nobarqarorliklarni oldini olishga yordam beradi. Tadqiqot natijalari tarmoqlarning ishlashini optimizatsiyalash va kelajakdagi energosamaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: elektr tarmoqlari, quvvat oqimlari, samaradorlik, barqarorlik, usullar.

Аннотация. В данной статье рассматриваются методы контроля потоков мощности в электрических сетях. Изучены различные методы управления, их преимущества и недостатки, а также ключевые аспекты управления потоками мощности в электрических сетях. Подчеркивается важность контроля потоков мощности для повышения надёжности, эффективности и устойчивости электрических сетей. Эффективный и надёжный контроль потоков мощности способствует улучшению работы сетей, эффективному использованию энергетических ресурсов и предотвращению различных нестабильностей. Результаты исследования направлены на оптимизацию работы сетей и повышение энергоэффективности в будущем.

Ключевые слова: электрические сети, потоки мощности, эффективность, стабильность, методы.

Abstract. This article discusses methods for controlling power flows in electrical networks, examining various control techniques along with their advantages and disadvantages, as well as key aspects of power flow management in electrical grids. The importance of power flow control is highlighted to enhance the reliability, efficiency, and stability of electrical networks. Effective and reliable power flow control contributes to improved network performance, efficient use of energy resources, and prevention of various instabilities. The research findings aim to optimize network operations and promote future energy efficiency improvements.

Keywords: electrical networks, power flows, efficiency, stability, methods.

Kirish. Jahonda qayta tiklanuvchi energiya manbalari, ya'ni shamol va quyosh energiyasi kabi manbalarining ko'payishi tegishli elektr tarmoqlarida quvvat oqimlarini nazorat qilish usullarini takomillashtirishni talab qiladi. Bu manbalar barqaror bo'lmagan bo'lib, ularning quvvati vaqt o'tishi bilan o'zgarib turadi. Aqlli tarmoqlarning rivojlanishi esa elektr tarmoqlarida quvvat oqimlarini nazorat qilish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Aqlli tarmoqlardagi sensorlar va boshqaruv tizimlari elektr tarmoqlarining holatini kuzatib borish va quvvat oqimlarini optimallashtirish imkonini beradi.


Elektr tarmoqlarida quvvat oqimlarini nazorat qilish energiya ta'minotining barqarorligini ta'minlash, yuklamani optimal taqsimlash, elektr uzatish tizimining xavfsizligini oshirish va elektr energiyasi iste'molini samarali boshqarish uchun muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy elektr tarmoqlarida quvvat oqimlarini nazorat qilishning bir nechta usullari mavjud bo'lib, ularni an'anaviy va intellektual texnologiyalar asosida ikki asosiy turga ajratish mumkin [1-3].

Quvvat oqimlarini nazorat qilish tizimlari quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

- **Tarmoqdagi kuchlanish, tok va chastotani monitoring qilish** – energiya ta'minoti parametrlarini doimiy nazoratda ushlash.

- **Yuklamalarni dinamik taqsimlash** – generatsiya va iste'mol o'rtasidagi balansni ta'minlash.
- **Iste'molchilarning talabini aniqlash va bashorat qilish** – energiya ta'minoti strategiyasini shakllantirish.
- **Quvvat oqimlari yo'nalishini nazorat qilish** – elektr energiyasining qaysi yo'nalishda oqishini belgilash va optimallashtirish.
- **Avtoavariya himoya tizimlarini ishga tushirish** – haddan tashqari yuklama va avariya holatlarida tizimni himoya qilish [3-4].

So'nggi bir necha yil ichida uzatish tizimlarida (aktiv) quvvat sarfini nazorat qilish imkoniyatlariga qiziqish sezilarli darajada oshdi. Buning bir qator sabablari bor, ular ham qo'llash tomondan, ya'ni energiya tizimining ishlashidan va texnologik tomondan, ya'ni yarim o'tkazgichli qurilmalar kabi yangi tizim komponentlarining paydo bo'lishidan kelib chiqadi[4].



1-rasm. Elektr tarmoqlaridan aktiv quvvatni o'tkazish.

Ko'pgina mamlakatlarda elektr uzatish tarmog'idan ko'proq foydalanish va energiya bozorining tartibga solinmaganligi tufayli energiya tizimlarining ishlashi o'zgargan. Quvvat oqimini bir tizimdan ikkinchi tizimga o'tishida liniya kuchlanishlarida pasayish kuzatiladi (1-rasm).

Elektr tarmoqlarida quvvat oqimini hosil bo'lishi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$P = \frac{U_1 U_2}{X} \sin(\delta_1 - \delta_2)$$

Ushbu tenglama aktiv quvvat oqimini ta'minlaydigan beshta parametрни o'z ichiga oladi:

U_1 – 1-tizimning qismalaridagi kuchlanish; U_2 – qabul qiluvchi 2-tizimning qismalaridagi kuchlanish; X – liniyaning reaktiv qarshiligi; δ_1 – 1-tizimning siljish burchagi; δ_2 – 2-tizimning siljish burchagi.

Quvvat oqimlarini nazorat qilishning asosiy usullari quyidagicha tasniflanadi:

1. An'anaviy usullar

An'anaviy usullar elektr tarmoqlarida quvvat oqimlarini mexanik va analog boshqaruv asosida nazorat qilishni o'z ichiga oladi. Ushbu usullar hozirgi kunda asosan katta markazlashgan energetika tarmoqlarida qo'llaniladi [1].

1.1. SCADA (Supervisory Control and Data Acquisition) tizimlari

SCADA tizimlari uzoq masofadan elektr tarmoqlarining holatini nazorat qilish va ularni boshqarish uchun ishlatiladi. Uning asosiy vazifalari:

- **Real vaqtda ma'lumot yig'ish va tahlil qilish.**
- **Dispatcherlik markaziga ma'lumotlarni uzatish.**
- **Yuklamalarni dinamik boshqarish.**

1.2. Energetik dispatcherlik nazorati

Energetik dispatcherlik markazlari katta elektr stansiyalari va tarmoqlarning umumiy nazoratini olib boradi. Bu usul asosan elektr ta'minoti operatorlari tomonidan qo'llaniladi.

1.3. Hisoblash va modellashtirish metodlari

Quvvat oqimlarini nazorat qilish uchun turli hisoblash metodlaridan foydalaniladi, masalan:

- **Nyuton-Rafson usuli** – elektr tarmoqlarida kuchlanish va tokni hisoblash uchun ishlatiladi.
- **Tarmoq yo'qotishlarini aniqlash algoritmlari.**
- **Quvvat oqimi balansini ta'minlash metodlari.**

2. Intellektual usullar

Zamonaviy elektr tarmoqlarida an'anaviy usullar bilan birga intellektual boshqaruv texnologiyalari joriy etilmoqda.

2.1. Smart Grid texnologiyalari [2]

Smart Grid – bu intellektual elektr tarmoqlari bo'lib, ular avtomatlashtirilgan boshqaruv va raqamli texnologiyalar asosida ishlaydi.



2-rasm. Yuqori samaradorlikka ega bo'lgan Smart Grid elektr tarmoqlari.

Uning asosiy afzalliklari:

- **Quvvat oqimlarini dinamik nazorat qilish.**
- **Istemochilar va generatorlar o'rtasida optimal tarmoq balansini ta'minlash.**
- **Avtomatlashtirilgan avariyaqa qarshi himoya tizimlarini qo'llash.**

2.2. IoT (Internet of Things) va sensor tizimlari


IoT va sensorlar elektr tarmoqlarini uzluksiz monitoring qilish uchun keng qo'llanilmoqda.

Bunday tizimlar tarmoqning real vaqtdagi ma'lumotlarini yig'ib, ma'lumotlar tahlili orqali nazorat qiladi.

2.3. Machine Learning (ML) va AI (Artificial Intelligence) asosida quvvat oqimlarini boshqarish [1-5]

Sun'iy intellekt va mashinali o'rganish algoritmlari quvvat oqimlarini oldindan taxmin qilish va dinamik ravishda nazorat qilish imkonini beradi. Bunday tizimlar:

- **Yuklamalar bashoratini aniqlash;**
- **Tarmoq balansini avtomatik boshqarish;**
- **Elektr energiyasi iste'molining o'zgarishini hisobga olib optimallashtirish.**



3-rasm. Aqlli elektr tarmoqlarida IoT modeli.

Quvvat oqimlarini nazorat qilish tizimlarini takomillashtirish uchun quyidagi yoʻnalishlar boʻyicha tadqiqot va innovatsiyalar amalga oshirilmoqda:

1. **Raqamli dvoyniklar (Digital Twins) texnologiyasi** – real vaqtda tarmoq modellarini yaratib, ularning ishlash samaradorligini tahlil qilish.
2. **Blockchain texnologiyasi** – elektr energiyasi almashinuvi va hisob-kitoblar shaffofligini taʼminlash.
3. **Kognitiv energetika tizimlari** – sunʼiy intellekt va mashinali oʻrganish asosida quvvat oqimlarini avtomatik boshqarish.
4. **Markazlashtirilmagan energiya boshqaruvi** – elektr tarmoqlarida mahalliy generatsiya va isteʼmolni integratsiya qilish [3-5].

Yangi texnologiyalar va intellektual boshqaruv tizimlari elektr tarmoqlarining samaradorligini oshirish, elektr energiyasi yoʻqotishlarini kamaytirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini tarmoqqa integratsiya qilishni osonlashtirish imkonini beradi. Shu boisdan, elektr tarmoqlarini raqamlashtirish va intellektual boshqaruv usullarini joriy etish zamonaviy energetika sohasining ustuvor yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi.

Xulosa. Elektr tarmoqlarida quvvat oqimlarini nazorat qilish – bu murakkab va muhim jarayon boʻlib, u elektr energiyasini samarali taqsimlash, tarmoqning ishonchliligini oshirish va barqarorligini taʼminlashga xizmat qiladi. Maqolada koʻrib chiqilgan turli xil nazorat usullari elektr tarmoqlarining murakkabligi va oʻzgaruvchanligini hisobga olib, uning samaradorligini oshirishga qaratilgan. Xulosa qilib aytganda, elektr tarmoqlarida quvvat oqimlarini nazorat qilish usullarini takomillashtirish, yangilanadigan energiya manbalarining koʻpayishi, aqlli tarmoqlarning rivojlanishi va elektr transport vositalarining koʻpayishi kabi jahon tendensiyalari bilan bogʻliq muhim masala hisoblanadi. Bu jarayon elektr energiyasini samarali taqsimlash, tarmoqning ishonchliligini oshirish va barqarorligini taʼminlashda muhim rol oʻynaydi.

Adabiyotlar

- [1]. Qusay Hassan, Sameer Algburi, Aws Zuhair Sameen, Hayder M. Salman, Marek Jaszczur, "A review of hybrid renewable energy systems: Solar and wind-powered solutions: Challenges, opportunities, and policy implications", Results in Engineering, Volume 20, 2023, 101621, ISSN 2590-1230, <https://doi.org/10.1016/j.rineng.2023.101621>.
- [2]. International Energy Agency "Power systems in transition, Challenges and opportunities ahead for electricity security", October 2020.
- [3]. Huang S., Wu Q., Cheng L., Liu Z. Optimal Reconfiguration Based Dynamic Tariff for Congestion Management and Line Loss Reduction in Distribution Networks. IEEE Transactions on Smart Grid, 2015. DOI: 10.1109/TSG.2015.2419080.
- [4]. Manju M., Leena G., Saxena N.S. Distribution Network Reconfiguration for Power Loss Minimization Using Bacterial Foraging Optimization Algorithm. Engineering and Manufacturing, 2016, no. 2, pp. 234-239.
- [5]. Aggelos, S., Bouhouras., Paschalis, A., Gkaidatzis., Dimitris, P., Labridis. Network Reconfiguration in Modern Power Distribution Networks. (2020). doi: 10.1007/978-3-030-36115-0_7.
- [6]. J. A. Martinez-Velasco and J. Martin-Arnedo, "Distributed Generation Impact on Voltage Sags in Distribution Networks," 2007 9th International Conference on Electrical Power Quality and Utilisation, Barcelona, Spain, 2007, pp. 1-6, doi: 10.1109/EPQU.2007.4424158.
- [7]. Chatzigeorgiou, N.G., Yerasimou, Y.P., Florides, M.A., Georghiou, G.E. (2021). Grid Export Reduction Based on Time-Scheduled Charging of Residential Battery Energy Storage Systems—A Case Study in Cyprus. In: Littlewood, J., Howlett, R.J., Jain, L.C. (eds) Sustainability in Energy and Buildings 2020. Smart Innovation, Systems and Technologies, vol 203. Springer, Singapore. https://doi.org/10.1007/978-981-15-8783-2_19.
- [8]. T. Maeda, G. Schepers, "12 - Wind turbine performance assessment and knowledge management for aerodynamic behaviour modelling and design: IEA experience", Editor(s): John D. Sørensen, Jens N. Sørensen, In Woodhead Publishing Series in Energy, Wind Energy Systems, Woodhead Publishing, 2011, Pages 350-365, ISBN 9781845695804, <https://doi.org/10.1533/9780857090638.3.350>.
- [9]. Yağmur Kırççek, Ahmet Aktaş, "Design and implementation of a new adaptive energy management algorithm capable of active and reactive power control for grid-connected PV systems", Ain Shams Engineering Journal, Volume 14, Issue 12, 2023, 102220, ISSN 2090-4479, <https://doi.org/10.1016/j.asej.2023.102220>.
- [10]. Zhengchao Wang, A.T.D Perera, "Robust optimization of power grid with distributed generation and improved reliability", Energy Procedia, Volume 159, 2019, Pages 400-405, ISSN 1876-6102, <https://doi.org/10.1016/j.egypro.2018.12.069>.

ENERGIYA TA'MINOT TIZIMLARIDA TALAB ETILADIGAN ENERGIYA
RESURLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNI TATQIQ ETISH PRINSIPLARI

B.N. Erkinov¹, M.N. Sobirov²

¹O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Energetika muammolari instituti,

²Farg'ona politexnika instituti

bakhodir.ren@gmail.com

(Qabul qilindi 10.02.2025 y.)

Annotatsiya. Ushbu maqola zamonaviy energiya ta'minoti tizimlarida energiya resurslaridan oqilona foydalanish muammosiga bag'ishlangan. Maqolada energiya iste'molini optimallashtirish, mavjud resurslardan samarali foydalanishni oshirish va atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishga qaratilgan tadqiqotning asosiy prinsiplari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda asosiy e'tibor, energetik tizimlarning energiya sarfini kamaytirish, energiya resurslarini tejash va barqaror ta'minotni ta'minlashga qaratilgan strategiyalarga qaratilgan. Samarali energiya boshqaruvi uchun muhim tamoyillar sifatida, energiya tizimlarida integratsiyalashgan texnologiyalarni qo'llash, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, energiya saqlash texnologiyalarining joriy etilishi va energiya samaradorligini oshirish masalalari keltiriladi.

Kalit so'zlar: energiya resurslari, energiya ta'minoti tizimlari, samarali foydalanish, optimallashtirish, energiya tejash, ekologik barqarorlik

Аннотация. В данной статье рассматривается проблема рационального использования энергетических ресурсов в современных системах энергоснабжения. Рассматриваются основные принципы исследования, направленного на оптимизацию энергопотребления, повышение эффективности использования существующих ресурсов и снижение негативного воздействия на окружающую среду. Особое внимание уделяется стратегиям, направленным на сокращение энергозатрат в энергетических системах, экономии энергетических ресурсов и обеспечение устойчивого снабжения. Ключевыми принципами эффективного управления энергией являются: - внедрение интегрированных технологий в энергетические системы; - использование возобновляемых источников энергии; - применение технологий накопления энергии; - повышение энергоэффективности. Результаты данного исследования способствуют оптимизации работы сетей и повышению энергоэффективности в будущем.

Ключевые слова: энергетические ресурсы, системы энергоснабжения, эффективное использование, оптимизация, энергосбережение, экологическая устойчивость.

Abstract. This article examines the opportunities for modernizing energy systems in industrial enterprises through the use of alternative and renewable energy sources to achieve sustainable development. It emphasizes the importance of efficient utilization of energy resources and minimizing environmental issues, discussing the applicability, technical aspects, economic efficiency, and environmental impact of implementing such sources in industrial settings. The study explores the potential of integrating solar, wind, biomass, geothermal, and other renewable energy sources into the energy systems of industrial enterprises. Notably, it has been determined that by adopting renewable energy sources, enterprises can reduce their energy consumption, decrease their environmental footprint, and enhance long-term economic efficiency.


Keywords: energy resources, energy supply systems, efficient use, optimization, energy saving, environmental sustainability.

Kirish. Respublikamizdagi sanoat korxonalarining energiya ta'minoti tizimlari elektr, gaz, ko'mir va neft kabi energiya resurslarini ta'minlashga qaratilgan maxsus sxemalardan iborat. Bunda energiya ta'minoti sxemasining tuzilishi asosan an'anaviy energiya manbalaridan foydalanish usullariga asoslanadi. Sanoat korxonalari uchun samarali va tejamkor energiya ta'minoti yaratishda an'anaviy energiya manbalaridan foydalanishni kamaytirish tavsiya qilinadi va buning o'rniga qayta tiklanuvchi manbalarga asoslangan ta'minot tizimi taklif etiladi. Sanoat korxonalari binolarini elektr va issiqlik energiya ta'minotida quyosh fotoelektrik stansiyalari va geotermal energiya manbalari qo'shimcha resurslar sifatida ishlatilishi mumkin.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining qo'llanilishi bilan bog'liq energiya ta'minoti sxemasida an'anaviy va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini samarali ishlatishni ta'minlaydigan

tizim sifatida ko‘rib chiqilishi kerak. Energiya resurslarini oqilona tanlashning asosiy tamoyili tizimli metodologiya hisoblanadi. Tizimli metodologiyada murakkab ob’ektni tizim sifatida o‘rganish va tizimli tadqiqotlarni amalga oshirish o‘rtasidagi farqni aniqlash muhimdir. Tizimni o‘rganishda uning tuzilishi, elementlar o‘rtasidagi bog‘lanishlar va o‘zaro aloqalarga alohida e‘tibor qaratiladi. Tizimli tadqiqot esa ob’ektning ishlash prinsiplari va uning rivojlanish shartlarini aniqlashga yordam beradi. Bu jarayonda ob’ektdagi ichki aloqalar bilan birga, uning kengroq tizimdagi boshqa osttizimlar bilan tashqi aloqalari ham inobatga olinishi zarur [1].

Birinchi holatda ichki aloqalar ko‘rib chiqiladi va tizim an’anaviy tizimlar nazariyasiga asoslanib o‘rganiladi. Ikkinchi holatda esa har bir ob’ekt, o‘ziga xos bir tuzilma sifatida, boshqa tizimlar bilan o‘zaro aloqasiz mavjud bo‘lishi mumkin emas. Shunday qilib, barcha tizimlar bir-biri bilan bog‘liq holda kompleks tarzda o‘rganilishi kerak.




1-rasm. Sanoat korxonalarini energiya bilan ta'minlash sxemasi.

Texnologik ehtiyojlar uchun kerakli energiyani an’anaviy va qayta tiklanuvchi manbalardan olish mumkin. Shuning uchun energiya ta'minoti tizimida ko‘rib chiqilayotgan manbalardan kerakli energiyani aniqlash uchun model yaratish zarur. Shu bilan birga, qayta tiklanuvchi manbalarni energiya ta'minoti tizimida ishlatish shartlarini aniqlash muhimdir [1, 2].

Tadqiqotning ikkinchi darajasida, sanoat korxonalarini energiya bilan ta'minlashda quyosh va geotermal energiyasidan foydalanishni baholash usullari ishlab chiqiladi. Bunda qayta tiklanuvchi energiyani kelishi va iste'mol qilish rejimlarini moslashtirish zarur (1-rasm). Shu bilan birga, moslashtirish shartlarini baholash uchun sanoat korxonalarini energiya bilan ta'minlash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan an’anaviy energiya resurslarini almashtirish bo'yicha maxsus ko'rsatkichlar ishlab chiqilishi kerak [2-4].

Ushbu bosqichda iste'molchilarni energiya bilan ta'minlash va almashtiriladigan energiyani ulushi o‘rtasidagi bog‘liqlikni quyosh va geotermal energiya tizimlarining asosiy parametrlariga hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining energetik xususiyatlariga bog‘liq holda aniqlash zarur (2-rasm).



2-rasm. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida sanoat korxonalari binolarini energiya bilan ta'minlash sxemasi.

Tadqiqotning uchinchi bosqichida qayta tiklanuvchi manbalardan energiya ta'minoti tizimining o'stizimi o'rganiladi va uning energiya ta'minoti tizimida qanday ishlashini ifodalovchi modellari ishlab chiqiladi. Bunda, mos modellarga erishish uchun o'zaro bog'liq vazifalarni bosqichma-bosqich hal qilish kerak. Uchinchi darajaning ikkinchi bosqichi qayta tiklanuvchi energiya manbalarining energetik xususiyatlariga asoslangan quyosh va geotermal energiya tizimlarining ishlash modelini ifodalaydi. Optimallashtirilgan parametrlar bilan quyosh va geotermal energiya tizimlari atrof-muhitda mavjud bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya resurslarini samarali ishlatishga imkon beradi [1].

To'rtinchi darajada esa, energiya ta'minoti tizimida an'anaviy va qayta tiklanuvchi energiya resurslarini ratsional tanlash shartlari o'rganiladi. An'anaviy energiya ta'minoti tizimida qo'shimcha manbalar uning samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladi. Iste'mol qilinadigan energiya resurslarini samarali tanlashning mezonini, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalangan holda energiya ta'minoti tizimidan olinadigan energiya uchun xarajatlarga ega bo'ladi [1].

Shunday qilib, energiya ta'minoti tizimida an'anaviy va qayta tiklanuvchi energiya resurslarini oqilona birgalikda ishlashini ta'minlash metodologiyasi turli darajadagi o'zaro bog'liq modellarni ishlab chiqish orqali ilmiy masalalarni hal qilishni talab qiladi.

Sanoat korxonalarini samarali energiya bilan ta'minlash uchun an'anaviy va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini birlashtirgan kompleks energiya ta'minoti tizimi ishlab chiqilishi kerak. Tizimli yondashuv asosida energiya ta'minoti tizimida an'anaviy va qayta tiklanuvchi energiya resurslarini samarali tanlash imkoniyati mavjud [1-2].

Xulosa. Zamonaviy dunyoda tobora o'sib borayotgan energiya talablarini qondirish va atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish uchun energiya resurslarini oqilona ishlatish muhim. Maqolada keltirilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, energiya iste'molini optimallashtirish, mavjud resurslardan samarali foydalanishni oshirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash orqali energiya ta'minoti tizimlarini yanada samarali va barqaror qilish mumkin.

Adabiyotlar

- [1]. Шерьязов С.К. Методология рационального сочетания традиционных и возобновляемых энергоресурсов в системе энергоснабжения сельскохозяйственных потребителей // Диссертация на соискание ученой степени доктора технических наук. Челябинск, 2011. -395 стр.
- [2]. Шароварова Е.П. Солнечно-геотермальное энергоснабжение зданий с энергоэффективными фасадными конструкциями // диссертация на соискание ученой степени кандидата технических наук. Екатеринбург, 2021. -170 стр.
- [3]. Bloess A, Schill W-P, Zerrahn A. Power-to-heat for renewable energy integration: A review of technologies, modeling approaches, and flexibility potentials. Appl Energy 2018; 212:1611–26.
- [4]. Соловьев А. А. Становление современной возобновляемой энергетики и ее роль в развитии строительной индустрии // Вестн. МГСУ. — 2016. — № 6. — С. 5–6.
- [5]. Selikhov Y.A., Kotsarenko V.A., Kapustenko P.O., Klemeš J.J. The performance of plastic solar collector as part of two contours solar unit, Chemical Engineering Transactions, 2018, vol. 70, pp. 2053-2058.
- [6]. Kuziyev O.A.U. Analysis of energy parameters of steam-compressor heat pumps, Current scientific research in the modern world, 2021, no. 3-1 (71), pp. 6-8.
- [7]. Zvereva E.R., Farakhov T.M., Iskhakov A.R. Reduction of harmful emissions of thermal power plants. Vestnik Kazanskogo gosudarstvennogo energeticheskogo universiteta – Ambassador of Kazan state energy university, 2011, no. 1 (8), pp. 39-44 (In Russian).
- [8]. Kadtsyn I.I., Starikov A.P., Vedruchenko V.R. Study of the thermophysical characteristics of the soil of the city of omsk for the design of geothermal probes. Izvestiia Transsiba – Journal of Transsib Railway Studies, 2020, no. 3 (43), pp. 128-139 (In Russian).
- [9]. Lertsatitthanakorn C., Jamradloedluk J., Rungsiyopas M., Therdyothin A., Soponronnarit S. Performance analysis of a thermoelectric solar collector integrated with a heat pump, Journal of Electronic Materials, 2013., vol. 42, no. 7, pp. 2320-2325.
- [10]. Ovchinnikova S., Kukinova G., Borovkov A., Markina N. Environmental substantiation for the use of alternative energy sources, 22nd international scientific conference on energy management of municipal facilities and sustainable energy technologies, Voronezh, 2020, vol. 244, pp. 58-60.

**NASHR QILINGAN TADQIQOTLARDA SHAMOL GENERATORINING
SAMARADORLIGI VA ELEKTR ENERGIYASINI ISHLAB CHIQRISHNI KO'RIB
CHIQISH**

S.F. Ergashev, A.A. Rahimov

*Farg'ona politexnika instituti,
(Qabul qilindi 22.02.2025 y.)*

Annotasiya: Shamol energiyasi barqaror energiya tizimiga global o'tishning ajralmas qismiga aylandi. Ushbu rivojlanish shamol generatorlarining samaradorligi va quvvatiga asoslangan bo'lib, ular shamolga asoslangan elektr energiyasini ishlab chiqarishning hayotiyiligi va kengayishiga bevosita ta'sir qiladi. Ushbu sohada taraqqiyotni yaxshiroq tushunish uchun biz 2014 yildan 2024 yilgacha nashr etilgan tadqiqotlarni muntazam ravishda har tomonlama tahlil qilamiz, bunda kalit so'zlarning maqsadli birikmasi (shamol, generator, samaradorlik, quvvat va energiya sarfi) dolzarbligi va o'ziga xosligini ta'minlash uchun. Sharh shuningdek, nashrlarning chastotasi, geografik taqsimoti va shamol energetikasi texnologiyasini rivojlantirishga yordam beradigan etakchi ilmiy-tadqiqot institutlarining tendentsiyalarini ko'rib chiqadi. Shuningdek, u eng ko'p ko'rib chiqilgan mavzularni va ushbu sohaga qiziqish uyg'otadigan yangi sohalarni belgilaydi.

Аннотация: Энергия ветра стала неотъемлемой частью глобального перехода к устойчивой энергетической системе. В основе этого развития лежат эффективность и мощность ветряных генераторов, которые напрямую влияют на жизнеспособность и расширение производства электроэнергии на основе ветра. Чтобы лучше понять прогресс в этой области, мы систематически проводим всесторонний анализ исследований, опубликованных с 2014 по 2024 год, используя целевую комбинацию ключевых слов (ветер, генератор, эффективность, мощность и энергозатраты) для обеспечения актуальности и конкретности. В обзоре также рассматриваются тенденции в частоте публикаций, географическом распределении и ведущих научно-

исследовательских институтах, способствующих развитию технологий ветроэнергетики. В нем также определяются наиболее часто затрагиваемые темы и новые области, представляющие интерес в этой области.

Abstract: *Wind energy has become an integral part of the global transition to sustainable power system. At the heart of this development is the efficiency and power of wind generators, which directly affects the viability and expansion of wind-based electricity generation. To better understand the advancement in this field a comprehensive analysis of research published from 2014 to 2024 are systematically examined using targeted keyword combination (wind, generator, efficiency, power, and energy) to ensure relevance and specificity. The review also examines trends in the frequency of publications, geographical distribution and leading research institutes leading to the development of wind energy technologies. It also identifies the most frequently addressed topics and emerging areas of interest in the field.*

Qayta tiklanadigan energetikaning dolzarbligi, ayniqsa sanoat mamlakatlarida, foydalanishni kamaytirishi taxmin qilinmoqda Fotoalbom yoqilg'i energiya aralashmasida, natijada uglerod emissiyasi kamayadi. Fotoalbom yoqilg'idan foydalanish chiqindilarni ishlab chiqaradi, qayta tiklanadigan energiya manbalari esa ko'pincha aniq nol uglerod iziga ega deb hisoblanadi. Shamol energiyasi-bu elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan qayta tiklanadigan energiya manbalarining keng tarqalgan shakli. Shamol energiyasi to'g'ridan-to'g'ri chiqindilarni ishlab chiqarmaydi va shu bilan mamlakatlarga chiqindilarni kamaytirish maqsadlariga erishishda va iqlim o'zgarishini hal qilishda yordam beradi [1]. Shamol energetikasi sanoati aerodinamika muhandisligi, mexanik komponentlar, elektr energiyasini ishlab chiqarish texnologiyalari va quvvatni boshqarish tizimini o'z ichiga olgan bir qancha muhim sohalarida sezilarli yutuqlarga erishdi. Ushbu soha quvvatni elektron konvertatsiya qilish texnologiyalari, elektr tarmoqlari bilan integratsiya va boshqaruv tizimining metodologiyasi kabi muhim jihatlarni o'z ichiga oladi. Shamol energiyasini konvertatsiya qilish tizimida elektr generatorlari va elektr elektron konvertorlari operatsion samaradorlik va ishlashni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi [2].

2013 yildan 2024 yilgacha nashr etilgan tadqiqotlar sharhi, scopus ma'lumotlar bazasidan olingan manba, shamol energiyasining turli jihatlari, shu jumladan tizimlarni loyihalash va samaradorligiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarning jadal rivojlanishini ko'rsatadi [3], [4].

Ushbu maqolada nashr etilgan tendentsiyalar, muhim hissa qo'shadigan davlatlar, hujjat turlari, mavzu yo'nalishlari, muhim tashkilotlar va taniqli mualliflarga bag'ishlangan shamol energetikasi bo'yicha nashr etilgan ilmiy ishlarning batafsil ko'rib chiqilishi keltirilgan.

Qo'llanish doirasini aniqlash: Ko'rib chiqish doirasi shamol elektr stantsiyalari generatorining samaradorligini oshirishni o'rganuvchi tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratish uchun tashkil etilgan. Tegishli tadqiqotni tanlashda quyidagi parametrlar yo'naltirildi: Kalit so'zlar: Qidiruv "modellashtirish", "shamol", "generator", "samaradorlik" va "quvvat" kalit so'zlari yordamida turli kombinatsiyalarda, natijalarni aniqlashtirish uchun mantiqiy operatorlardan foydalangan holda olib borildi. Nashr qilish muddati: Ko'rib chiqilgan maqolalar 2013 va 2024 yillar oralig'ida chop etilgan. Tadqiqot yo'nalishi: Jeneratör, energiya samaradorligi, quvvat va shamol turbinasini optimallashtirishga qaratilgan tadqiqotlar kiritilgan. Ma'lumotlarni to'plash: Scopus ma'lumotlar bazasi belgilangan kalit so'zlar yordamida so'ralgan. Qidiruv natijalarini filtrlash uchun quyidagi mezonlardan foydalanilgan: Jurnal maqolalari va konferentsiya maqolalari: Faqat Scopus tomonidan indekslangan yuqori sifatli jurnallarda chop etilgan ekspertlar tomonidan ko'rib chiqilgan maqolalar va konferentsiya materiallari ko'rib chiqildi. Mavzu sohasi: Qidiruv qayta tiklanadigan energiya, elektrotexnika sohalaridagi tadqiqotlarga qaratilgan. Qo'shilish mezonlari: Shamol generatorlari samaradorligini tahlil qilish, shamol turbinalarining quvvat chiqishi yoki energiya ko'rsatkichlari, shamol energiyasini konversiyalash tizimlarini (WECS) loyihalash, modellashtirish yoki eksperimental tekshirishga qaratilgan tadqiqotlar. Ma'lumotlarni tekshirish va tashkil etish: Ko'rib chiqishga kiritilgan tadqiqotlarning sifati va dolzarbligini ta'minlash uchun quyidagi qadamlar qo'yildi: Dastlabki skrining: Maqolalar sarlavhalari va tezislari shamol elektr stantsiyalari generatorining samaradorligini oshirish mavzusiga mosligini baholash uchun dastlab


ko'rib chiqildi. To'liq matnli sharh: Dastlabki skринingdan o'tgan maqolalar modellashtirish texnikasi, tizim dizayni, energiya tahlili va ishlash ko'rsatkichlari bilan bog'liq batafsil ma'lumotlarni olish uchun to'liq matnli tekshiruvdan o'tkazildi. Cheklash mezonlari: Shamol elektr stantsiyalari generatorining samaradorligini oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan tadqiqotlar, shuningdek, ingliz tilidan boshqa tillarda nashr etilgan tadqiqotlar ham chiqarib tashlandi. Ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish: Tanlangan tadqiqotlar sohadagi tendentsiyalarni, kamchiliklarni va asosiy yutuqlarni aniqlash uchun sifat va miqdoriy yondashuvlar yordamida tahlil qilindi. Miqdoriy tahlil: Tanlangan davrdagi nashrlar soni (2014–2024) shamol energetikasi generatori samaradorligini oshirish bo'yicha tadqiqot qiziqishlarining o'sish naqshlarini aniqlash uchun kuzatildi. Tematik tahlil: Tadqiqot maqolalari samaradorlikni oshirish texnikasi, quvvat chiqishi va ishlash kabi umumiy mavzular asosida tasniflangan. Bu tadqiqotning asosiy yo'nalishlari va evolyutsiyasini tushunish imkonini berdi. Ishlash ko'rsatkichlari: Shuningdek, turli xil atrof-muhit sharoitlari va ish stsenariylarida shamol elektr stantsiyasining samaradorlik ko'rsatkichlari, quvvat samaradorligi ko'rsatkichlari va sifat va barqarorlik ko'rsatkichlari kabi asosiy ishlash ko'rsatkichlarini baholash uchun tadqiqotlar o'tkazildi. Ma'lumotlarni sintez qilish va taqdim etish: topilmalarni samarali taqdim etish, ma'lumotlar sintez qilindi va vizualizatsiya qilindi: Grafik tasvirlash: vaqt o'tishi bilan nashrlar sonining tendentsiyalari, tadqiqot mavzularining taqsimlanishi va turli modellashtirish yondashuvlarining samaradorligi grafik va diagrammalar yordamida tasvirlangan. Texnikalarni taqqoslash: Shamol elektr stantsiyalari generatori samaradorligining kuchli va zaif tomonlarini baholash uchun qiyosiy tahlil o'tkazildi.

3 natijalar va munozaralar:

Scopus ma'lumotlar bazasida "shamol", "Generator", "samaradorlik" va "quvvat" kalit so'zlaridan foydalangan holda ushbu sohadagi tadqiqotlar ko'lamini tahlil qilish uchun qidiruv ishlari olib borildi. 1-rasmda turli mamlakatlarning hissalarini keltirilgan bo'lib, ushbu sohadagi global qiziqish va faollikni namoyish etadi.

1-rasmdagi vizual tasvir keng qamrovli vizual tahlil 2014 yildan 2024 yilgacha shamol elektr stantsiyalari generatorlarining samaradorligini oshirish mavzusida keltirilgan. Yuqoridagi grafikda energiya samaradorligi va shamol energiyasi tizimlarini rivojlantirish sohasida global miqyosda olib borilgan ilmiy nashrlar va tadqiqot ishlari soni ko'rsatilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, Hindiston 698 ilmiy nashrlari bilan, 638-2014 davrida 2024 nashrlari bilan Xitoy tomonidan olib boriladi. Keyingi o'rinda qo'shma Shtatlar 270 ta nashr bilan, so'ngra Jazoir va Eron har biri 188 ta nashr bilan. Boshqa mamlakatlarda ilmiy nashrlar soni unchalik ko'p bo'lmasa-da, energiya samaradorligi va shamol energiyasi texnologiyalari bilan bog'liq tadqiqotlar hali ham olib borilmoqda. Xususan, Misr, Marokash, Buyuk Britaniya, Saudiya Arabistoni va Turkiya kabi mamlakatlarning har biri ushbu sohada 100 dan ortiq ilmiy nashrlar chiqargan.


Shamol generatorlari bo'yicha maqolalar soni




Rasm 1. 2014 yildan 2024 yilgacha ushbu nashrlarda har bir mamlakatning foiz ulushi bilan birga nashrlarning umumiy soni.

Ushbu 2-rasmda shamol energiyasi yoki qayta tiklanadigan energiya yoki energiya ma'lum bir sohasiga e'tibor qaratib, 2014 yildan 2024 yilgacha tadqiqot nashrlarining yillik taqsimlanishi ko'rsatilgan. Jadvalda yillar davomida nashr etilgan hujjatlar sonining aniq o'sish tendentsiyasi ko'rsatilgan bo'lib, bu sohaga qiziqish va

tadqiqot faoliyati ortib borayotganidan dalolat beradi. Umumiy tendentsiya so'nggi uch yil ichida (2022-2024) sezilarli tezlashuv bilan o'n yil ichida tadqiqot natijalarining izchil o'sishini ko'rsatmoqda. 2023 va 2024 yillar 456 va 461 hujjatlar bilan eng yuqori nashrlar sonini belgilaydi va tadqiqot faoliyatidagi cho'qqini ta'kidlaydi.



Rasm 2. 2014 yildan 2024 yilgacha bo'lgan yillardagi nashrlarning umumiy soni.




Rasm 3. Manba bo'yicha yiliga hujjatlar (2014-2024).

3-rasmda 2014 yildan 2024 yilgacha tadqiqot nashrlarining to'rtta taniqli manbalar bo'yicha yillik taqsimlanishi keltirilgan: energiya, energiya, qayta tiklanadigan energiya va Appliod energiyasi. Grafikda ushbu manbalar orasida nashr etish tendentsiyalaridagi o'zgarishlar aks ettirilgan bo'lib, ularning shamol energiyasi tizimlari va shamol generatorlari sohasidagi nisbiy hissalari aks ettirilgan.

3-rasmda nashrlarning energetika va elektrotexnika sohalarida bir qator jurnallar va konferentsiya materiallari bo'yicha taqsimlanishi tasvirlangan. Energies etakchi nashr sifatida ajralib turadi, 110 ta maqola, so'ngra energiya (82 ta nashr) va qayta tiklanadigan energiya (66 ta nashr), bu tadqiqotlarni tarqatish uchun ushbu platformalarga katta e'tibor berganligini ko'rsatmoqda. Amaliy energiya va IEEE Access shuningdek, mos ravishda 58 va 53 nashrlar bilan katta hissa qo'shmoqda. Qo'shimcha e'tiborga loyiq manbalarga elektrotexnika bo'yicha ma'ruza yozuvlari (38), AIP konferentsiya materiallari (35) va xalqaro elektr energiyasi va energiya tizimlari jurnali (32) kiradi. Eng past nashr soni barqarorlik (Shveysariya) va E3s veb-konferentsiyalarida, 31 va 30 nashrlari bilan kuzatiladi. Umuman olganda, grafik energiyani ushbu sohada ilmiy ishlab chiqarish uchun asosiy joy sifatida ta'kidlaydi va uning energiya bilan bog'liq tadqiqotlarni tarqatishdagi Markaziy rolini aks ettiradi.

4-rasmda 2014 yildan 2024 yilgacha shamol elektr stantsiyalari generatorlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan nashrlarning hujjat turi va mavzu sohasi bo'yicha taqsimlanishi ko'rsatilgan. Chapdagi jadval shuni ko'rsatadiki, ushbu nashrlarning aksariyati tadqiqot maqolalari bo'lib, jami 54,8% ni tashkil qiladi. Buning ortidan konferentsiya ishlari 38,6% da. Maqolalar va konferentsiya sharhlarini ko'rib chiqish kichikroq




Rasm 4. Hujjatlar turi va mavzusi bo'yicha (2014-2024).

nisbatlarga to'g'ri keladi—mos ravishda 2,3% va 1,6%. Ushbu tarqatish tadqiqot natijalarini tarqatishda ekspertlar tomonidan ko'rib chiqilgan jurnal maqolalarining ustun rolini ta'kidlaydi, shu bilan birga konferentsiyalarning dastlabki natijalar va davom etayotgan tekshiruvlarni taqdim etish platformasi sifatida ahamiyatini ta'kidlaydi.


O'ngdagi jadval nashrlarni mavzular bo'yicha tasniflaydi, bu sohaning multidisipliner xususiyatini namoyish etadi. Muhandislik 31.4% da eng katta ulushni tashkil etadi, so'ngra 24.4% da energiya bilan bog'liq tadqiqotlar va 11.7% da kompyuter fanlari. Matematika ham muhim rol o'ynaydi, bu nashrlarning 10 foizini tashkil etadi, bu shamol energiyasi tizimlarini optimallashtirishda analitik va hisoblash yondashuvlarining dolzarbligini aks ettiradi. Qo'shimcha hissalar boshqa turli sohalardan, shu jumladan turli xil fanlardan (5%), fizika va astronomiya (4,1%) va yer va Materialshunoslik (3,8%). Kimyo muhandisligi, ijtimoiy fanlar va boshqa sohalarda kichikroq, ammo sezilarli hissalar kuzatilmoqda, bu energiya tejaydigan texnologiyalarni ishlab chiqishda turli xil ilmiy aloqalarni ko'rsatmoqda.

Ushbu tahlil shamol energiyasi samaradorligi bo'yicha tadqiqotlarning fanlararo ko'lamini ta'kidlaydi, muhandislik, energetika, matematika va informatika kabi asosiy sohalarni qamrab oladi, shu bilan birga ko'plab ilmiy va texnik fanlarning tushunchalariga asoslanadi.



Rasm 5. Muassasa bo'yicha hujjatlar soni (2014-2024).

va boshqalar bor. Ushbu tarqatish qishloq xo'jaligi va qayta tiklanadigan energiya tadqiqotlariga ixtisoslashgan universitetlarning muhim hissalarini ta'kidlaydi.



Rasm 6. Mualliflar tomonidan hujjatlar soni (2014-2024).

landshaftini har tomonlama tahlil qiladi. Unda nashr tendentsiyalari, geografik va institutsional hissalar, hujjat turlari, mavzu sohalari va asosiy mualliflar ko'rib chiqiladi. Topilmalar so'nggi yillarda nashrlarning sezilarli darajada ko'payishi bilan global energiya muammolarini hal qilishda shamol energetikasi texnologiyalarining muhim rolini ta'kidlab, tadqiqotga bo'lgan qiziqishning izchil o'sishini ko'rsatmoqda.

Hindiston qayta tiklanadigan energetikada faol ishtirokini va shamol turbinalari va tegishli tizimlarning samaradorligini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlarini aks ettiruvchi tadqiqot natijalari bo'yicha

5-rasm shuni ko'rsatadiki, Xitoy Xalq Respublikasi ta'lim vazirligi ushbu sohadagi tadqiqot ishlarini eng ko'p nashrlar bilan olib boradi, so'ngra Shimoliy Xitoy elektr energiyasi universiteti. Rabatdagi Muhammad universiteti, Tsinghua universiteti va Xitoy Fanlar Akademiyasi kabi muassasalar ham katta hissa qo'shmoqda. Boshqa yordamchilar orasida Asvan universiteti, Huazhong fan va texnologiya universiteti, Sidi Mohamed Ben Abdellah universiteti

6-rasmda Bossoufi, B., Kolak, I. va Vang, Z. L shamol energetikasi sohasidagi eng faol mualliflardan biri bo'lib, ko'plab nashrlar mavjud. Ben bou henni, H., Bounadja, E., Bizon, N., Kamel, S., Youssef, A. R., Abbou, A. va Abdelaziz, A. Y. ham asosiy hissa sifatida paydo. Ushbu tadqiqotchilar shamol turbinalari va shamol energiyasi tizimlarini ilmiy tushunishni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

4 Xulosa

Ushbu sharh 2014 yildan 2024 yilgacha shamol elektr stantsiyalari generatorlarining samaradorligini oshirish bo'yicha tadqiqot

etakchi ishtirokchi sifatida paydo bo'ladi. Kabi muassasalar tomonidan ham katta hissa qo'shildi Xitoy Xalq Respublikasi ta'lim vazirligi va Shimoliy Xitoy elektr energetikasi universiteti. Ushbu sohadagi taniqli tadqiqotchilar orasida shamol energiyasi texnologiyasida sezilarli yutuqlarga erishgan B. Bossoufi, I. Kolak va Z. L. Vang bor.

Hujjat turlari va mavzu yo'nalishlari tahlili shuni ko'rsatadiki, nashrlarning aksariyati asosan energiya, qayta tiklanadigan energiya, shamol energetikasi va muhandislik bilan bog'liq fanlarga bag'ishlangan ilmiy maqolalardir. Rivojlanayotgan tendentsiyalar, xususan shamol turbinolari va shamol energiyasi tizimlarini kengroq energiya infratuzilmalariga qo'shishda, maydonning dinamik va rivojlanayotgan tabiatini ta'kidlaydi.

Ushbu topilmalarni sintez qilish orqali sharh nafaqat etakchi mamlakatlar, muassasalar va tadqiqotchilarning hissalarini ta'kidlaydi, balki kelajakdagi tadqiqotlar uchun potentsial yo'nalishlarni ham aniqlaydi. Ushbu tushunchalar shamol energiyasi tizimlarini doimiy ravishda rivojlantirish va joriy etishni qo'llab-quvvatlashga, energiya samaradorligi va barqarorligidagi global maqsadlarga hissa qo'shishga qaratilgan.

Adabiyotlar

- [1]. Li P, Xiong L, Wu F, Ma M, Wang J. Sliding mode controller based on feedback linearization for damping of sub-synchronous control interaction in DFIG-based wind power plants. *Int J Electr Power Energy Syst* 2019;107:239–50. <https://doi.org/10.1016/j.ijepes.2018.11.020>
- [2]. Evangelista CA, Valenciaga F, Puleston P. Multivariable 2-sliding mode control for a wind energy system based on a double fed induction generator. *Int J Hydrog Energy* 2012;37(13):10070–5. <https://doi.org/10.1016/j.ijhydene.2011.12.080>
- [3]. International Conference on Energy Efficient Technologies for Sustainability, ICEETS 2014; Tamil Nadu; India; 7 April 2014 through 9 April 2014; Code 107488
- [4]. *International Conference on Electronic Engineering and Information Science (ICEEIS 2014), Advanced Materials Research*, vol. 981, 2014. [Online]. Available: <https://www.scopus.com/inward/record.uri?eid=2-s2.0-84904988094&partnerID=40&md5=ee57c62b3147d8951e095b4dc035709b>
- [5]. S. Senthil and K. Ravi, “A new compilation of renewable energy sources using multilevel inverter with space vector modulation techniques,” presented at the IEEE Int. Conf. Green Computing, Communication and Electrical Engineering (ICGCCEE 2014), 2014. doi: [10.1109/ICGCCEE.2014.6922318](https://doi.org/10.1109/ICGCCEE.2014.6922318)
- [6]. A. Mohanty, M. Viswavandya, P. K. Ray, and S. Patra, “Stability analysis and reactive power compensation issue in a microgrid with a DFIG based WECS,” *Int. J. Electr. Power Energy Syst.*, vol. 62, pp. 753–762, 2014. doi: [10.1016/j.ijepes.2014.05.033](https://doi.org/10.1016/j.ijepes.2014.05.033)
- [7]. A. S. Stalin, M. Shiva Balan, R. Revanth, A. Velbharathi, D. Durai Raj “Design and implementation of accurate reactive power compensator for renewable grid connected transmission system,” presented at the 2015 International Conference on Industrial Instrumentation and Control, ICIC 2015, 2015, pp. 1392–1397. doi: [10.1109/IICT.2015.7150966](https://doi.org/10.1109/IICT.2015.7150966)
- [8]. J. Liu, H. Meng, Y. Hu, Z. Lin, W. Wang. “A novel MPPT method for enhancing energy conversion efficiency taking power smoothing into account” *Energy Conversion and Management*, vol. 101, pp. 738–748, 2015. doi: [10.1016/j.enconman.2015.06.005](https://doi.org/10.1016/j.enconman.2015.06.005)
- [9]. S. N. Patil, R. C. Prasad, “Design and development of MPPT algorithm for high efficient DC-DC converter for wind energy system connected to grid,” presented at the IEEE International Conference on Computer Communication and Control, IC4 2015, 2015. doi: [10.1109/IC4.2015.7375634](https://doi.org/10.1109/IC4.2015.7375634).

HAVODAGI ZARARLI GAZLAR KONSENTRATSIYASINI ANIQLASHNING AVTOMATLASHTIRILGAN TIZIMI

O.M. Mamatov, M15-24 magistranti, M.A. Adxamova

*Farg'ona politehnika instituti,
olmosbek_.85@mail.ru
muhlisaadxamova94@gmail.com
(Qabul qilindi 22.02.2025 y.)*

Annotatsiya. Mazkur maqolada havodagi zararli gazlarning atrof muhitga ta'siri va insonlarni zararli gazlardan zaharlanish oqibatlarini oldini olish tizimini avtomatlashtirishning zamonaviy usullari, sun'iy intellekt va IoT texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilindi. Hozirgi kunda ekologik monitoringning dolzarbligi ortib bormoqda, shuning uchun aqlli texnologiyalar va sensorli tizimlar ushbu

jarayonda muhim rol o'ynamoqda. Tadqiqotda havo sifatini kuzatish uchun intellektual datchik tizimlari, ma'lumotlarni tahlil qilish algoritmlari va barqaror rivojlanish uchun raqamli texnologiya tizimlarining tuzilishi, ishlash prinsiplari va samaradorligi ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar: zararli gazlar, havo iflaslanishi, inson salomatligi, ekologik monitoring, intellektual datchik, sun'iy intellekt, IoT texnologiyalari

Аннотация. В данной статье проанализировано влияние вредных газов на окружающую среду и возможности использования искусственного интеллекта и технологий IoT в современных методах автоматизации системы предотвращения последствий отравления людей вредными газами. Сегодня важность экологического мониторинга возрастает, поэтому важную роль в этом процессе играют интеллектуальные технологии и сенсорные системы. В исследовании были рассмотрены структура, принципы работы и эффективность интеллектуальных сенсорных систем мониторинга качества воздуха, алгоритмы анализа данных и системы цифровых технологий устойчивого развития.


Ключевые слова: вредные газы, загрязнение воздуха, здоровье человека, мониторинг окружающей среды, интеллектуальный датчик, искусственный интеллект, технологии IoT.

Annotation. This article analyzes the impact of harmful gases on the environment and the possibilities of using artificial intelligence and IoT technologies in modern methods of automating the system for preventing the consequences of poisoning people with harmful gases. Today, the importance of environmental monitoring is increasing, so intelligent technologies and sensor systems play an important role in this process. The study examined the structure, operating principles and effectiveness of smart air quality sensor systems, data analysis algorithms and digital sustainability technology systems.

Keywords: harmful gases, air pollution, human health, environmental monitoring, smart sensor, artificial intelligence, IoT technologies.

Hozirgi kunda ekologik monitoringning dolzarbligi ortib bormoqda, shuning uchun aqlli texnologiyalar va sensorli tizimlar ushbu jarayonda muhim rol o'ynamoqda. Atmosfera havosining sifati inson salomatligi va atrof-muhit barqarorligi uchun muhim ahamiyatga ega. Urbanizatsiya, sanoat rivojlanishi va avtomobillar sonining ortishi tufayli zararli gazlarning konsentratsiyasi oshmoqda. SHu bilan birga organik yoqilg'ilardan shahsiy xonadonlarni isitishda ajralib chiquvi zararli gazlar insonlar sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatib va xattoki insonlar o'limiga olib kelmoqda. Shu sababli, real vaqtda havoning tarkibini kuzatib borish va tezkor choralar ko'rish uchun avtomatlashtirilgan monitoring tizimlarini ishlab chiqish muhim vazifa hisoblanadi. Ushbu muammolar nafaqat ma'lum bir sektor doirasida balki butun bir davlat miqyosida dolzarb masala sifatida o'rganib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2025 yilni "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot" yili deb nomlashini yaqqol misol sifatida ko'rishimiz mumkin [1].

Atmosfera ifloslanishining asosiy omili inson faoliyatidir. Asosiy antropogen manbalar sanoat jarayonlari, transport (avtomobil chiqindilari), daraxtlarni kesilishi, ko'p qavatli ularni adal ravishda qurilishi, energiya ishlab chiqarish (qazib olinadigan yoqilg'ilarni yoqish), qishloq xo'jaligi (kimyoviy moddalar va chang), isitish va pishirish (o'tin va biomassani yoqish) kabi faoliyatini o'z ichiga oladi.




1 – rasm. O'zbekistonda oylar bo'yicha atrof-muhitni ifloslanish ko'rsatkichlari [2].

Atmosfera ifloslanishini insonlar salomatligiga ta'siri

Tahlil shuni ko'rsatdiki, PM2.5 (xavodagi zararli zarrachalarning miqdoriy ko'rsatkichi, mkg/m³) ning o'rtacha yillik kontsentratsiyasi Toshkent shahrida JSSTning oraliq ko'rsatkichidan 39 % (35 mkg/m³) past bo'lgan. Ammo, bu hududlarda shahar aholisining atigi 17 foizi istiqomat qiladi, demak, Toshkent shahri aholisining 83 foizi salomatlikka jiddiy ta'sir ko'rsatadigan havo

ifloslanishining eng yuqori darajasi bo'lgan 1 kv. km. Li hududlarda istiqomat qiladi.



2 - rasm. Xavodagi zararli moddalar bilan bog'liq O'zbekistondagi yillik o'lim sabablari.

O'zbekiston

Respublikasi

aholisining o'rtacha yillik PM2.5 kontsentratsiyasi 38,8 mkg/m³ ta'siridan kelib chiqqan o'limlar yiliga 3042 nafar bevaqt o'limni tashkil etdi. PM2.5 havo ifloslanishi bilan

bog'liq bo'lgan erta o'limlarning aksariyati insult (33%), undan keyin yurak ishemik kasalligi (28%) va pastki nafas yo'llarining infeksiyalari (23%) sabab bo'ladi.

Havodagi zararli gazlarni aniqlash usullari Hozirgi kunda havodagi zararli gazlarni aniqlash uchun quyidagi asosiy usullar qo'llaniladi: **Optik spektroskopiya** – gazlarning spektral xususiyatlariga asoslangan tahlil usuli. **Elektrokimyoviy sensorlar** – muayyan gazlar bilan kimyoviy reaksiyaga kirishish orqali ularning kontsentratsiyasini aniqlaydi. **PID (Photoionization Detector)** – uchuvchi organik birikmalarni aniqlash uchun ishlatiladi. **NDIR (Non-Dispersive Infrared) detektorlari** – karbonat angidrid (CO₂) va boshqa infraqizil nurlanishni yutuvchi gazlarni o'lchashda ishlatiladi.

Monitoring tizimining afzalliklari

- Real vaqtda ma'lumot olish va uzatish imkoniyati.
- Inson omilining kamayishi natijasida xatolik ehtimolining pasayishi.
- IoT (Internet of Things) texnologiyalaridan foydalanish orqali tizimni masofadan boshqarish.

- Tezkor ogohlantirish va ekologik xavflarni oldindan aniqlash imkoniyati.

Arduino asosida avtomatlashtirilgan gazlar miqdorini aniqlash tizimi MQ2 gaz datchigi yordamida is gazini aniqlash va ogohlantirish tizimi quyidagi komponentlardan iborat:

MQ2 gaz datchigi – atrof-muhitdagi zararli gazlarni aniqlaydi.


Buzzer va LED – is gazining yuqori kontsentratsiyasi aniqlanganda ovozli va yorug'lik signalini beradi.

Servo motor – xavf yuzaga kelganda avtomatik ravishda biror himoya mexanizmini ishga tushiradi.


Arduino platformasi – barcha komponentlarni boshqaradi va real vaqtda monitoring olib boradi.

Tizimning ishlash prinsipi Tizimning ishlash jarayoni quyidagicha amalga oshiriladi: MQ2 gaz datchigi atrof-muhitdagi gaz kontsentratsiyasini o'lchaydi. Agar zararli gaz miqdori belgilangan xavfli darajadan oshsa, buzzer va LED yordamida ogohlantirish beriladi. Shu bilan birga, servo motor ishga tushib, xavfni bartaraf etish uchun tegishli harakatni amalga oshiradi, masalan, ventilyatsiya tizimini


yoqish yoki derazani avtomatik ochish. Ushbu tizim inson ishtirokisiz avtomatik ishlaydi va atrof-muhit xavfsizligini ta'minlashga yordam beradi.



3 - rasm. Zamonaviy avtomatlashtirilgan havo monitoring tizimining tuzilishi.



4 - rasm. Havodagi zararli gazlar konsentraiyni aniqlovchi va ogohlantiruvchi intellektual tizimda qo'llanilgan habar berish usullari.



5 - rasm. Havodagi zararli gazlar konsentraiyni aniqlovchi va ogohlantiruvchi Intellectual tizim sxemasi.

**Havodagi zararli gazlar konsentraiyni aniqlovchi va ogohlantiruvchi Arduino IDE
dasturi uchun kod**

```
#include <Servo.h>
const int sensorPin = A0; // MQ-2 gaz sensori analog pin (A0)
const int buzzerPin = 9; // Buzzer uchun pin (9)
const int ledPin = 13; // Svetodiod (LED) uchun pin (13)
const int servoPin = 6; // Servo motor pin (6)
int sensorValue = 0; // MQ-2 sensoridan o'qiladigan qiymat
int threshold = 300; // Threshold qiymati, bu miqdor oshganda ogohlantirish beradi
Servo myServo; // Servo motor obyekti

void setup() {
  // Pinlarni sozlash
  pinMode(buzzerPin, OUTPUT);
  pinMode(ledPin, OUTPUT); // LED pinini chiqish sifatida belgilash
  myServo.attach(servoPin); // Servo motorni ulash
  Serial.begin(9600); // Serial monitorni ishga tushurish
}

void loop() {
  sensorValue = analogRead(sensorPin); // MQ-2 sensoridan o'qish
  Serial.print("Sensor value: ");
  Serial.println(sensorValue); // Sensor qiymatini serial monitor orqali chiqarish
  if (sensorValue > threshold) {
    // Agar gaz darajasi threshold qiymatidan yuqori bo'lsa
    digitalWrite(buzzerPin, HIGH); // Buzzerni ishga tushurish
    digitalWrite(ledPin, HIGH); // Svetodiodni yonishiga ruxsat berish
    myServo.write(90); // Servo motorni 90 darajaga burish (servo motorni ishga solish)
    delay(2000); // 2 soniya kutish
    digitalWrite(buzzerPin, LOW); // Buzzerni o'chirish
    digitalWrite(ledPin, LOW); // Svetodiodni o'chirish
    myServo.write(0); // Servo motorni boshlang'ich holatiga qaytarish
  } else {
    // Gaz darajasi normal bo'lsa
    digitalWrite(buzzerPin, LOW); // Buzzerni
```

Havodagi zararli gazlar konsentratsiyasini aniqlashning avtomatlashtirilgan tizimi ekologik monitoringning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Arduino platformasida ishlab chiqilgan gaz aniqlash tizimi esa nafaqat xavfni oldindan aniqlash, balki tezkor ogohlantirish va avtomatik chora ko'rish imkoniyatini ham beradi. Ushbu tizim sanoat muhitida, uy sharoitida va jamoat joylarida foydalanish uchun samarali echim bo'lib, atrof-muhit xavfsizligini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi. Texnologik rivojlanish bilan birga ushbu tizimlarning aniqlik darajasi va funktsionalligi yanada oshib borishi kutilmoqda.

Adabiyotlar

- [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining majlisida so'zlagan nutqi, Toshkent 20.11.2024 yil
- [2]. Jahon bankining O'zbekiston Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi bilan birgalikda Iqtisodiyot va moliya vazirligi ko'magida hisoboti, Toshkent 2024 yil
- [3]. Smith J. "Air Quality Monitoring and Smart Sensors", Environmental Science Journal, 2023.
- [4]. Brown P. "IoT-Based Air Pollution Monitoring Systems", IEEE Transactions on Environmental Technologies, 2022.
- [5]. Wang H. "Advanced Gas Detection Methods in Smart Cities", Smart Environment Review, 2021.
- [6].

ХАЛҚАРО ИЛМЙ МАЪЛУМОТЛАР БАЗАЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ҲОЛАТИ
ВА УСЛУБИЯТИ ТАДҚИҚИ

Ф.Х. Рахимов, Д.Ф. Лутфуллаев, О.О. Аҳмадов

*Инновацион ривожланиш агентлиги ҳузуридаги Илмий-техник ахборот маркази
(Қабул қилинди 22.02.2025 й.)*

Аннотация: мақолада Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳамда халқаро илмий нашриётлар ўртасидаги ҳамкорлик, жаҳоннинг нуфузли халқаро ноширлик компаниялари илмий маълумотлар базаларидан фойдаланиш ҳолати тадқиқ этилган.

Илмий маълумотлар базаларидан фойдаланиш услубияти “Pivot-RP” халқаро грантлар базаси платформаси мисолида ёритилган.

Калит сўзлар: инновация, интеграция, соҳа, ноширлик, илм-фан, илмий фаолият, услубият, грант, илмий маълумотлар базаси, платформа.

Аннотация: В статье исследуется сотрудничество между Министерством высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан и международными научными издательствами, а также рассматривается текущее состояние использования научных информационных баз ведущих мировых издательских компаний.

Методика использования научных баз данных раскрыта на примере международной платформы грантов “Pivot-RP”.

Ключевые слова: инновации, интеграция, отрасль, издательское дело, наука, научная деятельность, методика, грант, научные базы данных, платформа.

Annotation: This article explores the collaboration between the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan and international scientific publishing houses, as well as the current state of access to scientific databases provided by leading global publishing companies.

The methodology for using scientific information databases is illustrated through the example of the international grant database platform Pivot-RP.

Keywords: innovation, integration, field, publishing, science, scientific activity, methodology, grant, scientific database, platform.

Кириш. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 6 июлдаги “2022-2026 йилларда Ўзбекистон Республикасининг инновацион ривожланиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-165-сон Фармони [1]да юклатилган вазифаларга жавобан мамлакатимизда халқаро илмий маълумотлар базаларидан эркин фойдаланиш йўналишида тизимли ишлар олиб борилмоқда.

Жаҳоннинг нуфузли халқаро ноширлик компаниялари, жумладан, Германиянинг “Springer Nature”, Буюк Британиянинг “Clarivate” ва бошқа шу каби компаниялар билан ҳамкорлик алоқалари йўлга қўйиш, уларнинг халқаро илмий маълумотлар базаларидан маҳаллий ОТМ ва ИТМлар эркин фойдаланишларини таъминлаш мақсадида Жаҳон банкининг “MUNIS” лойиҳаси доирасида Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳамда халқаро илмий нашриётлар ўртасида тегишли шартномалар имзоланган.

“Springer Nature” компаниясининг “link.springer.com” ва “nature.com” платформалари [2]дан 2022 йил 1 апрелдан 2026 йил 31 мартгача, “Elsevier” нашриётининг илмий ва тиббий нашрларининг катта библиографик маълумотлар базасига кириш имконини берувчи “Science Direct” платформаси [3]га 2023 йил 1 августдан 2024 йил 31 июлга қадар, “Clarivate” компаниясининг “Web of Science” халқаро маълумотлар базаси[4]дан эркин фойдаланиш бўйича 2023 йил 1 январдан 2025 йил 31 декабрга қадар ҳамда мазкур компаниянинг илмий-тадқиқотларни молиялаштириш имкониятлари ва ишончли манбалари тўғрисида маълумот берувчи “Pivot-RP” халқаро грантлар базаси платформаси [5]га 2024 йил 1 январдан 2025 йил 31 декабрга қадар миллий обуна ташкил қилинган.

ЭНЕРГЕТИКА, ЭЛЕКТРОТЕХНИКА, ЭЛЕКТРОННЫЕ ПРИБОРЫ И ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

2024 йилда Инновацион ривожланиш агентлиги ҳузуридаги Илмий-техник ахборот маркази (кейинги ўринларда – Марказ) ҳамда “Springer Nature” ҳамда “Clarivate” компаниялари хорижий экспертлар иштирокида республика муассасаларидаги илмий фаолият билан шуғулланувчи олимлар ва тадқиқотчилар учун 95 та онлайн вебинар ҳамда 53 та семинарлар ўтказилган. Семинарларда илмий мақолаларнинг ёзилиш техникаси ва уларни чоп эттириш, нуфузли илмий журналлардаги иштирок ҳамда Хирш индексини юқорилаш имконияти ҳақида маълумотлар берилган. Ушбу чора-тадбирлар натижасида 2024 йилда “Web of science” маълумотлар базасида индексланадиган журналларда маҳаллий олимлар томонидан 3441 та илмий мақола чоп этилган.

The screenshot displays the InCites dataset interface. On the left, there are filter options under 'Filters', 'Indicators', and 'Baselines'. The 'Dataset' is set to 'InCites Dataset'. A checkbox for 'Include ESCI documents' is checked. The 'Publication Date' range is set from 2024 to 2024. Below the filters, a list of geographic levels is shown, including 'Geographic Level', 'Author Location', 'Researcher', 'Organization Name', 'Collaborations with Researchers', 'Collaborations with Organizations', 'Collaborations with Locations', 'Collaboration Type', and 'Domestic/International Collaboration'. The main area shows a table with 1 location (3,441 documents). The table has columns: Region Name, Web of Science Documents, Times Cited, Collab-CNCI, Rank, % Documents Cited, and Category Normalized Citation Impact. The row for 'UZBEKISTAN' shows 3,441 Web of Science Documents, 8,270 Times Cited, a Collab-CNCI of 0.72, a Rank of 1, 49.58% Documents Cited, and a Category Normalized Citation Impact of 1.12. Below the table, there is a section for 'Refocus to view organizations that collaborate with this entity' with a 'Go' button. A note states: 'This will show the organizations that collaborate in this location.'

Region Name	Web of Science Documents	Times Cited	Collab-CNCI	Rank	% Documents Cited	Category Normalized Citation Impact
UZBEKISTAN	3,441	8,270	0.72	1	49.58%	1.12

Шунингдек, “Web of Science” компанияси экспертлари кўмагида Ўзбекистон илмий мактаблари олимлари ва ташкилотларининг энг юқори TOP-10 талиги рўйхати шакллантирилган.

☐ Person Name ...	Rank ...	% Documents Cited ...	Times Cited ÷ ...	Web of Science Documents ...	Affiliation ...
☐ Umair, Muhammad 	1	92.86%	2,173	28	Ghazi Univ +10 affiliation(s)
☐ Abdujabbarov, Ahmadjon 	2	93.94%	1,570	99	Ulugh Beg Astronomical Institute (UBAI) +23 affiliation(s)
☐ Atamurotov, Farroh 	3	79.8%	1,427	99	Urgench State University +20 affiliation(s)
☐ Ahmedov, Bobomurat 	4	91.51%	1,422	106	Ulugh Beg Astronomical Institute (UBAI) +17 affiliation(s)
☐ Rayimbaev, Javlon 	5	84.69%	1,319	98	Tashkent Institute of Irrigation & Agricultural Mechanization Engineers +13 affiliation(s)
☐ Berdimurodov, Elyor T 	6	81.82%	1,289	66	New Uzbekistan Univ +7 affiliation(s)
☐ Abdullaev, Sherzod Shukhratovich 	7	80.79%	1,051	151	New Uzbekistan Univ +12 affiliation(s)
☐ Lee, Yong-Il 	8	91.67%	947	60	Academy of Sciences of Uzbekistan
☐ Gafforov, Yusufjon 	9	84.09%	940	44	New Uzbekistan Univ +14 affiliation(s)
☐ Khan, Sajid 	10	60%	766	25	Central Asian University +10 affiliation(s)


Марказ 2024 йилнинг январь-ноябрь ойларида хорижий экспертлар билан ҳамкорликда Қорақалпоғистон Республикаси, Тошкент шаҳри ва 7 та вилоятда 150 та ОТМ ва ИТМ олимлари, тадқиқотчилар, профессор-ўқитувчилар, докторантлар ва талабалари иштирокида 28 та семинар ҳамда давра суҳбатлари ташкил қилган. Маҳаллий олимларимиз ноширликлик фаолиятини янада яхшилаш мақсадида уларнинг халқаро илмий журналлардан фойдаланиши, илмий мақолалар нашр этишлари, илмий лойиҳаларни молиялаштириш имкониятлари билан таништирилганлар.

Шунингдек, “Clarivate” компаниясининг Марказий Осиё бўйича мутахассиси Ирина Тихонкова томонидан 35 та вебинар (ZOOM платформаси орқали) ва 16 та семинарлар, “Springer Nature” компаниясининг Марказий Осиё бўйича мутахассиси Ирина Александрова томонидан 20 та вебинар (ZOOM орқали) ва 6 та семинарлар ташкил қилинган.

Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳамда “Clarivate” компанияси ўртасида имзоланган 2 йиллик шартнома асосида жорий йилнинг 24-25-апрель кунлари “Ўзбекистон Республикасида “Pivot-RP” ресурсларига миллий обуна” номли форуми ташкил этилган. Форум Республиканинг турли ҳудудларидаги ОТМ ва ИТМларнинг 200 дан ортиқ профессор-ўқитувчилари, олим ва тадқиқотчилари иштирокида бўлиб ўтган.

2024 йил 21 май куни Инновацион ривожланиш агентлиги ва Жаҳон банкининг “MUNIS” лойиҳаси доирасида илм-фан ва илмий фаолиятни янада ривожлантириш, халқаро маълумотлар базасидан фойдаланувчилар сафини кенгайтириш, унинг имкониятлари бўйича маълумотлар билан таништириш мақсадида “Springer Nature Awards-2024” форуми онлайн ва офлайн форматда ташкил этилган. Форумда 3 та хорижий эксперт иштирок этиб, тингловчиларга “Springer Nature” платформасидан фойдаланиш бўйича маъруза қилишган.


2024 йил январь-декабрь ойлари ҳолатига кўра маҳаллий олимлар томонидан “Web of Science” илмий-техник маълумотлар базасида индексланадиган журналларда 3441 та мақола чоп этилган.



Indicators: Web of Science Documents. Time Period: 2020-2024. Schema: Web of Science. Location: TAJIKISTAN, TURKMENISTAN, UZBEKISTAN, KYRGYZSTAN. Dataset: InCites Dataset
InCites dataset updated Feb 28, 2025. Includes Web of Science content indexed through Jan 31, 2025. Export Date: Mar 18, 2025.

Бу эса ўтган йилнинг мос даврига нисбатан 821 тага кўплигини кўрсатади.

Миллий обуна платформаларидан фойдаланиш учун ОТМ ва ИТМлар “Statik IP”си орқали рўйхатдан ўтиш керак бўлади.




ёки

<https://pivot.proquest.com>

“Pivot-RP” халқаро гарнтлар базаси платформасига “pivot.proquest.com” манзили ёки қуйида келтирилган “QR code” орқали кириш мумкин бўлади.

Рўйхатдан ўтиш учун “pivot.proquest.com” манзилига кирамиз. Асосий саҳифа юклангач, экраннинг юқори ўнг бурчагидаги одамча белгисини босамиз. Шундан сўнг иккита тугма пайдо бўлади:




Агар сиз илгари рўйхатдан ўтган бўлсангиз, “Sign in” тугмани босиб, логин ва паролингиз орқали тизимга киришингиз мумкин.

Агар рўйхатдан ўтмаган бўлсангиз, у ҳолда янги akkaунт яратиш учун “Create an account” тугмасини танлайсиз.


“Create an account” тугмасини босгандан сўнг икки хил вариант таклиф этилади:

“Use Institutional Login Credentials” – ташкилот, яъни ОТМ ёки ИТМ томонидан тақдим этилган ҳисоб маълумотлари орқали кириш;

“Use Email Address/Create Password” – корпоратив электрон почта орқали рўйхатдан ўтиш.



Одатда биринчи вариантдан “админ”, яъни ташкилотнинг масъул шахси фойдаланишини инобатга олиб, “Use Email Address/Create Password” варианты танлаймиз ва қуйидаги маълумотларни тўлдирамыз: исм, шариф (мажбурий эмас), фамилия.



“Institutional Email” маълумоти сўралган жойга фақат корпоратив электрон почта манзиллини киритиш мақсадлидир (“gmail”, “mail.ru”, “outlook” ва шахсий почта манзиллари қабул қилинмайди).

Пароль – янги пароль яратамиз. У қуйидаги талабларга жавоб бериши керак:

- ✓ камида 8 та белгидан иборат бўлиши;
- ✓ камида 1 та катта ҳарф;
- ✓ камида 1 та кичик ҳарф;
- ✓ камида 1 та рақам;
- ✓ махсус белгилар ишлатиш тавсия этилади (@, #, \$ ва h.k.).

Шундан сўнг яратилган паролни такроран киритасиз.

“Affiliated Member Institution” маълумоти сўралган жойдан ўзингиз фаолият юритаётган ташкилотингизни танлайсиз.


Платформадан фойдаланишда тегишли қодаларига розилик билдириш учун мос жойларга ✓ белгисини қўямиз.

“Робот эмаслигингизни” тасдиқлаб, “Create my account” тугмасини босамиз.


The screenshot shows a web form for creating an account. At the top, there is a scrollable list of institutions, with "Ministry of Innovative Development of the Republic of Uzbekistan" selected and highlighted in blue. Below the list is a dropdown menu showing the same selected institution. Underneath is a consent checkbox, which is checked, with text stating agreement to the Privacy Policy and Terms & Conditions. A link for "Information about managing personal data in Pivot-IP" is provided. Below this is a reCAPTCHA verification area showing a green checkmark and the text "I'm not a robot". At the bottom of the form is a large blue button labeled "Create my account".

Аккаунт яратиш тугаллангач, корпоратив электрон почтамызга тасдиқлаш ҳаволаси юборилади.

Почта хабарини очиб, “Confirm” тугмасини босамиз. Шундан сўнг ҳисобимиз фаоллаштирилади.




Сўнгра платформадаги “Sign in” тугмаси орқали логин ва паролни киритиб, шахсий аккаунтга кириш мумкин.




Шунингдек, “Springer Nature” базасига “link.springer.com” ҳамда “Web of Science” базасига “webofscience.com” электрон манзиллари орқали мазкур тартибда рўйхатдан ўтилиши мумкин.


“Pivot-RP” платформаси орқали халқаро грант, стипендия, стажировка ҳамда конференциялар ҳақида маълумотларни қуйидаги тартибда олиш мумкин.




Юқоридаги панелга ўз йўналишимизни ёзиб, қидирув тугмасини босамиз. Натижада бир қанча маълумотлар келиб чиқади.



Маълумотларни аниқлаштириш мақсадида, “refine search”ни босиб, филтер орқали “Ўзбекистон”ни танлаб оламиз ҳамда қидирув тугмачасини қайтадан босамиз.





Apply now! Call open

Deep Tech Venture Builder Programme Call 2025

4. Chora-tadbirlarni amalga oshirish: monitoring natijalariga asoslanib, resurslarni boshqarish strategiyasini yangilash, resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash uchun yangi choralar ko'rish.

Resurslarni boshqarish va monitoring qilishning afzalliklari:

- Barqaror resurslardan foydalanish: resurslarni boshqarish va monitoring qilish jarayonlari tabiiy resurslarning barqaror ishlatilishiga yordam beradi.
- Iqtisodiy samaradorlik: resurslarni optimallashtirish va samarali boshqarish orqali ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi va iqtisodiy o'sish sur'atlari oshadi.
- Atrof-muhitni himoya qilish: ekologik monitoring va resurslarni boshqarish orqali atrof-muhitni himoya qilish va ekologik izlarni kamaytirish mumkin.
- Ijtimoiy farovonlik: resurslarni boshqarish orqali ijtimoiy tenglik va farovonlikka erishish mumkin, chunki samarali boshqarish iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarni yaxshilaydi.

Resurslardan foydalanishni samarali boshqarishda muhim bo'lgan jihatlardan yana biri ta'lim va jamoat xabardorligidir. Bu jamiyatning barqaror rivojlanish va ekologik barqarorlikni ta'minlash, resurslarni oqilona boshqarishga qaratilgan strategiyalarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan jarayonlardir. Bu jarayonlar odamlarning resurslardan samarali foydalanish, atrof-muhitni himoya qilish va barqaror hayot tarzini qo'llab-quvvatlash haqidagi bilim va tushunchalarini kengaytirish uchun zarurdir. Ta'lim va jamoat xabardorligi bir-birini to'ldiruvchi vositalar bo'lib, jamiyatni mas'uliyatli va ekologik ongli qilib tarbiyalashda katta rol o'ynaydi.

Ta'lim va jamoat xabardorligi o'rtasida bevosita bog'lanish mavjud. Ta'lim jarayonida o'rgatilgan bilimlar va ko'nikmalar jamoat xabardorligini oshirishga yordam beradi. Masalan, ekologik masalalar bo'yicha ta'lim olish, shu sohada ongli qarorlar qabul qilishni va amaliyotda uni qo'llashni osonlashtiradi. Jamoat xabardorligini oshirish esa, ta'limning samaradorligini yanada kuchaytiradi, chunki xabardor jamiyat yanada ta'sirli va faol bo'lishi mumkin.

Bularning barchasi jamiyatni barqaror rivojlanish tamoyillariga moslashtirishga xizmat qiladi va kelajak avlodlar uchun yaxshi yashash sharoitlarini yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, resurslarni boshqarish va monitoring qilish - bu barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun zarur bo'lgan jarayonlardir. Samarali resurs boshqaruvi, iqtisodiy resurslardan optimal foydalanish va ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun monitoring tizimlarini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Boshqaruv va monitoringning samarali amalga oshirilishi atrof-muhitni saqlab qolish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash va jamiyat farovonligini oshirishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

- [1]. Usmonova L. Resurslarni oqilona boshqarish va uning iqtisodiy ahamiyati. Toshkent: Iqtisodiy fanlar nashriyoti. 2021.
- [2]. Axmedov R. Resurslar va ulardan samarali foydalanish strategiyalari. Toshkent: Iqtisodiy tadqiqotlar markazi. 2019.
- [3]. Jasanoff S., & Kim, S. Technology, Sustainability, and the Environment. Cambridge University Press. 2018.
- [4]. Smith P. Sustainable Resource Management in Global Economies. Oxford University Press. 2020.

ARRALI TOLA AJRATISH MASHINASIDA XOM-ASHYO VALIGINING HOSIL BO'LISHINI TADQIQ QILISH

J.S. Ergashev¹, B.B. Dadamirzayev¹, J.I. Oripov²

¹Namangan davlat texnika universiteti

²Farg'ona politexnika insituti

(Qabul qilindi 22.02.2025 y.)

Annotatsiya: Maqolada jin mashinasi ishchi kamerasida hosil bo'ladigan xom-ashyo valigi zichligini muqobillash usullari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Paxta, jin, chigit, tola, arra, kolosnik, ish kamerasi, xomashyo valigi, tezlik, sifat, samaradorlik, bosim, zichlik.

Аннотация: В статье изучены методы оптимизации плотности вала сырья, образующегося в рабочей камере джин-машины.

Ключевые слова: хлопок, джин, семена, волокно, пила, колосник, рабочая камера, вал сырья, скорость, качество, эффективность, давление, плотность.

Annotation: The article examines methods for optimizing the density of the raw material shaft formed in the working chamber of the gin machine.


Keywords: cotton, gin, seed, fiber, saw, grate, working chamber, raw material shaft, speed, quality, efficiency, pressure, density.

Kirish.


Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi paxta yetishtirish va uni eksport qilish bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlarda turganligi uchun jahon andozalariga mos keladigan yuqori sifatli tola ishlab chiqarish shu soha mutahassislari va olimlarimiz oldiga mavjud texnika va texnologiyalarni yanada takomillashtirish masalasini qo'ymoqda.

Chigitli paxta, quritish va tozalash sexlarida quritilib, iflos aralashmalardan tozalangandan keyin zavodning bosh korpusiga quvurlarda havo yordamida tashib jinlash uchun yuboriladi. Jinlash chigitli paxtani dastlabki ishlash texnologik jarayonining asosi hisoblanib, bunda paxta tolasi chigitdan ajratiladi. Jinlash jarayonida paxta tolasi chigitdan mexanik kuch bilan ajratib olinadi.

Arrali jinlarda asosiy ish organi sifatida arrali disklardan terilgan silindr xizmat qiladi. Bu jinlarda tolani chigitdan ajratish uchun arrali disklar bilan kolosnikli panjara birgalikda ishlaydi. (1-rasm)



1-rasm. 1-fartuk, 2-xom-ashyo valigi, 3-arrali silindr.



2-rasm. Tola ajratish mashinasi ishchi kamerasida xom-ashyo valigi hosil bo'lishini o'rnatishga oid sxema.

Usullari. Ish kamerasiga quyidagi texnologik talablar qo'yiladi, ya'ni uning ishchi qismlari chigit va tolalarda nuqsonlar paydo qilmasligi va shikastlantirmasligi, kameraning profili chigitli paxtaning aylanishiga mumkin qadar to'sqinlik qilmasligi zarur. Shuningdek kamera chigitli paxtaning kelib tushishiga, undan tola va chigitlarning chiqish ketishiga to'siqlar mumkin qadar kam bo'lishi kerak. Ushbu maqolada mualliflar tomonidan mana shu hosil bo'lgan xom ashyo valigi tarkibi va holatini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasi keltirilgan.

Metod va natijalar tahlili. Arrali tola ajratish mashinalariga xom-ashyo (paxta) yuqoridan kirib keladi.

Odatda, o'rta quvvatli paxta tozalash korxonalari 1 soatda 10 tonna atrifida paxtani qayta ishlashga mo'ljallanadi. Buning uchun 2 ta 4DP-130, yoki 5DP-130 markasi, yoki 90 t arrali 3 ta 4 ta mashinalar o'rnatilmoqda. Bitta arraga to'g'ri keladigan 4 sm uchun 12 kv/soat tolaga teng bo'lib, 90 ta arrali jinlar uchun 1080 kv/soat. Agar, paxtaga o'tkazilsa, o'rtacha 3240 kv/soat nazariy jihatdan ish unumi 1 ta mashina uchun $Q=3250$ kv/soat bo'lsin.

Tola ajratish jarayoni uchun uzluksizliktenglamasini yozamiz 2-rasmdagi paxta kiruvchi zonaning A nuqtasida:

$$Q_1 = S_1 \cdot \rho_1 \cdot v_1 = S_2 \cdot \rho_2 \cdot v_2, \quad (1)$$

Bu yerda: $S = B \cdot h$ -xom-ashyo qatlami ko'ndalang kesim yuzasi, m^2 ; B-ishchi kamera kengligi (90 ta arrali jin uchun $B=90 \cdot 19=1710m$); ρ -xom-shyo (paxta) zichligi kb/m^3 ; paxtaning xolatiga qarab, g'aramda-50-90 kb/m^3 ; separatordan keyin va jin paxtasiga 25-30 kb/m^3 atrofida bo'ladi. Jin mashinasi ishchi kamerasiga kirgach paxta biroz siqiladi. Shuning uchun xisoblarda zichlikning yuqori qiymatini olish tavsiya e'tiladi. v -paxta qatlami tezligi, m/s .

Jin mashinasi ishchi kamerasining to'rtli nuqtalaridagi tezligi adabiyotlardan (Miroshnichenko G.I. proyektironiye mashin' po pox. Moskva, legkaya industriya, 1972, bet-125) ma'lum, unga ko'ra jin mashinasi old fartugi bo'ylab paxta tezligi 4-5 m/c ga teng.

B nuqta chigit tarog'i zo'nasiga to'g'ri keladi. Bu zona oxirida paxta qatlamiga ishchi tsilindr arralari uriladi. Uning tishlari tolalarni ilib olidi va paxta tezligi keskin oshadi va arra tishlari chiziqli tezligiga tenglashadi (12 m/s).

Uzluksizlik tenglamasiga ko'ra bu zonada paxta oqimi miqdori Q o'zgarmaydi. Lekin, tezlik v oshishi natijasida paxta kesim yuzasi S va uning zichligi ρ keskin kamayadi.

Zichlik tenglamasidan paxta qatlamining A-B nuqtalardagi o'lchamlarini aniqlanishiga xarakat qilamiz, zichlik quyidagiga teng:

$$\rho = \frac{m}{V}; \quad (2)$$

Bu yerda: m -paxta massasi, kb , V -uning hajmi, m^3 :

Paxtaning hajmini qatlam o'lchamlariga bog'lanishi quyidagicha:

$$V = h \cdot B \cdot l = \frac{m}{\rho}, m^3 \quad (3)$$

Bu yerda, l -qatlam uzunligi, m .

Bunda qatlam qalinligi:

$$h = \frac{m}{\rho \cdot B \cdot l'}$$

Tenglikning surat va maxrajiga t ni ko'paytiramiz:

$$h = \frac{m \cdot t}{t \cdot \rho \cdot B \cdot l};$$

bu yerda, $\frac{m}{t} = Q$ paxta sarfini ifodalaydi. $\frac{t}{l}$ esa vaqtning masofaga nisbatitezligini ifodalaydi, ya'ni:

$$\frac{t}{l} = \frac{1}{v} \Rightarrow v = \frac{l}{t};$$

Tenglamaga qo'ysak:

$$h = \frac{Q}{\rho \cdot B \cdot v}, \quad (4)$$

Bu tenglama jin mashinasi ishchi kamerasiga kirib, A-B zonada xarakatlanayotgan paxta qatlami qalinligini ifodalaydi. Tenglamaga qo'shilib qolgan k-paxta uzatishdagi notekisligini ifodalaydi ($k=0,5-0,7$). 90 arrali jin uchun bu ko'rsatgichni aniqlaymiz: $Q=3250$ kb/soat; $\rho=30$ kb/m³; $B=1,710$ m; $v=4$ m/s bo'lganda

$$h = \frac{3,25 \cdot \frac{1000kg}{3600s}}{25 \cdot 1,71 \cdot 4 \cdot 0,5} \approx 0,011m \approx 11mm$$

Bu ishchi kamera o'lchamlariga nisbatan anchayin kichik qiymat. Ammo, keltirilgan parametrlar real o'lchamlarda bo'lgani uchun, aytish mumkin, jin mashinasi ishchi kamerasiga kirib kelayotgan paxta xom-ashyo valigida sezilarli o'lchamda qatlam xosil qilmaydi.

Xulosa.

Bu nuqtada paxta tezligi keskin oshadi. Bu nuqtaga kelayotgan paxta tezligi 4 m/s, arraga ilashgan paxta tezligi esa 12 m/s bo'lgani uchun, bu yerdagi tezliklar nisbati $\frac{12}{4} = 3$ ntashkil qiladi. Unga ko'ra, aytish mumkinki, ishchi kameraning B-C zonasida paxta qatlami zichligi va qalinligi ko'paytmasi 3 barobar kamayadi. Ya'ni shuni takidlash kerakki, paxta zichligi bu ko'rsatgichlardan o'ta past bo'la olmaydi. Chunki, bunday past ko'rsatgich tolaning zichligiga yaqin. Bu zonadagi maxsulot tarkibida esa, xali chigit turibdi. Shuning uchun, aytish mumkinki, bu zona va paxta miqdorining kamayishi uning qatlami xisobigagina yuz beradi. Ya'ni bu zonada qatlam buziladi va xom-ashyo valigida yoriq xosil bo'ladi. Xom-ashyo valigi ichki qismida bo'lgan tolasiz chigitlar shu yerda ajraladi va pastga qulaydi.

Adabiyotlar

- [1]. Muhammadiyev D. «Puti povыsheniya tekhnologicheskix i ekspluatatsionnykh svoystv mashin pilnogo djinirovaniya» Problemy tekstilya. № 3.2008
- [2]. Sulaymanov R. «Razrabotka rabochey kamery s uluchshennym semuyavdeleniyem pri pilnom djinirovanii xlopka-syrsa» Kan.tex.nauk TITLP Toshkent, 2006.130bet.
- [3]. Djabbarov D., Baltabayev S.D., Kotov D.A., Solevov N.D. «Pervichnaya obrabotka xlopka» M.Legkaya industriya, 1978 bet. 152.
- [4]. Muradov R., Obidov A., Sharipov X. «Jin mashinasi uchun kolosnik» Patent talabnomasi № FAP 20100010.
- [5]. Muradov R., Safarov N., Obidov A. «Paxta tolasini chigitdan ajratish qurilmasi» Patent № IAP 04362.

BEQASAM: MILLIY NAQSHLARDA YANGI NAFAS

M.O. Umarova, talaba N.M. Abdurazzaqova, M. Niyazaliyeva

Farg'ona politexnika instituti,
 Email: munavvar.omonbekovna. @ gmail.com,
 ORCID: 0000-0002-4375-4211,
[ORCID: 0000-0003-4733-0608](https://orcid.org/0000-0003-4733-0608)
 (Qabul qilindi 22.02.2025 y.)

Annotatsiya. Ushbu maqolada beqasam matosining zamonaviy modadagi o'rni, uning milliy naqshlar bilan uyg'unlashuvi va yangi uslubda shakllanishi haqida so'z yuritiladi. Beqasamning an'anaviy va zamonaviy dizayndagi o'rni tahlil qilinib, uni bugungi kundagi global moda tendensiyalariga moslashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Xususan, anor va bodom naqshlari bilan bezatilgan beqasamning yangi dizayn uslublari, uning kiyim-kechak hamda interyer dizaynidagi qo'llanilishi yoritiladi.

Kalit so'zlar: beqasam, milliy naqsh, zamonaviy libos, anor naqsh, bodom naqshi, ipak mato, modada uyg'unli, hunarmandchilik, milliy va zamonaviy uyg'unlik, dizayn innovatsiyasi


Аннотация. В данной статье рассматривается роль ткани бекасам в современной моде, её гармоничное сочетание с национальными узорами и формирование нового стиля. Анализируется место бекасама в традиционном и современном дизайне, а также его адаптация к глобальным модным тенденциям. Особое внимание уделяется новым дизайнерским решениям, основанным на узорах граната и миндаля, а также применению бекасама в одежде и интерьере

Ключевое слово: бекасам, национальный орнамент, современная одежда, орнамент граната, орнамент миндаля, шелковая ткань, гармония в моде, ремесло, национальная и современная гармония, дизайнерская инновация.

Abstract. This article explores the role of Bekasam fabric in modern fashion, its harmonious combination with national patterns, and the formation of a new style. The significance of Bekasam in both traditional and contemporary design is analyzed, along with its adaptation to global fashion trends. Special attention is given to new design solutions based on pomegranate and almond patterns, as well as the application of Bekasam in clothing and interior design.

Keyword: Bekasam, National ornament, Modern clothing, Pomegranate pattern, Almond pattern, Silk fabric, Harmony in fashion, Craftsmanship, National and modern harmony, Design innovation.

Beqasam – bu shunchaki gazlama emas, balki millatimiz tarixi, an’analari va san’atining yuksak timsolidir. Ajdodlarimiz tomonidan ishlab chiqarilgan bu nafis gazlama, bugungi kunda ham o’z mavqeini va jozibasini saqlab qolgan holda zamonaviy modaga moslashtirilishi mumkin. Ushbu maqolada beqasamning milliy naqshlar bilan zamonaviy ko’rinishda shakllantirish yo’llari, uning bugungi liboslar hamda interyer dizayndagi o’rni, shuningdek, an’anaviy va zamonaviylik o’rtasidagi uyg’unlik imkoniyatlari tahlil qilinadi [1].



1-rasm. Bekasam ishlab chiqarish texnologik jarayonlari.

Beqasamning tarixi va an’anaviy uslubi. Beqasam asosan chiziqli va ravon tuslar bilan yaratilgan bo’lib, u yillar davomida sharq modasining ajralmas qismi bo’lib kelgan. Uning o’ziga xos rang-barangligi va nafis ipak tolalarining jilosi beqasamni boy va hashamatli ko’rsatadi. Milliy naqshlar bilan bezatilgan beqasam esa o’zining estetik jozibasi bilan nafaqat milliy kiyimlarda,

balki zamonaviy uslubdagi liboslarda ham o'z o'rnini topishi mumkin.

“Beqasam” avrli gazlamalar (1-rasm) turiga kirib o'ziga xos ishlab chiqarish jarayoniga ega. Boshqa turdagi avrli gazlamalarga nisbatan bir oz farqli ishlab ichqarishga asoslangandir. “Beqasam”ning “Andijon quli”, “Samarqand beqasam”, “Kuyov beqasam”, “Abr beqasam” turlari hozirgi kunda ko'plab ishlab chiqariladi (2-rasm).

Beqasam ishlab chiqarishda tanda iplari uchun 429/4, 310/3 tabiiy ipak, arqoq uchun esa №20/2 ip ishlatiladi. Ishlab chiqarilgan beqasam gazlamasi to'quv jarayonidan so'ng suvda ivitilib siqiladi, gazlamaning old ko'rinish tomoniga tuxumning oqi sepiladi va tanda bo'yicha buklanib, bolg'acha bilan 10 sm taxlangan joyni urib chiqiladi. Bu jarayon 10 metrdan davom ettiriladi. Taxlov ochilganda gul tashlanganligini guvohi bo'lamiz, bu chayon gul-mavr hosil bo'lganligini bildiradi. Ba'zida beqasamni davralash jarayonidan alohida tushirilib ranglarga bo'yaladi va gulabardor tomonidan gula terib chiqiladi. Bu usul bilan bajarilib ishlab chiqariladigan beqasamlar tashlama deb yuritiladi [1].



2-rasm. An'anaviy beqasam namunalari.

Anor va bodom naqshlari bilan zamonaviy beqasam. Milliy naqshlar orasida anor va bodom alohida ahamiyatga ega. Anor farovonlik va unumdorlik, bodom esa hayotiy kuch va bardavomlik timsoli sanaladi. Beqasam matosiga ushbu naqshlarni qo'shish orqali uni yangicha ko'rinishda taqdim etish mumkin:

Yengil palto, milliy chopon va kostyumlar – beqasamning an'anaviy tuzilmasi saqlangan holda, bodom yoki anor naqshlari tikuv san'ati bilan bezatilganda yangicha yondashuv uyg'unligi milliy gazlamaning ko'rkamligini hamda jilokorligini oshiradi [3].

Zamonaviy milliy liboslar – keng bichimli uzun yengli ko'ylaklar, yengil pidjaklar va tonikalar beqasamdan tikilib, unga milliy naqshlar kashta yoki ipak iplari bilan tushiriladi.

Interyer dizayni – beqasam naqshlaridan nafaqat kiyim-kechakda, balki uy bezaklarida, pardalar, divan qoplamalarida foydalanish orqali milliy san'at va zamonaviy dizayn uyg'unligi yaratilishi mumkin.

Beqasamni modadagi yangi qiyofasi. Zamonaviy moda an'anaviy matolar va uslublarga yangicha yondashuvni talab qiladi. Beqasamning chiziqli teksturasi va milliy naqshlar bilan boyitilgan shakli uni nafaqat milliy, balki zamonaviy liboslar uchun ham mukammal tanlovga aylantiradi.

Ekologik va tabiiy – ipak matolari tabiiyligi va ekologik tozaligi bilan bugungi modada juda dolzarb. Eksklyuzivlik – beqasamning har bir nusxasi betakror ranglar uyg'unligidan ishlab chiqarilgan bo'lib, naqshlar bilan bezatilgan matolar ayniqsa yuqori qadrlanadi.

Global trendlarga mosligi – bugungi dunyo modasida etnik uslubga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda, beqasam esa sharqona nafislik va zamonaviy soddalikni o'zida mujassam etishi bilan ajralib turadi. Beqasam matosi nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki u modaning yangi qirralarini ochish imkoniyatiga ham ega. Milliy naqshlar bilan boyitilgan zamonaviy beqasam liboslari milliy o'zlikni aks ettirish bilan birga, global modada ham o'z o'rnini topishi mumkin. Shu sababli, an'anaviy hunarmandchilik va zamonaviy yondashuvni birlashtirish orqali beqasamni yanada rivojlantirish lozim [4] [5].

Beqasamning zamonaviy moda sanoatidagi o'rni. Afzalliklari: Milliy madaniyatni targ'ib qiladi – Beqasam gazlamasiga zamonaviy dizayn elementlarini qo'shish orqali milliy merosni saqlab qolgan holda global modaga chiqish mumkin.

Universallik – Beqasamning yangi talqini ofis kiyimlari, kundalik kiyimlar, sport uslubidagi liboslar uchun moslashuvchan bo'ladi

Estetik joziba – Milliy naqshlarning zamonaviy dizaynlar bilan uyg'unlashuvi beqasam matosini jahon modasida o'ziga xos brendga aylantirish imkoniyatini yaratadi.

Barqaror moda – Beqasamning ipak va paxta tolalaridan tayyorlanishi uni ekologik jihatdan tabiiy va ekologik barqaror mato sifatida qadrlash imkonini beradi [6].

Beqasam matosi va milliy naqshlarni birlashtirish maxsus texnologiyalar va hunarmandchilik mahoratini talab qiladi. Sifatli ipak yoki tabiiy tolalardan tayyorlangan beqasam matosi nisbatan qimmatroq bo'lishi mumkin. Beqasamni zamonaviy modaga moslashtirish jarayoni ancha sabr va puxta rejalashtirishni talab qiladi.

Xulosa: Beqasam matosi o'zbek milliy madaniyatining bebaho qismi bo'lib, uni zamonaviy talqinda qayta ishlash nafaqat modaga, balki madaniy merosni asrab-avaylashga ham xizmat qiladi. Anor va bodom naqshlarini beqasamning chiziqli tuzilmasi bilan uyg'unlashtirish orqali uni nafaqat o'zbek kiyim modasida, balki xalqaro moda maydonida ham yuksak mavqega olib chiqadi

Shuningdek, beqasamning kengaytirilgan ishlatilishi – ofis kiyimlari, zamonaviy paltolar, kurtkalar, yengil ko'ylaklar va sport uslubidagi liboslarda o'z aksini topishi muhim. U moda sanoatida ekologik barqaror mato sifatida o'z o'rnini topadi.

Shunday ekan, beqasam matosi faqat o'tmish yodgorligi emas, balki kelajak modasining ilhom manbai ham bo'lishi mumkin. Biz beqasamni zamonaviylashtirish orqali nafaqat o'z uslubimizni yaratamiz, balki milliy an'alarimizni yangi avlodga yetkazish uchun ham katta qadam tashlaymiz.

Adabiyotlar

- [1]. Abdullayev M., "O'zbek milliy matolari va ularning rivojlanish tarixi", Toshkent: "Fan" nashriyoti, 2015.
- [2]. Umarova. M.O. Milliy avrli gazlamalarni ishlab chiqarish texnologiyasi. O'quv qo'llanma. Farg'ona, "FARPI ALPHA" nashriyoti, 2023-128b.
- [3]. Yoqubov H., "O'zbek milliy to'qimachilik san'ati", Samarqand: "Zarafshon", 2018.
- [4]. Tursunov I., "Milliy hunarmandchilik va dizayn: an'alar va innovatsiyalar", Toshkent: "O'zbek milliy ensiklopediyasi", 2020.
- [5]. Qodirova N., "O'zbek milliy naqshlarining turlari va ularning zamonaviy modadagi o'rni", "San'atshunoslik ilmi", №3, 2021.
- [6]. Karimova M., "Beqasam va atlas matolarining xususiyatlari", "O'zbekiston matolari" ilmiy jurnali, №2, 2019.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ КОЭФФИЦИЕНТА ФИЛЬТРАЦИИ ПОРИСТОЙ СРЕДЫ

Т.М. Нишонов, А.С. Хусанжонов

Ферганский политехнический институт
(Получена 22.02.2025 г.)

Аннотация. В статье рассматривается процесс фильтрации жидкости в пористых средах, приводятся основные теоретические положения, такие как закон Дарси и уравнение неразрывности, а также описывается экспериментальная методика определения коэффициента фильтрации.

Ключевые слова: фильтрация, пористая среда, коэффициент фильтрации, закон Дарси, гидродинамика, эксперимент.

Introduction. The article examines the process of fluid filtration in porous media, presenting the main theoretical principles such as Darcy's law and the continuity equation. It also describes an experimental method for determining the filtration coefficient. The results of the experiment allow for an assessment of the properties of the studied porous materials and confirm the applicability of mathematical models to real conditions.

Keywords: filtration, porous medium, filtration coefficient, Darcy's law, hydrodynamics, experiment.

Annotatsiya. Ushbu maqolada suyuqlikning g'ovak muhitlarda filtrlanish jarayoni ko'rib chiqilib, Darcy qonuni va uzluksizlik tenglamasi kabi asosiy nazariy tamoyillar keltirilgan. Shuningdek, filtratsiya koeffitsientini aniqlash bo'yicha eksperimental uslub bayon etilgan. Eksperiment natijalari tadqiq qilingan g'ovak materiallarning xususiyatlarini baholash va matematik modellarni real sharoitlarga tatbiq qilish mumkinligini tasdiqlash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: filtratsiya, g'ovak muhit, filtratsiya koeffitsienti, Darsi qonuni, gidrodinamika, eksperiment.

Введение. Фильтрация жидкости в пористых средах является важным процессом, встречающимся в природе и технике. Это явление играет ключевую роль в гидрологии, геологии, инженерии и нефтедобыче. Для оценки проницаемости пористых сред используется коэффициент фильтрации, который характеризует скорость прохождения жидкости через материал. В данной работе проводится экспериментальное определение этого коэффициента с использованием лабораторной установки.

Методология. Исследование включает два основных этапа: теоретический анализ фильтрации и лабораторный эксперимент. В теоретической части рассматриваются ключевые закономерности, такие как уравнение неразрывности и закон Дарси. В экспериментальной части используется установка с вертикальной трубой, содержащей слой пористого материала. Жидкость просачивается через материал, и на основе измерений изменения уровня жидкости рассчитывается коэффициент фильтрации.

Основная часть. Фильтрация в рамках механики сплошной среды

Фильтрация жидкости через пористый материал описывается законами механики сплошной среды. В реальных условиях жидкость движется по системе взаимосвязанных пор, формируя сложные потоки. Поскольку непосредственное моделирование таких движений затруднено, используется упрощенная модель, рассматривающая пористый материал как сплошную среду с усредненными характеристиками.

Одним из ключевых параметров пористых материалов является их пористость (m), которая определяется как отношение объема пор (V_p) к общему объему образца (V):

$$m = \frac{V_p}{V}, \quad 0 < m < 1.$$

m — пористость (безразмерная величина)

V_p — объем пор, м³

V — общий объем образца, м³

В расчетах учитываются только те поры, которые участвуют в процессе фильтрации. В неоднородных средах пористость может изменяться в зависимости от координат, а в деформируемых — меняться со временем.

Фильтрационная скорость (u) выражает объемный расход жидкости через единицу площади сечения пористого материала. Она связана со средней скоростью движения частиц жидкости через коэффициент просветности (n):

$$v = \frac{|u|}{n}, \quad n = \frac{S_p}{S} < 1.$$

ρ — плотность жидкости, кг/м³

m — пористость (безразмерная величина)

u — скорость фильтрации, м/с

n — коэффициент просветности (безразмерная величина).

S_p — площадь поперечного сечения, занимаемая порами, м².

S — общая площадь полного поперечного сечения трубки (включает как поры, так и твердую часть пористого материала), м².

Поскольку S_p всегда меньше S , коэффициент просветности n всегда меньше 1.

Процесс фильтрации подчиняется уравнению неразрывности, выражающему сохранение массы жидкости:

$$\frac{d}{dt} \int_V \rho m dV + \int_{\Sigma} \rho u \cdot n d\sigma = 0$$

где ρ — плотность жидкости, n — внешняя нормаль к поверхности Σ . При постоянной плотности и неподвижности пористой среды уравнение принимает вид $\operatorname{div} u = 0$.

V — объем пористой среды, м³

Σ — граница объема V , м²

$d\sigma$ обозначает бесконечно малый элемент площади на поверхности Σ .

При медленном движении жидкости её фильтрационная скорость определяется градиентом давления:

$$u = -\frac{k}{\mu}(\nabla p - \rho g),$$

где:

u — скорость фильтрации, м/с

k — коэффициент проницаемости, м²

μ — динамическая вязкость жидкости, Па·с

∇p — градиент давления, Па/м

ρ — плотность жидкости, кг/м³

g — ускорение свободного падения, м/с²

Часто используется альтернативная форма закона Дарси через коэффициент фильтрации (C):

$$u = -C\nabla H, \quad \text{где } H = \frac{p}{\rho g} + z$$

Типичные значения коэффициента фильтрации для песка составляют ($10^{-5} \div 10^{-2}$) м/с, а для глины — ($10^{-8} \div 10^{-7}$) м/с.

C — коэффициент фильтрации, м/с;

∇H — градиент напора, м⁻¹;

Экспериментальное определение коэффициента фильтрации

Эксперимент проводится с использованием вертикальной прозрачной трубы, содержащей слой пористого материала. Свободная жидкость сверху просачивается вниз, проходя через пористую среду и собираясь в нижнем резервуаре.

Перед началом эксперимента измеряется толщина слоя (L). Затем в установку наливается жидкость, и после заполнения пор измеряется начальный уровень $h(0)$. По мере фильтрации фиксируются значения $h(t)$ в разные моменты времени t .

Измеренные значения представлены в таблице 1.

Таблица 1.

Измеренные данные для определения коэффициента фильтрации

h (см)	t (с)	$\eta = \ln\left(\frac{h(0)}{h(t)}\right)$
10.0	0	0.00
9.2	10	0.087
8.5	20	0.162
7.8	30	0.248
7.2	40	0.320
6.7	50	0.401
6.2	60	0.470
5.8	70	0.544
5.4	80	0.610
5.1	90	0.675
4.8	100	0.733

$h(0)$ — начальная высота столба жидкости, м (метры).

$h(t)$ — высота столба жидкости в момент времени t , м (метры).

$$\eta = \ln\left(\frac{h(0)}{h(t)}\right)$$




Рис. 1. График зависимости η от времени t , построенный по экспериментальным данным.

График зависимости $\eta(t)$ строится по экспериментальным точкам. Коэффициент фильтрации определяется по углу наклона полученной линии методом наименьших квадратов.

Заключение. Эксперимент показал, что коэффициент фильтрации можно эффективно определять методом анализа изменения уровня жидкости во времени. Полученные данные соответствуют предсказаниям закона Дарси, подтверждая справедливость используемых математических моделей.

Список литературы

- [1]. Утаев С. А. Закономерности накопления загрязняющих примесей моторных масел в процессе эксплуатации двигателей // Современные материалы, техника и технологии. – 2016. – №. 2 (5). С. 207-214.
- [2]. Алимова З. Х., Шамансуров Б. Р., Мирзабоев И. А. Исследования причины загрязнения смазочных материалов применяемых в двигателях транспортных средств // Экономика и социум. – 2021. – №. 11-1 (90). – С. 705-710.
- [3]. Bazarov B. I., Khusanjonov A. S. Analysis of common oil filters faults // Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) ISSN: 2776-0987, Volume 4, Issue 3, Mar., 2023. P. 39–51.
- [4]. Базаров Б. И., Хусанжонов А. С., Особенности эксплуатации масляных фильтров современных легковых автомобилей // Научный журнал транспортных средств и дорог, 2022 №4. С. 70–77.
- [5]. Bazarov B. I., Khusanjonov A. S. Technologies to manage used oil filters of cars in Uzbekistan // Innovative Technologica: Methodical Research Journal (ITMRJ) ISSN: 2776-0979, Volume 4, Issue 3, Mar., 2023. P. 626–635.
- [6]. Базаров Б. И., Хусанжонов А. С., Нишонов Т. М. Анализ состава загрязнений в отработанных масляных фильтрах // НТЖ ФерПИ, 2023, Т.27. спец.выпуск №3. С. 123–127.
- [7]. Базаров Б. И., Хусанжонов А. С. Анализ ключевых тенденций и инноваций в технологии фильтрации автомобильного масла // Международная научно-практическая конференция «Проблемы современного машиностроения и инженерного образования». Андижан, 8 июня, 2023 г. С. 1006–1009.
- [8]. Базаров Б. И., Хусанжонов А. С. Оценка влияния старения моторного масла на характеристики двигателя // Международная научно-практическая конференция «Проблемы современного машиностроения и инженерного образования». Андижан, 8 июня, 2023 г. С. 309–312.
- [9]. Базаров Б.И., Хусанжонов А.С. Влияние качества моторного масла на характеристики двигателя масла // Международная научно-практическая конференция «Проблемы и перспективы инновационной машины и технологий в агропродовольственной сети». Ташкент, 20-21 апреля 2023 г. С. 106–108.

MAHALLIY XOM ASHYO MATERIALLARIDAN TAYYORLANGAN
ENERGIYATEJAMKOR ISSIQLIK SAQLOVCHI QOPLAMALARNI YARATISH VA
ULARNI TAKOMILLASHTIRISH

B.T. Tojiboyev

*Farg'ona politexnika instituti, bobirjon1988@mail.ru
(Qabul qilindi 22.02.2025 y.)*

Annotatsiya. Maqolada issiqlikni saqlovchi qoplamalar, ularga qo'yilgan talablar, qo'llanilish soxasi, yondosh qoplamalar bilan solishtirish, olib borilgan izlanishlar va tahlillar haqida bayon etilgan

Kalit so'zlar: Issiqlikni saqlash, mikrosfera, qoplama, izolyatsiya, issiqlik o'tkazuvchanlik, namlik, ekologik xavfsizlik

Аннотация. В статье описаны теплоаккумулирующие покрытия, требования к ним, область их применения, сравнение с аналогичными покрытиями, а также проведенные исследования и анализ.

Ключевые слова: Сохранение тепла, микросфера, покрытие, изоляция, теплопроводность, влажность, экологическая безопасность.

Abstract. The article describes heat-retaining coatings, the requirements for them, their scope, comparison with similar coatings, and the research and analysis conducted.

Keywords: Heat preservation, microsphere, coating, insulation, thermal conductivity, humidity, environmental safety

Bugungi kunda energiya samaradorligini oshirish va ekologik toza materiallardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mahalliy xom ashyo materiallaridan issiqlikni tejovchi qoplamalar yaratish nafaqat bino va inshootlarning energetik samaradorligini oshiradi, balki iqtisodiy jihatdan ham foydalidir.

21-asrga kelib uy-joy kommunal xo'jaliklari, issiqlik bilan ishlaydigan zavod va fabrikalarda issiqlikni saqlab qolish va undan oqilona foydalanish muxim va ustivor vazifa bo'lib qolmoqda.

Izolyatsiya bu – issiqlik oqimiga qarshilik ko'rsatish uchun ishlatiladigan material yoki materiallar to'plamidir.

Qoplama esa – himoya qoplamasini hosil qilish uchun quriydigan yoki qotib qoladigan va har bir qatlam uchun qalinligi 30 mils (0,76 mm) yoki undan kam bo'lgan issiqlik izolyatsiyasi yoki boshqa sirtlarga qo'llash uchun mos bo'lgan suyuq yoki yarim suyuq material.

Ikki ta'rifni birlashtirib, "issiqlik izolyatsiyasi" issiqlik izolatsiyasini o'z ichiga olmaydi, lekin o'z-o'zidan issiqlik izolatsiyasi sifatida ishlatilishi mumkin, deb hisoblanadi.

Issiqlikni tejovchi materiallarning samaradorligini aniqlash va nazorat qilish uchun quyidagi mezonlarga e'tibor qaratish lozim:

- Issiqlik o'tkazuvchanligi – Materialning qanchalik yaxshi issiqlikni saqlab qolishi yoki o'tkazishi o'lchanadi.

- Namlikka chidamlilik – Qoplamaning namlik ta'sirida buzilmasligi muhim.

- Ekologik xavfsizlik – Mahalliy xom ashyolarning inson salomatligi va atrof-muhitga ta'siri tekshiriladi.

- Mexanik mustahkamlik – Qoplamaning bosim, zarba va boshqa tashqi omillarga chidamliligi baholanadi.

- Energiya tejamkorligi – Qoplama qo'llangan hududda energiya iste'molining kamayishi kuzatiladi.

Bilamizki issiqlik manbalaridan issiq suv axoliga kelayotganda trubalarda issiqlik yo'qotishlari bo'ladi.

Biz tadqiqot olib borayotgan issiqlikni saqlovchi qoplama xar tomonlama qulayligi issiqlik izolatsiyalovchi qoplamalarga qo'yiladigan talablarga mosligi bilan ajralib turadi.

Ushbu qoplama odatdagi issiqlik saqlovchi (steklovata) materiallari o'rniga qurilish sanoatida qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Qoplamaning asosiy afzalliklari bu: olovga chidamligi (yonmasligi), kislotalar va ishqorlarga chidamligi, surkash oson (chetka, valik va kompressor bilan sepish orqali amalga oshirilishi), juda

xam ixcham qatlam xosil qilishi, inson salomatligi uchun zararli emasligi, tabiatga zarar keltirmasligi, tarkibida zararli moddalar mavjud emasligi bilan aloxida ahamiyat kasb etadi.

Qo'llanilish sohalari esa zadviyka va ventillarga qo'llash orqali issiqlikni saqlab qolish imkonini berishi, (odatda zadviyka va ventillarga steklovata o'ralmaydi), sanoat konteynerlariga surkash orqali issiqlikni tejab qolishi, avtotransport salonlariga sepish orqali shovqin va chirishdan ximoyalanishi, turar-joy va sanoat binolari (tashqi va ichki taraflarga qo'llash orqali issiqlikni tejashi, mog'orlashni oldini olishi va shaxar ko'rkiga ko'rk qo'shishi), uni surkash, sepish va qoplash juda osonligi.

Issiqlik saqlovchi qoplamani qo'llash doirasi haqiqatan ham ta'sirli. Keling, har xil turdagi sirtlar uchun materialni ishlatilish namunalarini batafsil ko'rib chiqaylik.


Binoning tashqi qismi uchun qoplamani qo'llash:

Fasad sifatida keng qo'llaniladi. Ushbu material egiluvchanlikni oshirdi, shuning uchun haroratning keskin o'zgarishi bilan ham uning ustida mikro yoriqlar hosil bo'lmaydi. Qatlamning qalinligiga qarab, issiqlik saqlovchi qoplama issiqlik yo'qotilishini 30% gacha kamaytiradi, bu esa sovuq mavsumda xona ichidagi haroratni 4-6 S ga oshirish imkonini beradi. Yozda, aksincha, salqinlik saqlanib qoladi.

Yog'och devorlar uchun qoplamani qo'llash:

Yog'och maxsulotlaridan yasalgan uylarga mineral jun yoki ko'pik bilan issiqlik izolatsiyasi binoning estetik xususiyatlarini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin, lekin biz taklif etayotgan qoplamani qo'llash yog'och uylar uchun eng yaxshi echimlardan biri bo'lib, nafaqat uyni izolyatsiya qilish, balki yog'ochning dekorativ xususiyatlarini ham ta'kidlash imkonini beradi. Tarkibi parazitlar, mog'or, patogen mikroblar xavfini bartaraf etadigan antibakterial moddalarni o'z ichiga oladi. O'zining ajoyib yong'inga qarshi xususiyatlari tufayli bo'yoq materialni mumkin bo'lgan yong'inlardan himoya qiladi.

Qoplamani g'isht, yog'och, metall, beton, plastmassa va boshqa ko'plab sirtlarga qo'llash mumkin. Sirt oldindan tozalanadi, kerak bo'lganda maxsus kimyoviy moddalar bilan tozalanadi, xuddi shu kompozitsion suv bilan suyultiriladi (5% dan ko'p bo'lmagan) yoki astar sifatida har qanday akril bo'yoq, suyuq shisha aralashmasi astar sifatida ishlatilishi mumkin.



1-Tajriba uchun namuna.

Qoplamani nam, muzli yuzaga qo'llash mumkin emas. Qoplama bir necha qatlamda yotqiziladi. Qatlamlarning soni vazifalarga qarab, maqsadlarga qarab belgilanadi. Qatlamlar quritish oralatib bir necha bor qo'llash mumkin. Tayyor qoplamaning oxirgi qalinligi issiqlik tashuvchi harorati va kerakli sirt haroratiga qarab tanlanadi.

Qoplama har qanday geometrik shakl yuzasiga shetka, shpatel, rolik yoki purkagich yordamida osonlikcha (yotqiziladi) sepiladi. Qoplama atmosferaga odamlar uchun zararli birikmalar chiqarmaydi. Shamollatishsiz binoda ishlayotganda oddiy respiratordan foydalanish tavsiya qilinadi, ochiq havoda yoki havalantirilgan xonada bo'lsa respirator kerak emas. Qalinligi 1 mm bo'lgan quruq qoplama qatlamini olish uchun o'rtacha sarf: 750-1000 g/m².

Qoplamani oddiy temir idishdan yasalgan namuna asosida o'tkazamiz. Temir ichida suv qaynab turadi, ustki qatlamiga 4 xil qalinlikda qoplama surtiladi va ularni issiqlik o'tkazuvchilik darajasi o'lchanadi.

Xulosa. Mahalliy xom ashyo materiallaridan ishlab chiqarilgan issiqlikni tejovchi qoplamalarni nazorat qilish ularning samaradorligini oshirish va ularni keng qo'llash imkoniyatini beradi. Ilg'or laboratoriya va amaliy sinov usullari orqali materiallarning issiqlik o'tkazuvchanligi, ekologik xavfsizligi hamda mexanik chidamliligi baholanib, energiya tejamkorligi ta'minlanadi. Shu sababli, ushbu materiallarni ilmiy asosda tadqiq qilish va nazorat qilish muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar


- [1]. Маткаримов, Ш. А., Зияев, А. Т., Тожибоев, Б. Т., & Кучкаров, Б. У. (2020). Покрытие задвижек и запорной арматуры тепловых сетей жидким теплоизоляционным покрытием. *Universum: технические науки*, (12-5 (81)).
- [2]. Boburjon Tolibjonovich Tojiboyev (2021). Heat resistant fluid insulating coat. *Scientific progress*, 2 (7), 524-531.
- [3]. Boburjon Tolibjonovich Tojiboyev (2021). Heat resistant fluid insulating coat. *Scientific progress*, 2 (7), 524-531.
- [4]. Tolibjonovich, T. B. (2024). Energy-saving materials and prospects of their application to building construction. *Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods*, 2(2), 29-33.

БЎЗ ПАХТА ТОЗАЛАШ ЗАВОДИ ВАЛЛАРИНИ ЎЗ ОҒИРЛИГИДАН САЛҚИЛИГИ БЎЙИЧА ҲИСОБЛАБ, ОПТИМАЛ КЎНДАЛАНГ КЕСИМ ЮЗАЛАРИНИ ТАНЛАШ


Ҳ. Турдикулов

Фарғона политехника институти
(Қабул қилинди 19.11.2024 й.)


Валларнинг схематик кўринишлари қуйидагича бўлиши мумкин экан:



1-расм. Валларнинг схематик кўриниши.



2-расм. Валларнинг кўндаланг қирқими.



3-рasm валларнинг қирқим профили.

Ўз оғирлигидан валларни максимал салқилиги қуйидаги формуладан аниқланади:

$$Z_{max} = \frac{5ql^4}{384EI_y}$$

Бу ерда I_y –валларни ўқ бўйича инерция моменти қуйидаги формуладан аниқланади:

$$I_x = I_y = \frac{\pi d^4}{64},$$

ҳалқасимон кесим учун:

$$I_x = I_y = \frac{\pi D^4}{64} (1 - c^4) \quad , C = \frac{d}{D}$$

q –ёйилган куч қиймати бўлиб, валларни ўз оғирлигидан қуйидаги

формуладан аниқланади: $q = \frac{m}{l}$

l - вални узунлиги


m - вални оғирлиги бўлиб, пўлатни зичлигидан қуйидаги формуладан топилади:

$$m = \rho V$$

ρ - пўлат зичлиги бўлиб, $\rho = 7850 \frac{\text{кг}}{\text{м}^3}$ га тенг

V – вални ҳажми бўлиб, қуйидаги формуладан аниқланади:

$$V = Sl = \pi r^2 l$$



4-рasm. Валларнинг ички тузилиши ва ишлаш принципи.

Бунда 6 та вариант бўйича ҳисоблаб солиштирилганда қуйидаги натижалар олинди:

$$\begin{aligned} \text{1-чи вариант: } l=2500\text{мм, } D=100\text{мм, } E=2 \cdot 10^6 \frac{\text{кг}}{\text{см}^2} \quad , \quad \rho = 7850 \frac{\text{кг}}{\text{м}^3} \quad , \\ z_{max}=0.32\text{мм, } m_1=154.1 \text{ кг} \end{aligned}$$

2-чи вариант: $l=2500\text{мм}$, $D=70\text{мм}$, $E=2*10^6 \frac{\text{кг}}{\text{см}^2}$, $\rho = 7850 \frac{\text{кг}}{\text{м}^3}$,
 $z_{\max}=0.64\text{мм}$, $m_2=75.5 \text{ кг}$


3-чи вариант: $l=2500\text{мм}$, $D=100\text{мм}$, $d=80\text{мм}$, $E=2*10^6 \frac{\text{кг}}{\text{см}^2}$,

$$\rho = 7850 \frac{\text{кг}}{\text{м}^3}, z_{\max}=0.19\text{мм}, m_1=55.5 \text{ кг}$$

4-чи вариант: $l=2500\text{мм}$, $D=70\text{мм}$, $d=50\text{мм}$, $E=2*10^6 \frac{\text{кг}}{\text{см}^2}$,

$$\rho = 7850 \frac{\text{кг}}{\text{м}^3}, z_{\max}=0.63\text{мм}, m_4=37.0 \text{ кг}$$

5-чи вариант: $l=2500\text{мм}$, Кемтикли $h=5\text{мм}$,
 $E=2*10^6$



$b=7\text{мм}$, $D=100\text{мм}$,

$$\frac{\text{кг}}{\text{см}^2}, \rho = 7850 \frac{\text{кг}}{\text{м}^3}, z_{\max}=0.39\text{мм},$$

$m_5=153.4\text{кг}$

6-чи вариант: $l=2500\text{мм}$, Тирноқли



$D=70\text{мм}$, $d=7\text{мм}$,

$$E=2*10^6 \frac{\text{кг}}{\text{см}^2},$$

$$\rho = 7850 \frac{\text{кг}}{\text{м}^3},$$

$z_{\max}=0.65\text{мм}$, $m_6=76.2 \text{ кг}$

Хулоса.

Демак трубаларда, яъни халқасимон кесимли валларда ўз оғирлигидан ҳосил бўлган салқилик ва материал сарфи яхлит, яъни кўндаланг кесим юзаси зич бўлган валларга нисбатан анча кичик бўлар экан. Валларни ўз оғирлигидан салқилиги бўйича ҳисоблаб оптимал кўндаланг кесим юзаларини танлаганимда 3-чи вариантдаги ўлчамлар мос

келишини кўрдим. Яъни, $l=2500\text{мм}$, $D=100\text{мм}$, $d=80\text{мм}$, $E=2*10^6 \frac{\text{кг}}{\text{см}^2}$,

$$\rho = 7850 \frac{\text{кг}}{\text{м}^3}, z_{\max}=0.19\text{мм}, m_1=55.5 \text{ кг}$$

Адабиётлар:

- [1]. К. М. Мансуров Материаллар қаршилиги курси. Тошкент 1983й.
- [2]. Материаллар қаршилиги фанидан ўқув услубий мажмуа. Фар.ПИ 2023й.
- [3]. Материаллар қаршилиги фанидан амалий машғулотларни ўтказиш учун услубий кўрсатма Фар.ПИ 2023й.

DEHQON XO'JALIGI YERLARINI ELEKTRON RAQAMLI XARITASINI SHAKLLANTIRISH

K.R. Hakimova, M.R. Abdujabborova

Farg'ona politexnika instituti

, E-mail: k.xakimova@ferpi.uz (tel: 90 2773004)

E-mail: muxlisaabdujabborova304@gmail.com (tel: 93 4721301)

(Qabul qilindi 22.02.2025 y.)

Annotatsiya Ushbu maqolada dehqon xo'jaligida elektron raqamli xaritalar yaratish jarayoni tahlil qilinadi. Zamonaviy texnologiyalar, jumladan, GPS va GIS (Geografik Axborot Tizimlari) yordamida, dehqonchilik yerlarining ma'lumotlari to'planadi va tahlil etiladi. Elektron xaritalar, yerlar haqida aniq va dolzarb ma'lumotlar taqdim etish orqali, agronomlar va dehqonlarga samarali qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Dehqon xo'jaligi, Elektron raqamli xarita, Geografik Axborot Tizimlari (GIS), GPS, Tuproq turi, Ekin maydonlari.

Аннотация В данном исследовании анализируется процесс создания электронных цифровых карт в аграрном секторе. С помощью современных технологий, включая GPS и ГИС (географические информационные системы), собираются и анализируются данные о сельскохозяйственных землях.


Ключевые слова: Сельское хозяйство, Электронная цифровая карта, Географические информационные системы (ГИС), GPS, Тип почвы, Возделываемые земли.

Annotation This study analyzes the process of creating electronic digital maps in the agricultural sector. With the help of modern technologies, including GPS and GIS (Geographic Information Systems), agricultural land data is collected and analyzed. Electronic maps enable agronomists and farmers to make effective decisions by providing accurate and up-to-date land information.

Keywords: Agriculture, Electronic digital map, Geographic Information Systems (GIS), GPS, Soil type, Cropland, Agrotechnics.

Kirish. Dehqon xo'jaligi yerlarini elektron raqamli xaritasini shakllantirish dehqon xo'jaligini elektron xaritalash jarayoniga oid bo'lib, bu yerda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali dehqonchilikka oid ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va vizualizatsiya qilish jarayonlari haqida so'z yuritilmoqda. Bu jarayon asosan quyidagi bosqichlardan iborat [1].

1. Ma'lumotlarni yig'ish: Dehqon xo'jaligiga oid ma'lumotlarni yig'ish uchun GPS, GIS (Geografik Axborot Tizimlari) va boshqa texnologiyalardan foydalaniladi. Bu usullar yordamida yerning joylashuvi, tuproq turi, ekin holati, iqlim sharoitlari va boshqa kerakli ma'lumotlar to'planadi [2].
2. Ma'lumotlarni tahlil qilish: Yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilish orqali dehqonchilik faoliyatini yanada samarali olib borish imkoniyatlari o'rganiladi. Bu tahlil orqali ekinlarni ekish va parvarish qilishda qanday strategiyalarni qo'llash haqida qarorlar qabul qilinadi.
3. Xarita yaratish: Tahlil qilingan ma'lumotlar asosida elektron xaritalar yaratiladi. Bu xaritalar turli platformalarda ko'rsatilishi mumkin, masalan, mobil ilovalar yoki onlayn xarita xizmatlari orqali. Xaritalarda ekin maydonlari, ularning holati, agrotexnik tadbirlar va boshqa muhim ma'lumotlar ko'rsatiladi.[3]



1-rasm. Geoaxborot tizimining muhim tizimlari.

4. Foydalanish va boshqarish: Elektron xaritalar orqali dehqonlar va agronomlar o'z xo'jaliklarini yanada samarali ravishda boshqarishlari mumkin. Masalan, ularni ekinlarni ekish vaqtida, o'g'itlash, sug'orish, va kuzatuv jarayonlarida to'g'ri qarorlar qabul qilishda yordam beradi [4].

5. Innovatsiyalar va yangiliklar: Elektron xaritalar va geografik axborot tizimlaridan foydalanish dehqonchilik sohasidagi innovatsiyalarni rag'batlantiradi, bu esa resurslardan samarali foydalanish va barqaror rivojlanishni ta'minlaydi.

Geoaxborot tizimining tarkibiy qismlari. GATni ta'riflashning yana bir usuli to'g'risida ma'lumot marbl va pikue (marble & pequet, 1983) tomonidan berilgan. bunga ko'ra, GATning o'zi ham tizimlarga bo'linadi va ular quyidagilar:

1. Ma'lumotlarni to'plash tizimi. Bu tizimda ma'lumotlar turli xil manbalardan olinadi va boshlang'ich qayta ishlov amalga oshiriladi. bu tizimning asosiy vazifasi turli xil fazoviy ma'lumotlarni o'zgartirish (rastr ko'rinishdan vektor ko'rinishiga keltirish) dan iboratdir.


2. Ma'lumotlarni saqlash va ajratish tizimi. Tizimning asosiy vazifasi fazoviy ma'lumotlarni ajratish, yangilash va tahrir qilishdan iborat.

3. Ma'lumotlarni boshqarish va tahlil qilish tizimi. Tunda turli masalalarni hal qilish uchun ma'lumotlar guruhlanadi, ajratiladi va modellashtiriladi [5].

4. Ma'lumotni chiqarish tizimi. To'liq yoki qisman ma'lumotlar bazasi jadval, diagramma yoki karta ko'rinishida tasvirlanib, bosmaga chiqariladi yoki foydalanuvchining talabiga ko'ra elektron yoki qog'ozli ma'lumot ko'rinishida beriladi.

Yuqoridagi to'rtta tizim GATning ajralmas va amalga oshirilishi shart bo'lgan muhim tizimlaridir. Barcha jarayonlar mana shu tizim ichida amalga oshiriladi va bunda ham, albatta, inson omili juda muhim rol o'ynaydi [6].

Geoaxborot tizimida geofazoviy ma'lumotlar bilan ishlashda uning besh tarkibiy qismi yoki komponentlari muhim sanaladi. bu kompyuter tizimi, dasturiy ta'minot, insoniy resurslar, ma'lumot, tahliliy jarayonlar va zaruriy infratuzilmalardir [1].



2-mavzu. Mavzuli geoaxborot tizimi kartasi (Manba: Internet).

GATdan foydalanishning ba'zi afzalliklari:

1. Keng miqyosli qamrov: Masofadan zondlash muzliklar va ularning atrofidagi muhitlarni har tomonlama qamrab olish imkonini beruvchi katta hududlarda ma'lumotlarni olish imkoniyatini beradi. Bu muzliklar dinamikasi va o'zgarishlarini yaxlit tushunish imkonini beradi. [8]

2. Vaqt seriyali tahlili: Masofadan zondlash ma'lumotlari, masalan, sun'iy yo'ldosh tasvirlari vaqt o'tishi bilan to'planishi mumkin, bu esa vaqt seriyali ma'lumotlar to'plamini yaratadi.

3. Muzliklarni xaritalash va o'zgarishlarni aniqlash va multi-Sensor ma'lumotlar sintezi: Masofadan zondlash optik, termal va radar sensorlari kabi bir nechta sensorlar va platformalardan ma'lumotlarni birlashtirish imkonini beradi. Masofadan zondlash texnikasi yordamida muzlik darajasi, muz qalinligi va sirt sharoitlaridagi o'zgarishlarni aniq aniqlash va kuzatish mumkin.[7]

4. Muzliklar massasi muvozanatini baholash: Masofadan zondlash ma'lumotlari muzliklar massasi muvozanatini baholash uchun ishlatilishi mumkin, bu muzliklar salomatligi va iqlim o'zgarishiga javob berishning muhim ko'rsatkichidir. [9]

5. Yordamchi ma'lumotlar bilan integratsiya: Masofadan zondlash va GAT iqlim yozuvlari, meteorologik ma'lumotlar va gidrologik ma'lumotlar kabi boshqa ma'lumotlar to'plamlari bilan birlashtirilishi mumkin.

6. Qarorlarni qo'llab-quvvatlash tizimlari va Foydalanish imkoniyati va iqtisodiy samaradorlik: GAT platformalari muzliklar bilan bog'liq ma'lumotlarni tashkil qilish, tahlil qilish va vizualizatsiya qilish uchun fazoviy asosni ta'minlaydi.

Adabiyotlar

- [1]. Boltayev T.X., Raxmonov Q., Akbarov M. S. GEOAXBOROT TIZIMINING ILMIY ASOSLARI O'quv qo'llanma, TOSHKENT – 2015
- [2]. Muhitdinov D.K., Akbarov M.S., "Fotogrammetriya", "Istiqlol", Toshkent-2013.
- [3]. Raxmonov Q, Boltayev T.X., Akbarov O.M., "Geoaxborot tizimining ilmiy asoslari", O'quv qo'llanma, Toshkent 2019.
- [4]. Sayidqosimov S.S. "Marksheyderiyada geoaxborot tizimlar", Toshkent 2020.

Internet manbaalari:

- [1]. www.stat.uz
- [2]. <https://www.kun.uz>
- [3]. <https://www.bing.com>
- [4]. <https://www.yuz.uz>
- [5]. Staff.tiame.uz.

RAQAMLI XARITALARNI ArcGIS DASTURIDA AVTOMATLASHTIRILGAN MA'LUMOTLAR BANKIDAN FOYDALANISH

L.M. Qosimov

Farg'ona politexnika instituti,

Email: Lazizbek.Qosimov.4717@gmail.com, (tel: 97 8201703

(Qabul qilindi 22.02.2025 y.)

Annotatsiya. Jahonda va uning turli mintaqalarida kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni zamonaviy GAT (geoaxborot tizim va texnologiyalari) asosida raqamli xaritalarni yaratish, vizuallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, avtomatlashtirilgan ma'lumotlar bankini o'rganish, tahlil qilishda kartografik ta'minlash uslublaridan keng foydalanish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada, jumladan, jahonning rivojlangan davlatlarida iqtisodiyotni rivojlantirish bilan bog'liq qishloq xo'jaligi, tabiiy va ijtimoiy - iqtisodiy muammolarni o'rganishda ham avtomatlashtirilgan ma'lumotlar bankii elektron xaritalari yordamida hudud to'g'risida ishonchli ma'lumotlar olishni ta'minlash hozirgi zamon xaritalashtirishining dolzarb vazifalari sifatida alohida e'tibor qaratilgan. Jahon xaritalashtirishda turli soxalar, jumladan qishloq xo'jaligi tarmoqlarini xaritalashtirishda zamonaviy geoaxborot tizim va texnologiyalaridan foydalanib, ma'lumotlarni to'plash, saqlash, tahlil qilish, qayta ishlash, baholash hamda geoma'lumotlar bazasini yaratish asosida ma'lumotlarni vizuallashtirish hamda elektron xaritalarni tuzishning samarali uslublarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan maqsadli ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu maqolada, jumladan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini inobatga olgan holda qishloq xo'jaligi sohasini tavsiflovchi elektron xaritalarini tuzish uslubini takomillashtirishda

geoaxborot tizim va kartografik ta'minlash usullarining zamonaviy texnologiyalarini ishlab chiqishning muhim vazifalari haqida so'z yuritiladi.

Tayanch so'zlar: elektron xarita, geoaxborot tizim, tahlil qilish, qayta ishlash, masofadan zondlash, dasturlash platformalari, ma'lumotlar banki.

Абстрактный. Создание и визуализация цифровых карт на основе современных ГИС (геоинформационных систем и технологий) социально-экономических процессов, происходящих в мире и его различных регионах, имеет большое значение. Также одним из важных вопросов является широкое использование методов картографического обеспечения при изучении и анализе автоматизированных банков данных. В этой связи, в том числе при изучении аграрных, природных и социально-экономических проблем, связанных с развитием экономики развитых стран мира, особое внимание уделяется обеспечению достоверной информацией о территории с использованием электронных карт автоматизированных банков данных, как актуальной задаче современного картографирования. В картографии мира большое внимание уделяется проведению целевых научных исследований, направленных на разработку эффективных методов визуализации данных и электронного картографирования на основе использования современных геоинформационных систем и технологий при картографировании различных отраслей, в том числе аграрного сектора, и создании баз геоданных. В статье рассматриваются важные задачи развития современных технологий геоинформационных систем и методов картографического обеспечения, в том числе совершенствование методики создания электронных карт, характеризующих аграрный сектор с учетом социально-экономических условий.

Ключевые слова: электронная карта, геоинформационная система, анализ, обработка, дистанционное зондирование, программные платформы, банк данных.

Abstract. The creation and visualization of digital maps based on modern GIS (geoinformation systems and technologies) of socio-economic processes taking place in the world and its various regions is of great importance. Also, the widespread use of cartographic support methods in the study and analysis of automated data banks is one of the important issues. In this regard, including in the study of agricultural, natural and socio-economic problems related to the development of the economy in developed countries of the world, special attention is paid to ensuring reliable information about the territory using electronic maps of automated data banks as an urgent task of modern mapping. In world mapping, great attention is paid to conducting targeted scientific research aimed at developing effective methods for collecting, storing, analyzing, processing, evaluating data and creating a geodatabase using modern geoinformation systems and technologies in mapping various sectors, including agricultural sectors. This article discusses the important tasks of developing modern technologies of geoinformation systems and cartographic support methods, including improving the method of creating electronic maps characterizing the agricultural sector, taking into account socio-economic conditions.

Keywords: electronic map, geoinformation system, analysis, processing, remote sensing, programming platforms, data bank.

Kirish. Hozirgi vaqtda kompyuter va axborot texnologiyalari, telekommunikasiyalar tarmoqlari, ma'lumotlar uzatilishi Internet xizmatlariga kirib borishini rivojlantirish va zamonaviylashtirish respublikamizda ustuvor o'rinlarga chiqmoqda. Iqtisodiyot tarmoqlari va jamiyatda axborot almashish tezkorligi, jahon axborot manbaalariga kirib borishiga yuqori ehtiyoj, ta'lim jarayonlarini va kishilarning kundalik turmushni kompyuterlashtirish zaruriyati, shuningdek, axborot va ma'lumotlar bazasi saqlanishini ta'minlash ehtiyoji judayam muhim hisoblanadi.

Asosiy qism. Aloqa va axborotlashtirish tizimidagi kompaniyalar, jamiyatlar va korxonalar tomonidan axborot kommunikasiya texnologiyalarini rivojlantirishga oid hukumat qarorlari bilan belgilangan dasturlar va tadbirlarning bajarilishini ta'minlash bo'yicha mamlakatimizda hozirga qadar muayyan ishlar olib borildi va quyidagi ko'rsatkichlarga erishildi.

Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikasiya texnologiyalari davlat qo'mitasining 2021 yil yanvar oyi ma'lumotlariga ko'ra respublikamizda AKTning joriy etilishi va rivojlantirilishi bo'yicha quyidagi ko'rsatkichlar mavjud:

- ATS larning barchasi raqamli xizmat ko'rsatishga o'tkazildi;
- xalqaro internet tarmog'iga ulanish tezligi 11,2 Gbit\sek;
- operator va provayderlar umumiy soni 924 ta;
- «UZ» domenlar 17400 ta;

- dasturiy ta’minot ishlab chiqarish bilan shug’ullanuvchi xo’jalik sub’yektlar 274 ta;
- yillik ro’yxatga olinadigan dasturiy ta’minotlar 208 ta;
- elektron raqamli imzo kalitlari va sertifikatlar 376000 ta;
- davlat axborot resurslari 195 ta;
- davlat axborot tizimlari 110 ta;
- davlat interaktiv xizmatlari 194 ta;

Yuqorida keltirilgan telekommunikasiya va ma’lumotlar bankilarini davlat ro’yxatidan o’tkazish, ularning yuridik manzilini aniqlash, xizmat ko’rsatish sifatini o’rganish, ob’yektlarni iqtisodiy baholash va barcha kadastr ma’lumotlarini to’plash hamda ularni ma’lumotlar bazasini shakllantirish maqsadida ma’lumotlar bankilari kadastrini yuritish lozimligini ko’rsatadi. Ma’lumotlar bankilarining barcha turlari boshlang’ich ro’yxatga kiritiladi. Bunda asosiy ko’rsatkichlar qayd etiladi, ushbu ko’rsatkichlarning tarkibi «Yergeodezkadastr» davlat qo’mitasi bilan kelishgan holda O’zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va telekommunikasiyalarini rivojlantirish vazirligi doirasida tasdiqlanadigan tegishli normativ hujjatlar bilan belgilanadi. Ro’yxatga olish natijalari bo’yicha har bir ob’yekt uchun pasport tuziladi. Miqdor va sifat tavsiflarini asosiy hisobga olish va hisobga qo’yish vaqtida foydalanishga topshiriladi va faoliyat ko’rsatayotgan (sanoat maqsadida ishlatilayotgan) har qaysi ma’lumotlar bankii bo’yicha amalga oshiriladi. Ma’lumotlar bankilari tavsiflaridagi keyingi o’zgarishlar joriy hisobga qayd etiladi. Ma’lumotlar bankilarining miqdor va sifat tavsiflarini hisobga olish ularning iqtisodiy, texnologik va ekologik belgilari bo’yicha klassifikatsiya qilishni o’z ichiga oladi, ushbu belgilar tarkibi ma’lumotlar bankilari davlat kadastrini yuritish bo’yicha normativ hujjatlarda o’z aksini topgan.

Bu ishlarni olib borishda ma’lumotlar bankilari kadastrining quyidagilar ob’yekti hisoblanadi:

- xalqaro, shaharlararo, viloyat va tuman telefon-telegraf stansiyalari;
- magistral liniyalari;
- aloqa tarmoq uzellari;
- shahar aloqa tarmoq uzellari,
- tuman telekommunikasiya uzellari va qishloq liniya inshootlari;
- aloqa radioreli liniyalari stansiya va inshootlari;
- yo’ldoshli aloqa stansiyalari;
- qabul qilish – uzatish radiostansiyalari;
- ko’chma ob’yektlarga ega bo’lgan quruqlikdagi radioaloqa stansiyalari shaxsan radiochaqiruv,
- uyali telefon bazaviy stansiyalari;
- radiotelevizion stansiyalar;
- simli eshittirish stansiyalari va tarmoqlari;
- pochta va maxsus ma’lumotlar bankilari

Natija. ArcGIS dasturida avtomatlashtirilgan tizimlari asosida elektron xaritalarini tuzish uslubini takomillashtirish bo’yicha olingan natijalar asosida:

- ArcGIS dasturida avtomatlashtirilgan ma’lumotlar bankidan foydalanib elektron hamda raqamli xaritalashtirish bo’yicha xorijiy hamda mahalliy tajribalar takomillashtirilgan;
- Elektron hamda raqamli xaritalashtirish asosida yerni masofadan zondlash orqali qishloq xo’jaligini xaritaga olishning texnologik tizimi asosida optimallashtirilgan;
- ArcGIS dasturida avtomatlashtirilgan tizimlari yordamida ma’lumotlar bankini yaratish va integratsiya qilishning texnologik tizimini ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan;
- Qishloq xo’jaligi elektron hamda raqamli xaritalarini yaratishning texnologik tizimlari «ArcGIS Online» platformalarini inobatga olib ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, avvalo olingan ilmiy xulosa va tavsiyalar, shuningdek yaratilgan elektron va raqamli xaritalar qishloq xo’jaligi tarmoqlari va infratuzilma ob’yektlarini xaritaga olish orqali qishloq xo’jaligini rivojlantirishga qaratilgan maqsadli davlat dasturlarini hamda amaliy chora - tadbirlarni ishlab chiqish bilan izohlanadi.

Xulosa. Bajarilgan tadqiqot asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Ma'lumotlar bankilarida elektron va raqamli xaritalarni asosiy ko'rsatkichlarini ma'lumotlar bankilarining manzili, koordinata bo'yicha joylashishi, yer uchastkasi ma'lumotlari, texnik jihozlanganligi, tarmoqlarning xizmat ko'rsatish zonalari, ekologik holati va ob'yektning iqtisodiy ko'rsatkichlari tashkil etadi.
2. Zamonaviy GAT texnologiyalari elektron va raqamli xaritalarni shakllantirishda hamda muayyan tashkilot yoki jamoa oldida turgan vazifalarni bajarishda va muammolarni tahlil qilishda samarali yondashuvdir. Ma'lumotlar bankilari ma'lumotlarini avtomatik raqamlash, kartografik qatlamlarini ifodalash va bashoratlashda ma'lumotlar koordinatalari bo'yicha topografik asosga tushirildi va kadastr yagona tizimiga taqdim etishda har bir ob'yekt koordinatalari bo'yicha o'zaro ustma-ust tushishini ta'minlaydi.
3. Ma'lumotlar banklari elektron va raqamli xaritalarni dasturlarini ishlab chiqishda yagona interaktiv karta yaratilishi bilan bog'liq bo'lgan loyihalar va birinchi navbatda, Yer kadastr va bino-inshootlar kadastr kartografik tizimlariga bog'liq holda amalga oshirildi va kadastrni yuritish ularni kartografik ta'minlash algoritmi ishlab chiqildi. Ma'lumotlar bankilari kadastrni yuritish va xaritalarni shakllantirish algoritmini ishlab chiqishda asosiy e'tibor kartografik modellarga va ma'lumotlar bankilari tizimiga qaratilib, o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan uch bosqichli tizim yaratildi.

Adabiyotlar

- [1]. O'zbekiston Respublikasining "Davlat kadastrlari to'g'risida"gi qonuni 2000 yil 15 dekabr № 171-II
- [2]. O'zbekiston Respublikasining "Telekommunikatsiya to'g'risida"gi qonuni 20.08.1999 yil 20 avgust № 822- I
- [3]. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 16 fevraldagi 66-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat kadastrlari yagona tizimi (DKYAT)ni yaratish va yuritish tartibi to'g'risidagi Nizom"
- [4]. O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining "Ma'lumotlar bankilari davlat kadastrni yuritish tartibi to'g'risida Nizomi"ni tasdiqlash haqidagi 2005 yil 30 iyundagi 152-son qarori.
- [5]. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PQ 1730-sonli qarori (2012 yil, mart)
- [6]. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
- [7]. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017. – 104 b.
- [8]. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi. – T.: O'zbekiston, 2017. – 48 b.
- [9]. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2017.«Gazeta.uz»
- [10]. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O'zbekiston, 2010. – 80 b.

FARGONA VILOYATI TARIXIY SHAHAR MARKAZLARINI QAYTA TIKLASH

A.Y. Rasulov¹, J.O. No'monov²

¹Farg'ona politexnika instituti

²Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti
(Qabul qilindi 22.02.2025 y.)

Anotatsiya: Ushbu maqolada Farg'ona viloyatidagi tarixiy shahar markazlarini qayta tiklash va arxitektura sohasidagi yangilanishlar muhokama qilinadi. Farg'ona viloyatining tarixiy shaharlarining me'moriy obidalari, Buyuk Ipak Yo'li bo'yida joylashgan savdo va madaniyat markazlari sifatida rivojlangan. Tarixiy shaharlarning arxitektura uslublari, o'zaro aloqalar va madaniy almashinuvlar natijasida shakllangan. Maqolada shuningdek, tarixiy obidalarni saqlash

va qayta tiklashda qo'llaniladigan zamonaviy yondashuvlar, shu jumladan konservatsiya, restavratsiya, integratsiya va yashil dizayn kabi yondashuvlar ko'rib chiqiladi.

Tayanch so'zlar: arxitektura, me'moriy obidalar, tarixiy yodgorliklar, konservatsiya, restavratsiya, savdo markazlari, madaniyat markazlari, me'moriy ansambllar, zamonaviy shaharsozlik, ekologik dizayn, yashil dizayn, turizm, madaniy meros, shahar qayta tiklash, integratsiya, arxitektura uslublari.

Аннотация: В данной статье рассматривается восстановление исторических центров городов Ферганской области и обновления в области архитектуры. Архитектурные памятники исторических городов Ферганской области развивались как торговые и культурные центры, расположенные вдоль Великого Шелкового пути. Архитектурные стили исторических городов сформировались в результате взаимодействий и культурных обменов. В статье также рассматриваются современные подходы к сохранению и реставрации исторического наследия, включая консервацию, реставрацию, интеграцию и зеленый дизайн.

Ключевые слова: архитектура, памятники архитектуры, исторические памятники, консервация, реставрация, торговые центры, культурные центры, архитектурные ансамбли, современное градостроительство, экологический дизайн, зеленый дизайн, туризм, культурное наследие, городское возрождение, интеграция, архитектурные стили.

Abstract: This article discusses the restoration of historical city centers in Fergana region and updates in the field of architecture. Architectural monuments of historical cities of Fergana region developed as trade and cultural centers located along the Great Silk Road. Architectural styles of historical cities were formed as a result of interactions and cultural exchanges. The article also examines contemporary approaches to historic preservation and restoration, including conservation, restoration, integration, and green design.

Key words: architecture, architectural monuments, historical monuments, conservation, restoration, shopping centers, cultural centers, architectural ensembles, modern urban planning, ecological design, green design, tourism, cultural heritage, urban regeneration, integration, architectural styles.

Farg'ona viloyatidagi tarixiy shahar markazlarini qayta tiklash va arxitektura sohasidagi yangilanishlar, nafaqat o'tmishning madaniy merosini saqlash, balki zamonaviy shaharsozlikning yangi talablariga mos ravishda rivojlantirishga ham katta hissa qo'shmoqda. Bu jarayonlar shaharlarning o'ziga xos me'moriy uslublarni saqlagan holda, ularga yangi hayot baxsh etish imkonini yaratadi. Quyida Farg'ona viloyatidagi tarixiy shahar markazlarini qayta tiklash va arxitektura sohasidagi yangilanishlarga oid qo'shimcha ma'lumotlar taqdim etiladi.

Farg'ona viloyati shaharlarining me'moriy yodgorliklari va tarixiy obidalari, o'zining noyob xususiyatlari bilan ajralib turadi. Asosan, bu hududda tarixiy shaharlarning arxitekturasiga quyidagi xususiyatlar xos:

- **Savdo va madaniyat markazlari:** Farg'ona viloyati o'tmishda Buyuk Ipak Yo'li bo'yida joylashgan bo'lib, bu shaharlar savdo, ilm-fan va madaniyat markazlari sifatida xizmat qilgan. Shaharlarning me'moriy uslublari, o'zaro aloqalar va madaniy almashinuvlarning natijasi sifatida rivojlangan. Masalan, Qo'qon shahridagi xon saroylari va madrasalar, Marg'ilonning ipak ishlab chiqarish an'analari, me'moriy obidalar va binolar o'sha davrning boy madaniy merosini aks ettiradi.
- **Me'moriy ansambllar:** Tarixiy shaharlarning ko'plab obidalari, birgalikda joylashgan va bir-birini to'ldiruvchi me'moriy ansambllarni tashkil etadi. Bu ansambllar ko'pincha masjidlar, madrasa komplekslari, minora va boshqa diniy yoki ilmiy inshootlardan iborat bo'lgan. Shu tarzda, tarixiy shaharlar nafaqat ma'naviy markazlar, balki zamonning ilmiy va madaniy rivojlanishining namunasi sifatida xizmat qilgan.

- **Архитектура услublari:** Farg'ona viloyatining arxitekturasiga asoslangan bo'lib, unda arab, fors, turk va markaziy osiyolik me'moriy elementlarining uyg'unlashuvi aks etadi. Bu yerda ko'plab masjidlar va madrasa binolari, ochiq hovlilar, yuqori minora va ko'p qirrali kupol strukturalari uchraydi. Farg'ona va Qo'qon shaharlaridagi me'moriy obidalar, o'ziga xos naqshinkor detallar va monumental elementlar bilan ajralib turadi.

Tarixiy shahar markazlarini qayta tiklashda zamonaviy arxitektura yondashuvlari va eski uslublar o'rtasida muvozanatni ta'minlash muhimdir. Qayta tiklash jarayonida quyidagi yondashuvlar mavjud:

- **Tarix va konservatsiya:** Tarixiy obidalarni saqlashda eng ko'p qo'llaniladigan yondashuv — bu konservatsiya va restavratsiya uslublaridir. Bu uslubda, me'moriy obidalar asliyatiga zarar yetkazmasdan, ularning tashqi ko'rinishini tiklashga e'tibor qaratiladi. Binolarni tiklashda eski materiallar va qurilish texnologiyalaridan foydalanish, asli ko'rinishlarini saqlashga imkon beradi.
- **Integratsiya va adaptatsiya:** Tarixiy obidalar va zamonaviy inshootlarni uyg'unlashtirish jarayoni. Zamonaviy me'moriy elementlarni tarixiy obidalar bilan birgalikda qo'llash, shaharni yangilash va zamon talablariga moslashtirishga yordam beradi. Bu, o'z navbatida, tarixiy obidalar va yangi qurilishlar o'rtasida vizual va funksional uyg'unlikni ta'minlashga yordam beradi.
- **Yashil va barqaror dizayn:** Farg'ona viloyatidagi shahar markazlarini qayta tiklashda ekologik jihatlariga e'tibor berilishi muhimdir. Shaharlarni yangilashda yashil hududlar yaratish, energiya samaradorligi va atrof-muhitga zarar yetkazmaslik prinsiplariga rioya qilish kerak. Arxitektura bunday yangiliklar shaharni nafaqat tarixiy jihatdan, balki ekologik jihatdan ham barqaror qiladi.

Farg'ona viloyatining tarixiy shahar markazlarida quyidagi arxitektura obidalari mavjud bo'lib, ular qayta tiklash jarayonining asosiy nuqtalarini tashkil etadi:

- **Qo'qon xonligi saroyi:** Qo'qon shahridagi xon saroyi, o'zining me'moriy yaxlitligi va go'zalligi bilan ajralib turadi. Ushbu saroyda amalga oshirilgan restavratsiya ishlari, o'sha davrning madaniy hayotini aks ettiradi. Qo'qon xonligi saroyi, faqat shahar markazining arxitekturasiga uchun emas, balki butun viloyatning tarixiy va madaniy merosi uchun katta ahamiyatga ega.
- **Marg'ilon madrasasi va masjidi:** Marg'ilon shahridagi madrasalar va masjidlar, o'sha davrning me'moriy ansamblarini tashkil etadi. Marg'ilonning arxitektura obidalari, ipakchilik va boshqa hunarmandchilik an'analari bilan uyg'unlashgan holda qayta tiklanmoqda. Bu obidalar nafaqat tarixiy yodgorliklar, balki zamonaviy turizm markazlari sifatida rivojlanmoqda.
- **Farg'ona markazi:** Farg'ona shahri markazida ko'plab tarixiy va madaniy obidalar mavjud. Shaharni qayta tiklashda, eski me'moriy elementlar saqlanib qolgan holda, zamonaviy infratuzilma elementlari qo'llanilmoqda.

Farg'ona viloyatining tarixiy shaharlarini qayta tiklashda arxitektura nafaqat madaniy merosni saqlash, balki turizmni rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Tarixiy shahar markazlaridagi arxitektura yodgorliklari, sayyohlarni jalb qilishda katta ahamiyatga ega. Arxitektura va madaniy obidalar, turistik yo'llar va ekskursiyalarni tashkil etish orqali shaharlar nafaqat mahalliy, balki xalqaro miqyosda tanilishga yordam beradi.

Shaharlarning qayta tiklanishi, turizm sohasida yangi ish o'rinlari yaratadi va iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantiradi. Yangi mehmonxona komplekslari, restoranlar, kafe va boshqa turistik infratuzilma tarmoqlari shaharlarni yangilashning muhim qismidir.

Xulosa

Farg'ona viloyatidagi tarixiy shahar markazlarini qayta tiklash jarayonida arxitektura asosiy rol o'ynaydi. Tarixiy obidalar va zamonaviy arxitektura elementlarining uyg'unlashuvi, shaharlarning madaniy merosini saqlashga, iqtisodiy va ekologik rivojlanishga hissa qo'shadi. Shuningdek, bu jarayon turizmning rivojlanishiga yordam beradi, shaharlar global miqyosda tanilib, yangi imkoniyatlarga ega bo'ladi. Farg'ona viloyatidagi arxitektura obidalari va shaharlarning qayta tiklanishi nafaqat o'tmish, balki kelajak uchun ham katta ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

- [1]. H. A. Muxtorov, "Farg'ona viloyatining tarixiy obidalari va arxitekturasi", Farg'ona Davlat Universiteti, 2018.
- [2]. A. T. Shamsiev, "Markaziy Osiyo arxitekturasi rivojlanish tarixi", Tashkent, 2015.
- [3]. M. X. Sadiqov, "Shaharsozlik va arxitektura: Tarix va zamonaviy yondashuvlar", O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2020.
- [4]. F. A. Jumaev, "Buyuk Ipak Yo'li: Tarixiy va madaniy meros", Marg'ilon, 2016.
- [5]. N. B. Karimova, "Farg'ona viloyatining madaniy merosi: Yangi yondashuvlar va istiqbollar", Tashkent, 2019.
- [6]. B. Sh. Abdurahmonov, "Arxitektura va shaharsozlik: Asosiy prinsiplari", Tashkent, 2017.
- [7]. UNESCO, "World Heritage Sites in Central Asia", UNESCO Publishing, 2013.
- [8]. E. F. Istomin, "Shahar markazlarini qayta tiklashda ekologik va barqaror yondashuvlar", Tashkent, 2021.

AXBOROT-PSIXOLOGIK TA'SIR KO'RSATISHNING ZAMONAVIY MODELLARI HAMDA ULARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Z.Z. Fozilov

«Shorsuv» o'quv markazi o'quv-uslubiy bo'limi
[\(Qabul qilindi 22.02.2025 y.\)](#)

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy axborot-psixologik makonda harbiy xizmatchi ongi va shuurini egallash uchun mo'ljallangan axborot-psixologik ta'sir ko'rsatish modelлари to'g'risida fikr yuritamiz.

Tayanch so'zlar: axborot-psixologik makon, model, axborot-psixologik ta'sir.

Аннотация. В данной статье мы рассмотрим методы информационно-психологического воздействия, направленные на овладение разумом и сознанием военнослужащего в современном информационно-психологическом пространстве.

Ключевые слова: информационно-психологическое пространство, модель, информационно-психологическое воздействие.

Abstract. In this article, we will examine methods of information-psychological influence aimed at mastering the mind and consciousness of a military serviceman in the modern information-psychological space.

Keywords: information-psychological space, model, information-psychological impact.

Har bir shaxsning kundalik turmushi, shuningdek hodimlar tomonidan xizmat jangovar vazifalarni bajarishda individual xavfsizlik masalasi muhim ahamiyat kasb etib, avvalo uning ruhiyati axborot-psixologik makondagi (APM) ta'sirlardan qay darajada himoya qilinganligi bilan bog'liq bo'lib bormoqda.

APMdagi "hukmronlik va jamiyatning ijtimoiy boshqaruvini qo'lga kiritish" texnologiyalaridan ko'zlangan asosiy maqsad, ta'sir sub'ektlari tomonidan ta'sir ob'ektlari ruhiyati, ongi va qalbini egallash uchun kam vaqt va oz miqdordagi kuchni sarf qilib, katta imkoniyatlarga ega bo'lishdan iboratdir. Ushbu texnologiyalar ta'sir sub'ektlarining iqtisodiy, siyosiy, harbiy va boshqa manfaatlarini qondirilishida axborot-psixologik makondagi ta'sir ob'ektlari ruhiyatini

bo'lajak xatti-harakatlarga tayyorlash, ob'ektlar tomonidan sub'ektning har qanday xatti-harakatlariga moyilligini oshirish uchun xizmat qilib, zarur hollarda sub'ektning o'z maqsadlariga erishish yo'lida ta'sir ob'ektning shaxsiy kuchidan foydalanish imkoniyati yaratilishini ta'minlaydi.

Globalashuv sur'atlarining o'sishi bilan harbiy xizmatchining axborot-psixologik xavfsizligiga ta'sir ko'rsatish, uning ongi va ruhiyatini manipulyatsiya qilish tobora avjiga chiqib, u jamiyat hayotining barcha sohalarini o'ziga qamrab olmoqda. Misol tariqasida, ayrim iste'mol tovarlarining oddiy reklamalari, yoki mashhur qo'shiqchi tomonidan ishlangan video kliplar zahirida inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsatadigan, uni ma'lum bir g'oyaga moyilligini orttirishga qaratilgan, inson hissiyoti orqali uning xatti-harakatlarini boshqarishga va uning qadriyatlariga ta'sir ko'rsatishga yo'naltirilgan texnologiyalar turganligini ko'rishimiz mumkin.

Axborot-psixologik operatsiyalar asrimizda dunyoda ro'y berayotgan harbiy mojarolardagi jangovar operatsiyalarning ajralmas va o'ta muhim komponenti sifatida takomillashib bormoqda. APOning o'ziga xosligi shundan iboratki, u jangovar operatsiyalarning bir komponenti yoki alohida mustaqil operatsiya sifatida taktik, operativ va strategik maqsadlarga erishish imkoniyatlarini yaratmoqda.

Bugungi kunda APM inson ongi va ruhiyatiga ta'sir o'tkazishning quyidagi zamonaviy modellari mavjud bo'lib, ular o'zlarining sivilizatsion tegishliligi va ta'sir ko'rsatish tamoyillari bilan farqlansa-da, lekin ayrim hollarda bir-birlarini takrorlaydilar va uyg'unlikda qo'llanilish amaliyoti uchrab turadi:

Anglo-sakson modeli. Axborot-psixologik ta'sir ko'rsatishda mazkur modeldan AQSh, Angliya va Britaniya ittifoqi davlatlari keng foydalanib kelmoqda. Ushbu modelning o'ziga xosligi shundan iboratki, uning vakillari tomonidan ta'sir kuchi qaratilgan ob'ektning madaniyati va turmush tarzini o'zgartirishga erishish uning fikri va ongini har qanday tomonga o'zgartirish uchun sharoit sifatida qabul qilinadi. Axborot-psixologik ta'sir (APT) o'tkazishda OAV imkoniyatlaridan keng foydalanilgan holda o'z turmush tarzini, fan va texnologiyalardagi yutuqlari hamda "demokratiyasini" targ'ib qilish orqali o'z manfaatlarini qondirishni mo'ljallaydi. Mazkur model vakillari texnologiyalarini o'rganish borasida tadqiqot olib borgan mutaxassis A.Monoylaning ta'kidlashicha, dunyoda ro'y berayotgan har qanday ijtimoiy-siyosiy voqealarga anglo-sakson modeli vakillari protestantlik nuqtai nazaridan yondashib, bu jarayonlarning asosiy sababini dunyo halqlarining "haqiqiy demokratiyaga intilishida" deya ta'riflab, muammoning yechimini topishda uchta, ya'ni "kuch ishlatish orqali tinchlik o'rnatish", "yumshoq kuch" va har qanday muammo va mojarolarni hal etishda "bir qutbli" yondashuv konsepsiyalarini olg'a suradilar [1].

Yuqorida qayd etilgan konsepsiyalarning umumlashtirilgan va yanada mukammallashtirilgan ko'rinishini AQSh axborot-psixologik urushlari amaliyotchilaridan biri bo'lgan Djin Sharpp tomonidan yaratilgan texnologiyada ko'rishimiz mumkin [2].

Roman-german modeli vakillariga mansub Germaniya, Fransiya, Italiya va boshqa davlatlarda ishlab chiqilgan axborot-psixologik ta'sir ko'rsatish texnologiyalari zahirida, asosan, ta'sir kuchi qaratilgan jamiyatlarni "dissidentlashtirish" konsepsiyalari turganligini belgilash mumkin. Ta'sir ob'ekti ikki asosiy yo'nalishga, ya'ni axborot-texnik ob'ektlar (aloqa, boshqaruv, kompyuter, telekommunikatsiya va boshqa tizimlar) va axborot-psixologik ob'ektlarga (inson ruhiyati va jamiyat fikri) ajratiladi [3].

Ushbu model vakillari tomonidan axborot-psixologik ta'sirlarni amalga oshirish jarayonlari, ta'sir kuchi qaratilgan ob'ektning jamiyatini "g'arblashtirish" texnologiyalari bilan hamohang ravishda amalga oshiriladi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, axborot-psixologik ekspansiya (*Axborot-psixologik ekspansiya tushunchasi – o'z strategik maqsadlariga erishish uchun APT sub'ekti tomonidan opponentning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, harbiy, madaniy va boshqa sohalariga yashirin ravishda singib kirish jarayonidir.*) ham ilk bor mazkur model vakillari tomonidan muomalaga kiritilgan.

Sharqiy Osiyo modelining o'ziga xosligi shundan iboratki, uning asoschilari bo'lgan XXR, Yaponiya, Vetnam, Tayvan va boshqa davlatlar tomonidan ta'sir ob'ektini toifalarga ajratish hamda har bir auditoriya bilan alohida ish olib borishga katta e'tibor qaratiladi. Jamiyatning

iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa sohalarining ko'rsatkichlari sinchkovlik bilan o'rganiladi. Axborot-psixologik ta'sir ko'rsatish texnologiyalari ta'sir ko'rsatish ob'ektining hayotida muhim ahamiyat kasb etadigan ijtimoiy sohalar orqali bosqichma-bosqich yashirin tarzda amalga oshirishni o'zida mujassam etadi. Bunda Qadimgi Xitoyning harbiy san'at namoyandalari tomonidan ishlab chiqilgan strategiyalarda belgilangan tamoyillar zamonaviy APMda uddaburonlik bilan qo'llaniladi [4].

Yaqin Sharq modeli. Axborot-psixologik ta'sir ko'rsatish texnologiyalari, ta'sir kuchi qaratilgan ob'ektning sivilizatsion kelib chiqishi, uning hayotida boshqa sivilizatsiyalarning o'rni va ahamiyatini hisobga olgan holda amalga oshirishni ko'zda tutadi. Islom diniga mansub ob'ektlarga ta'sir ko'rsatishda asosan inson, jamiyat va davlat o'rtaqidagi diniy munosabatlarga alohida urg'u beriladi. Inson ongi va ruhiyatini manipulyatsiya qilishda psixologiyaning yuksak ko'rsatkichlaridan keng foydalanadi. Yaqin Sharq modelining bosh maqsadi, avvalo, axborot-psixologik ta'sirlar natijasida islom diniga e'tiqod qiladigan odamlar jamiyatini islomlashtirish, so'ngra bu jarayonlarni siyosiy sahnaga olib chiqish va diniy yaqinlik orqali boshqa jamiyatlarni boshqarishdan iboratdir. Yaqin Sharq modelining yana bir o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u boshqa modellar ta'siri qaratilgan ob'ektlardagi axborot-psixologik ta'sirlar holatidan va o'z maqsadiga erishish uchun boshqa modellar xizmatidan foydalanishni ko'zda tutish bilan birgalikda, ularga xizmat qilishni ham o'zida mujassam etadi.

Globallashuv sharoitida jahon hamjamiyatining qator mamlakatlari misolida axborotlashuv jarayonlarining jadallashuvi katta hajmdagi axborotni qabul qila olish, qayta ishlash, o'zlashtirish, uni qo'llash vositalari va usullaridan unumli foydalanish uchun inson to'liq tayyor emasligi muammosini keltirib chiqarayotganligini ko'rishimiz mumkin. Shu bois, axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashda uning manbalarini aniqlash, baholash va bashorat qilish, zamonaviy axborot-psixologik ta'sir ko'rsatish modellarining o'ziga xosligidan kelib chiqib, unga qarshi kurashish chora-tadbirlarini muntazam takomillashtirib borish talab etiladi. Bu borada jamiyat hayotining barcha sohalarida shaxsning axborot-psixologik xavfsizligini nazorat qilish amaliyotini yo'lga qo'yish va ularni davlat hokimiyati organlari, ilmiy-tadqiqot markazlari hamda boshqa institutlar bilan hamkorligini muvofiqlashtirish jamiyatning axborot-psixologik sohasidagi milliy manfaatlarini kafolatli himoya qilinishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

- [1]. Manoylo, A.V. Model informatsionno-psixologicheskoy operatsii v mejdunarodnykh konfliktax / A.V.Manoylo // Pravo i politika. – 2008. – 6s.
- [2]. Sharpp, D. Ot diktatury k demokratii: strategiya i taktika osvobojdeniya. / D. Sharpp. -M.: Novoe izdatelstvo, 2005. – 81s.
- [3]. Budьlin, K.Yu. Informatsionnoe protivoborstvo v voennoy sfere (politologicheskii analiz). Avtoreferat dis. kand. polit. nauk (PhD) : 21.01.09/ K.Yu.Budьlin. - M., 2009. -11s.
- [4]. Konrad, N.I. Sun-Szy. Traktat o voennom iskusstve/ N.I. Konrad. -M., 1950. -38s.

TRANSFORMATORLARNI KUCHLANISHINI ROSTLASH

B.O. Rustamov

*Farg'ona politexnika instituti,
(Qabul qilindi 22.02.2025 y.)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada elektr energetika ta'minoti tizimidagi podstantsiya transformatorlarining nominal kuchlanish qiymatidan chetlanish muammosi atroflicha tahlil qilingan. Transformerlarning yuklama ostida kuchlanishni rostdash qobiliyati va bu jarayonning elektr tarmoqlari barqarorligiga ta'siri batafsil yoritilgan. Maqolada kuchlanishning me'yoridan past yoki yuqori bo'lishi natijasida yuzaga keladigan texnik va iqtisodiy muammolar hamda ularning iste'molchilarga ta'siri haqida ma'lumot berilgan. Bundan tashqari, podstantsiya transformatorlarida yuklama ostida avtomatik kuchlanish rostdash qurilmalarini qo'llash usullari va ularning samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga asoslanib, transformatorlarning kuchlanish rostdash tizimini optimallashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit soʻzlar: Elektr energetika taʼminoti, elektr energiya isteʼmolchilari, podstantsiya, transformator, nominal kuchlanish, yuklama ostida rostlash (YuOR), elektr texnika qurilmalari, avtomatik boshqaruv tizimi, reaktiv quvvat kompensatsiyasi, kuchlanish barqarorligi, yuklama muvozanati, tarmoq samaradorligi, kuchlanishni monitoring qilish, himoya relelari, energetik tizim ishonchliligi.

Аннотация. В данной статье всесторонне анализируется проблема отклонения номинального напряжения подстанционных трансформаторов в системе электроснабжения. Детально рассмотрена способность трансформаторов регулировать напряжение под нагрузкой и влияние этого процесса на стабильность электрических сетей. Приведены технические и экономические проблемы, возникающие из-за пониженного или повышенного напряжения, а также их влияние на потребителей. Кроме того, проанализированы методы применения автоматических устройств регулирования напряжения под нагрузкой в подстанционных трансформаторах и их эффективность. На основе результатов исследования предложены рекомендации по оптимизации системы регулирования напряжения трансформаторов.

Ключевые слова: Электроэнергетическое снабжение, потребители электроэнергии, подстанция, трансформатор, номинальное напряжение, регулирование под нагрузкой (РПН), электротехнические устройства, система автоматического управления, компенсация реактивной мощности, стабильность напряжения, баланс нагрузки, эффективность сети, мониторинг напряжения, релейная защита, надежность энергетической системы.

Abstract. This article comprehensively analyzes the issue of deviations in the nominal voltage of substation transformers within the power supply system. The ability of transformers to regulate voltage under load and the impact of this process on the stability of electrical networks are examined in detail. The article discusses the technical and economic problems caused by overvoltage or undervoltage, as well as their effects on consumers. Furthermore, the methods of applying automatic on-load voltage regulation devices in substation transformers and their efficiency are analyzed. Based on the research findings, recommendations for optimizing the transformer voltage regulation system are proposed.

Keywords: Power supply system, electricity consumers, substation, transformer, nominal voltage, on-load tap changer (OLTC), electrical equipment, automatic control system, reactive power compensation, voltage stability, load balancing, network efficiency, voltage monitoring, relay protection, power system reliability.

Elektr energiya isteʼmolchilari aniq bir nominal kuchlanishda normal ishlaydi. Kuchlanishni nominal qiymatdan kamayib yoki ortib ketishi ishlab chiqarilayotgan maxsulot sifatini pasayishiga, elektr texnika qurilmalarini ishlash muddatinikamayishiga olib keladi. Shuning uchun kuchlanishni nominal qiymatda ushlab turish extiyoji tugʻiladi [1].

Hozirgi vaqtda podstantsiya transformatorlarni yuklama ostida rostlash (YuOR) qurilmasi bilan jihozlangan boʻlib bu qurilma transformatorni yuqori kuchlanish tomonidagi oʻramlar sonini avtomatik qayta ulab kuchlanishni rostlaydi. Yuklama ostida rostlanuvchi transformatorlar qoʻshimcha kuchlanishni avtomatik rostlagich KAR bilan jihozlanadi. Transformator (KAR) qurilmasi bilan birgalikda transformatorni transformatsiya koeffitsientini avtomatik rostlash tizimini vujudga keltiradi. Avtomatik rostlash tizimini asosiy xarakteristikalar:

-rostlash pogʻonasi, $U_n=1,25-2,5\%$;

-sezmaydigan zonasi (DU_{sz})

–bunday kuchlanishni oʻzgarish zonasida rostlagich ishga tushmaydi. Har doim $DU_{sz}>U_n$ boʻlishi kerak;


-rostlash aniqligi-sezmaydigan zona kuchlanishini yarmiga teng kuchlanishnioʻzgarishi bilan xarakterlanadi;

-kechikish vaqti-qisqa vaqtli kuchlanishni oʻzgarishida rostlagichni ishgatushmasligini taʼminlovchi arametr;

-rostlagich ustavkasi-rostlagich tahminlashi zarur boʻlgan kuchlanish.


Grafikda 3 chiziq rostlagich ustavkasi, 5 va 1 sezmaydigan zonalar chegarasi (DU_{sz}) rostlagich harakatga kelishi zarur boʻlgan kuchlanish qiymati bilan aniqlanadi.

Grafikdan ko‘rinadiki, talab etilayotgan kuchlanish qiymati $\pm DU_{sz}/2$ aniqlikda rostlanadi.



1-rasm. Kuchlanishni rostlash jarayoni grafigi.

1-rasmda qaytarish kuchlanishi 2,4 shtrix chiziqlar bilan ko‘rsatilgan. qayta ulanish-agarda kuchlanishni chetlashish vaqti rostlagichni kechikish vaqti (t_1) va yuritma mexanizmini ta’sir vaqti (t_2) yig‘indisidan katta bo‘lsa sodir bo‘ladi. Bunda kuchlanish grafigi m nuqtadan n nuqtaga sakrash bilan o‘zgaradi, yahni kuchlanish rostlash pog‘onasi qiymati (U_n) miqdoriga o‘zgaradi. Elektr energetika tizimida ishlatiladigan transformatorlar kuchlanishini avtomatik rostlash qurilmasini funktsional sxemasi 2-rasmda ko‘rsatilgan. Funktsional sxema o‘lchash (O‘), mantiqiy (M) va bajaruvchi (B) qismlardan iborat [2].



1-rasm. Transformator kuchlanishini avtomatik rostlash qurilmasini funktsional sxemasi.

O‘lchash qismidagi EVR qurilmasi rostlagichni statik xarakteristikasini tahminlaydi. Bu qurilma yuklanish toki qanday qiymatga ega bo‘lishidan qat’iy nazar istehmolchida kuchlanishni belgilangan qiymatda bo‘lishini tahminlaydi. Kuchlanishni o‘lchash organi (KO‘O) kuchlanishni solishtirish elementi (SE) va A1, A2 kuchaytirgichlardan iborat. Solishtirish elementi chiqishdagi kuchlanishni belgilangan kuchlanish bilan solishtiradi va solishtirish farqini ishorasiga ($\pm D$) asosan uni tegishli releli kuchaytirgichga tavsiya etadi. KO‘Oni minimal yoki maksimal kuchlanish relesi, ikki mutloq elektrik qiymatni solishtiruvchi diod sxema asosida yig‘iladi.

Mantiqiy qism vaqtni kutish elementi «EV», «YOKI», «VA» elementlaridan iborat. Kechikish vaqtini yuzaga keltirish rostlagichni qisqa vaqtli kuchlanish o‘zgarishida ishlab ketmasligini tahminlash uchun zarur [4].

Bajaruvchi qism RO1 va RO2 oraliq relelardan iborat bo'lib, kuchlanish oshib ketganda RO2 rele, kamayib ketganda esa RO1 rele ishga tushadi. Elektroenergetika tizimida ishlatiladigan eng ishonchli rostlagichlardan biri ART-1N ti'li rostlagichdir. U podstantsiyalarda kuchlanishni uzluksiz ravishda rostlaydi va unda kuchlanishni ustavka qilish imkoniyati mavjud. ART-1N rostlagich bilan parallel ulangan transformatorni guruhli rostlash va xususiy sxema elementlarini to'g'ri ishlashini nazorat qilish mumkin. Bu rostlagichning ishlash printsiplari yuklama ostida transformatorning bosqichli o'zgartirgichini avtomatik boshqarishga asoslangan. ART-1N zamonaviy mikroprotessorli boshqaruv tizimlari bilan integratsiya qilinishi mumkin, bu esa uning aniq va tezkor ishlashini ta'minlaydi. Shuningdek, u elektr tarmog'idagi kuchlanish tebranishlarini minimallashtirishga yordam beradi va iste'molchilarga barqaror elektr ta'minotini ta'minlaydi [5].

Adabiyotlar

- [1]. Gayibov T.S.H., Shamsutdinov H.F., Pulatov B.M.. Elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash. – T: "Fan va texnologiya", 2015.
- [2]. Даминов А.А., Махмудов Н.М. Функциональные возможности и преимущества микропроцессорной системы воздушных линий // Science Time. – 2016. – № 3 (27). – С. 159- 161.
- [3]. Даминов А.А. Автоматическое управление гидрогенераторов и турбогенераторов электростанции. Инновационные подходы в современной науке: сборник статей по материалам LXXXII международной научно- практической конференции. – Москва, 2020. – № 22 (82). – С. 32-37.
- [4]. 4.Jahon Energetika Kengashi (2018). *Voltage Regulation Techniques in Modern Power Systems*. World Energy Council Report.
- [5]. 5.Gonen, T. (2014). *Electric Power Distribution Engineering* (4th ed.). CRC Press.

UO'K 607.21

YO'LOVCHI TRANSPORTIDA TELEMATIK TIZIMLARINI ZAMONAVIY RIVOJLANISHNI TAHLILI

N.X. Mo'yidinov

*Farg'ona politexnika instituti,
nmoydinov1004@gmail.com
(Qabul qilindi 22.02.2025 y.)*

Anotatsiya. Mazkur maqolada yo'lovchi transporti sohasida telematik tizimlarning ahamiyati, ularning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari, tatbiq etish yo'nalishlari hamda raqamli texnologiyalar asosidagi samaradorlik tahlil qilingan. Shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalar va O'zbekiston sharoitidagi tatbiq etish istiqbollari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: intellektual transport tizimlari, yo'lovchi transporti, aqlli transport, yo'l harakati xavfsizligi, transport infratuzilmasi, sun'iy intellekt, avtonom transport, aqlli svetoforlar.

Аннотация. В статье анализируется значение телематических систем в сфере пассажирского транспорта, современные тенденции их развития, области применения и эффективность на основе цифровых технологий. Также был рассмотрен передовой зарубежный опыт и перспективы его внедрения в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: интеллектуальные транспортные системы, пассажирский транспорт, умный транспорт, безопасность дорожного движения, транспортная инфраструктура, искусственный интеллект, автономный транспорт, умные светофоры.

Abstract. The article analyzes the importance of telematics systems in the field of passenger transportation, modern trends in their development, areas of application and effectiveness based on digital technologies. It also considers advanced foreign experience and the prospects for its implementation in Uzbekistan.

Keywords: intelligent transportation systems, passenger transportation, smart transportation, road safety, transportation infrastructure, artificial intelligence, autonomous transportation, smart traffic lights.

Kirish. XXI asrda transport infratuzilmasining jadal rivojlanishi va aholi sonining ko'payishi


yo‘lovchi tashish tizimlarining zamonaviy, xavfsiz va samarali bo‘lishini talab etmoqda. Bu jarayonda telematik tizimlar transport boshqaruvi va monitoringining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Telematika – bu telekommunikatsiya, informatika va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarining uyg‘unlashuvi bo‘lib, yo‘lovchi transportida ko‘plab qulayliklar yaratadi.

Zamonaviy yo‘lovchi transportida ishlatiladigan telematik tizimlar quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat.

- GPS/GNSS qurilmalari – yo‘lovchi avtobuslarining joylashuvini aniqlaydi va marshrut bo‘yicha harakatini real vaqtda kuzatib boradi.
- Avtomatik yo‘lovchi hisoblagichlar – transport oqimining statistik tahlilini yuritadi.
- Vaqt jadvalini boshqarish modullari – harakat jadvalining aniq bajarilishini ta‘minlaydi.
- IoT qurilmalar – transport vositalarining texnik holatini doimiy monitoring qiladi.
- Mobil ilovalar va axborot panellari – yo‘lovchilar uchun real vaqtda axborot beradi.

Harakatdagi transport vositalari haqida real vaqt rejimida ma‘lumot berish uchun telekommunikatsiya va kompyuter fanlarini birlashtirgan tadqiqot sohasi. Yo‘lovchi tashishda telematik tizimlar xavfsizlik, samaradorlik va umumiy mijozlar tajribasini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu tizimlar avtotransport vositalaridan ma‘lumotlarni to‘playdi, tahlil qiladi va markaziy serverga uzatadi, keyinchalik ularga park operatorlari, haydovchilar va yo‘lovchilar kabi turli manfaatdor tomonlar kirishlari mumkin.

Yo‘lovchi transport tizimida telematik tizimlarga GPS qabul qiluvchilar, mobil telefonlar, harakat sensorlari va boshqa kiradi. Quyidagi rasmlarda barcha yo‘lovchi tashuvchi transport vositalarida qo‘llanilgan telematik uskunalar berilgan.



1-rasm. Yo‘lovchi tashish transportida ishlatilgan telematik tizimlar.

1- shinalardagi bosimlarni nazorat qiluvchi tizim. 2- GLONASS, GPS monitoringi; internet aloqa WiFi, 3-Elektron marshrut belgisi; 4- kamera; 5- mediamarkaz; 6-taxograf, 7- DUT tizimi, 8- signal tugmasi; 9- Online videokuzatuv; 10- dispecherlik markazi; 11- nutq ma‘lumotchilari yetkazuvchi qurilma.

Zamonaviy rivojlanish tendensiyalari.

1. Sun‘iy intellekt (AI) va ma‘lumotlarni katta hajmda qayta ishlash (Big Data).

Yo'lovchi oqimlari, marshrut samaradorligi va texnik nosozliklarni oldindan prognoz qilish uchun ishlatilmoqda.

2. Bulutli texnologiyalar.

Telematik ma'lumotlar bulut serverlarda saqlanadi va tahlil qilinadi, bu esa tizimni markazlashtirish imkonini beradi.

3. 5G va tezkor internet tarmog'i.

Transport vositalari bilan tez va kechikishsiz ma'lumot almashinuvi ta'minlanadi.

4. Energiya tejovchi va ekologik xavfsiz tizimlar bilan integratsiya.

Elektr transport vositalarida energiya sarfini monitoring qilish tizimlari tatbiq etilmoqda.

Xorijiy davlatlarda ishlayotgan tizimlari.

1. Germaniya. AVL (Automatic Vehicle Location) tizimlari orqali har bir avtobus marshrutini boshqaradi.

2. Yaponiya. RFID va aqlli sensorlar yordamida yo'lovchilar oqimini boshqarish yuqori darajada yo'lga qo'yilgan.

3. AQSh. Telematik tizimlar tahlili asosida marshrutlar avtomatik optimallashtiriladi.

Shu bilan birga O'zbekistonda ham yirik shaharlarida, xususan Toshkent shahrida "Toshshahartransxizmat" tomonidan GPS-monitoring, elektron chiptalar, real vaqtda transport axborot tizimlari joriy etilmoqda. Kelajakda quyidagi yo'nalishlarda rivojlanish kutilmoqda.

➤ Respublika miqyosida yagona markazlashgan telematik platforma yaratish;

➤ Sun'iy intellekt asosida yo'lovchi oqimini boshqarish;

➤ Harakat jadvalini suniy intellekt yordamida moslashtirish;

➤ Transport texnik xizmat holatini masofadan tahlil qilish.

Telematik tizimlarning iqtisodiy samaradorligi bu yo'lovchi transportida nafaqat boshqaruvni avtomatlashtiradi, balki transport xizmatlari xarajatlarini kamaytirish, samaradorlikni oshirish va foyda keltirish jihatidan ham muhim rol o'ynaydi. Quyida bu tizimlarning iqtisodiy afzalliklari tahlil qilinadi.

1. Yoqilg'i sarfini kamaytirish

Telematik tizimlar har bir transport vositasi harakatini real vaqtda kuzatib, optimal marshrutni tanlashga yordam beradi. Bu esa:

➤ Bekor yurishlarni kamaytiradi;

➤ Harakatdagi to'xtashlar sonini qisqartiradi;

➤ Dvigatelning nojo'ya ishlash vaqtini kamaytiradi.

Natija. yoqilg'i sarfi 10–20% gacha kamayadi. Masalan, bir avtobus oyiga o'rtacha 1 500 000 so'mlik yoqilg'i sarflasa, telematika orqali bu xarajat 1 200 000 so'mgacha tushishi mumkin.

2. Texnik xizmatlar va ehtiyot qismlar iqtisodoti

Telematik qurilmalar orqali quyidagilar aniqlanadi:

➤ Transport vositasining texnik holati;

➤ Dvigatel harorati, tormoz tizimi bosimi;

➤ Ehtimoliy nosozliklar haqida erta ogohlantirish.

Bu texnik xizmatni rejali va oldindan amalga oshirishga imkon beradi. Natijada.

➤ Qimmatga tushadigan yirik ta'mirlardan saqlanish;

➤ Ehtiyot qismlarni ortiqcha sotib olishga hojat qolmaydi;

➤ Transport vositasi uzoq xizmat qiladi.

3. Ishchi kuchidan samarali foydalanish

Telematik monitoring yordamida:

➤ Haydovchilarning ish vaqti, tezlik, yo'l harakati qoidalariga rioya qilish nazorat qilinadi;

➤ O'zboshimchalik bilan marshrutdan chetlanish oldi olinadi;

➤ Mehnat samaradorligi oshadi.

Natijada bir nechta ortiqcha navbatchiliklar bekor qilinadi yoki marshrutlar optimallashtiriladi.

4. Avtomatlashtirilgan chipta tizimlari orqali tushumni oshirish

Avtomatlashtirilgan elektron to'lov tizimlari:

- Naqd pul oqimini kamaytiradi;
- Chiptasiz (kontraktatsiyasiz) yo'lovchilar sonini keskin kamaytiradi;
- Avtomatik tahlillar asosida tushumlar prognozi tuziladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra: ayrim davlatlarda elektron chipta tizimi joriy etilishi transport tashkilotlari daromadini 15–25% gacha oshirgan.

5. Boshqaruv xarajatlarining kamayishi

Telematik tizimlar ma'lumotlar yig'ish, rejalashtirish va hisobotlarni avtomatlashtiradi. Natijada:

- Qo'shimcha inspektorlar va dispecherlarga ehtiyoj kamayadi;
- Byurokratik tartiblar qisqaradi;
- Inson omilidan kelib chiqadigan xatolar kamayadi.

Xulosa Yo'lovchi transportida telematik tizimlarning zamonaviy rivojlanishi transport xizmatlari sifatini sezilarli darajada oshiradi, yo'lovchilarning vaqtini tejaydi va xavfsizlikni ta'minlaydi. Telematika nafaqat texnologik yangilik, balki transport infratuzilmasini barqaror rivojlantirishning muhim vositasidir. O'zbekistonda bu tizimlarni yanada kengaytirish va raqamli transformatsiyaga moslashtirish orqali transport xizmatlari samaradorligini oshirish mumkin.

Adabiyotlar

- [1]. B.I. Abdullayev "Yo'lovchilarni tashishning zamonaviy texnologiyalari". T.: "Lesson press", 2021, 224b.
- [2]. Грузовые и пассажирские автомобильные перевозки: учебно-методическое пособие для студентов специальности 1-27 02 01 «Транспортная логистика»: в 2 ч. / Д. М. Антюшеня. – Минск : БНТУ. – Ч. 1. – 2020. – 62 с.
- [3]. "Организация автомобильных перевозок" Учебно- методическое пособие. Казань 2020.
- [4]. Public Transport Planning and Management in Developing Countries. Ashish Verma T. V. Ramanayya. 276 p. CRC Press is an imprint of the Taylor & Francis Group, an informa business. New York 2015.
- [5]. B.A.Xo'jayev. Avtomobillarda yuk va yo'lovchilarni tashish asoslari T.: "O'zbekiston", 2002

TO'QIMACHILIK KORXONALARI OMBORLARIDA YONG'INNI AVTOMATIK ANIQLASH, OGOHLANTIRISH VA BARTARAF QILISH TIZIMINING ALGARITMI ISHLAB CHIQISH

O.M. Mamatov, M15-24 magistranti, M.A. Adxamova

*Farg'ona politexnika instituti,
olmosbek_.85@mail.ru
muhlisaadxamova94@gmail.com
(Qabul qilindi 22.02.2025 y.)*

Annotatsiya. Mazkur maqolada to'qimachilik sanoati omborlarida yong'in xavfsizligini ta'minlash uchun avtomatlashtirilgan tizimni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish masalalari yoritilgan. Taklif etilayotgan tizim yong'inni erta aniqlab, real vaqt rejimida ogohlantiradi va o'z-o'zidan yong'in sodir bo'lgan joyni aniqlab, avtomatik ravishda uni bartaraf etadi. Tizim MQ va infraqizil (IR) datchiklar, GSM modul, servo motorlar, klapan va nasoslar yordamida amalga oshiriladi.

Kalit so'zlar: Yong'in xavfsizligi, avtomatik tizim, to'qimachilik sanoati, MQ datchik, infraqizil datchik, GSM modul, servo motor, Arduino, real vaqt monitoringi, yong'inni bartaraf etish.

Аннотация. В статье рассматривается разработка и внедрение автоматизированной системы обеспечения пожарной безопасности на складах текстильной промышленности. Предлагаемая система обнаруживает возгорания на ранней стадии, выдает предупреждения в режиме реального времени, а также автоматически определяет место возникновения пожара и тушит его. Система реализована с использованием MQ и инфракрасных (ИК) датчиков, GSM-модуля, серводвигателей, клапанов и насосов.

